



# BEGONA

Alber Kamyu

---

52d.139.1  
K.1

ALBER KAMYU

64363

# BEGONA

*Qissa*



**UO'K: 94.33.(575.146+575.171)**

**KBK: 65.013.7 (Frans)**

**K – 21**

Begona: qissa. Alber Kamyu. Rus tilidan Ahmad A'zam tarjimasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 128 bet.

**ISBN978-9943-22-1413**

**Rus tilidan  
Ahmad A'zam  
tarjimasi**

**UO'K: 94.33.(575.146+575.171)**

**KBK: 65.013.7 (Frans)**

**ISBN978-9943-22-1413**

**© Alber Kamyu, «Begona». «Yangi nashr», 2019-yil.**

## I BOB

### I

Bugun onam o'ldi. Yo kechamikan, bilmayman. G'aribxonadan «Onangiz vafot qildi. Ko'mishi ertaga. Chuqur hamdardlik bildiramiz» degan telegramma oldim. Tushunmaysan. Balki kecha o'lgandir.

G'aribxona Marengoda, Jazoirdan sakson chaqirim narida. Soat ikkilik avtobusda ketsam, qorong'i tushmay yetib olaman. Shunda tunni tobut yonida o'tkazishga ulguraman, ertaga kechqurun qaytaman. Boshliqdan ikki kunga ta'til so'radim, u ham yo'q deyolmadi – uzrli sabab. Lekin norozi bo'lgani bilindi. Men yana unga: «Ayb menda emas-ku», dedim. U indamadi. Shunda men bunday demaslik kerak edi, deb o'yladim. Umuman olganda, nimaga uzr so'rayman. Aksincha, u mening ko'nglimga qarashi kerak edi. Lekin u keyin, indinga meni azador ko'rib shunday qilar. Hozircha onam o'lmaganga ham o'xshab turibdi. Ana, janozadan keyin boshqa gap, hamma narsa aniq, joy-joyida bo'ladi, aytishganiday, rasmiy tan olinadi.

Ikkilik avtobusda ketdim. Juda issiq edi. Odatdagiday Selestnikida, restoranda nonushta

qildim. U yerdagilarning hammasi mendan ko'ngil so'radi, Selest esa: «Odamning onasi yagona bo'ladi-da», dedi. Chiqayotganimda hamma meni eshikkacha kuzatdi. Oxirida Emmanyuelnikiga chiqib, qora galstugi bilan azabog'ichini so'rash kerakligini eslab qoldim. Uch oy oldin uning tog'asi o'lgan edi.

Sal bo'lmasa, avtobus ketib qolar ekan, chopishga to'g'ri keldi. Shoshildim, yugurdim, keyin yana avtobus ham qoqib tashladi, benzini sasidi, yo'l ham, osmon ham ko'zimga urilaverib, mudrab qolibman. Uyg'onsam, qanaqadir askarga suyanib ketyapman, u menga qarab jilmaydi, uzoqdan kelyapsizmi, deb so'radi. Men: «Ha», dedim, gaplashishga tobim yo'q edi.

Qishloqdan g'aribxonagacha ikki chaqirim. Piyoda jo'nadim. To'g'ri onamni ko'rmoqchi bo'ldim. Lekin eshikbon avval mudirga uchrash kerak, dedi. Mudir esa band ekan, bir oz kutib o'tirdim. Bu orada eshikbon gapdan tinmadi, keyin mudirga uchrashdim, u kabinetida kutib oldi. Faxriy cherik nishonini taqqan boboy ekan. Tiniq ko'zlarini mendan uzmay qoldi. Keyin qo'limni qisdi, uzoq vaqt qo'yvormadi – men hatto qo'limni qanday bo'shatishni o'ylab qoldim.

U allaqanday juzdonga qarab oldi-da:

– Merso xonim bizda uch yil turdi. Siz uning yagona suyanchig'i edingiz, – dedi.

U meni nimadadir ayblayapti, deb o'ylab, tushuntirishga chog'landim. Lekin u gapimni bo'ldi:

– Oqlash shart emas, og'ayni. Onangizning qog'ozlarini qayta ko'rib chiqdim. Siz uni boqolmas

edingiz. U qarovga, hamshiraga muhtoj bo'lgan. Sizning maoshingiz ham o'ziga yarasha. Hamma tomonini e'tiborga olsak, bizda unga yaxshi bo'lgan.

– Ha, janob mudir, – dedim.

U yana qo'shib qo'ydi:

– Tushunyapsizmi, bu yerda u do'stlari, o'zi tengilar orasida edi. Umumiy qiziqishlari to'g'ri keladigan odamlarni topdi, bularni hozirgi yoshlar tushunmaydi. Siz esa yosh, uni zeriktirib qo'yar edingiz.

Bu to'g'ri. U bilan turganimizda, kun bo'yi indamay, nuqul menga tikilib o'tirgani-o'tirgan edi. G'aribxonaga yangi kelgan kunlari tez-tez yig'lardi. Lekin bu shunchaki ko'nika olmayotganidan edi. Agar bir-ikki oydan keyin g'aribxonadan olib ketsam, shunda ham yig'lab yurardi. Hamma gap ko'nikishda. Qisman shu uchun ham oxirgi yili u yerga bormadim hisob. Keyin yana yakshanbani ko'zim qiymas edi, hali bekatga sudralib borish, chipta olish, yana ikki soat avtobusda silkinib yurishni aytmayapman.

Mudir yana nimadir dedi. Lekin uni eshitmay qo'ydim, keyin u:

– Siz hoynahoy onangizni ko'rishni istayotgandirsiz, – dedi.

Hech narsa demay, o'rnimdan turdim, u meni eshikka boshladi. Zinapoyada izoh berdi:

– Bizda bu yerda kichkina o'likxona bor, marhumani, boshqalarni bezovta qilmasin deb, o'sha yoqqa o'tkazdik! Uyimizda birontasi o'lsa, boshqalari hamisha ikki-uch kun o'ziga kelolmay yuradi. Shunda ularga qarash azobga aylanadi.

Hovlidan o'tdik, bu yerda chollar ko'p edi, to'da-to'da bo'lib, bir nimalarni gaplashayotgan ekanlar. Yonlaridan o'tayotganimizda jimib qolishdi. Orqamizdan yana valaqlashlari eshitildi. Xuddi to'tiqushlar bo'g'iq chug'urlashayotganga o'xshaydi. Mudir pastak bir imorat oldida men bilan xayrlashdi.

- Men qaytaman, janob Merso. Lekin xizimatingizga tayyorman, kerak bo'lsam, kabinetimdan topasiz. Ertalab o'nda chiqarishga kelishganmiz. Tunni marhuma yonida o'tkazishingizni hisobga oldik. Ha, darvoqe, onangiz gap orasida meni butxona udumlari bilan ko'msangiz, deb qayta-qayta aytgan edi. Men hamma tadorikni ko'rib qo'yanman, lekin sizni ham xabardor qilishim kerak.

Rahmat aytdim. Onam bedin bo'lmasa ham, lekin umrida dinga ham qiziqib ko'rmagan edi.

Kirdim. Ichkari juda yorug', devorlari oqlangan, shifti oynavand ekan. Bor bisoti - kursi va yog'och xaraklar. O'rtadagi xuddi shunaqa xaraklar ustida - qopqog'i yopiq tobut. Taxtalari dolchin rangga bo'yalgan, qopqoqda oxirigacha buralmagan yaltiroq murvatlar ko'rinadi. Tobut oldida oq xalatli, guldor ro'mol o'ragan qoratanli hamshira.

Shu payt qulog'im tagidan eshikbonning ovozi eshitildi. Chopib kelganga o'xshaydi.

- Tobut yopiq, lekin menga qopqoqni ochib berishni buyurishdi. Onangizni ko'rasiz deb...

U tobut yoniga o'tayotgan edi, men to'xtatib qoldim.

- Ko'rmaysizmi? - deb so'radi.

– Yo‘q, – dedim.

U orqaga tislandi, men o‘ng‘aysiz ahvolga tushdim, yo‘q demaslik kerak edi. Keyin u menga tikilib:

– Nega bunaqa? – dedi.

Ta‘na qilib emas, shunchaki qiziqayotganday so‘radi.

– O‘zim ham bilmayman, – dedim.

Shunda u oqish mo‘ylovini buradi, menga qaramay:

– Tushunarli, – dedi.

Uning ko‘zlari moviy, chiroyli yuzi qizg‘ish qoraygan edi. Menga kursi qo‘yib berdi, o‘zi ham orqaroqda o‘tirdi. Hamshira joyidan qo‘zg‘alib, eshikka qarab yurdi. Shunda eshikbon menga:

– Zahmi bor, – dedi.

Men tushunmay, hamshiraga qaradim, yuziga doka sirilgan ekan. Burni turtib turishi kerak bo‘lgan joyda doka tep-tekis tortilgan edi. Yuzida ko‘zga tashlanadigan narsa ham shu oq doka edi, xolos.

Hamshira chiqib ketgandan so‘ng eshikbon menga:

– Endi o‘zingiz qolsangiz, – dedi.

Bilmayman, nimadir ishora qildim shekilli, eshikbon ketmay qoldi. Orqamda turishi menga juda noqulay edi. Kechki quyosh nurlari xonaga oqib tushayotgan edi. Ikkita qovog‘ari oynaga g‘o‘ng‘illab urilardi. Meni mudroq bosib keldi. Eshikbon tomonga qaramay:

– Ko‘pdan beri shu yerdamisiz? – deb so‘radim.

U kelganimdan beri shuni so‘rashimga hozirlanib turganday, birdan javob qildi:



– Besh yil.

Shundan keyin u gap sotishga tushdi. Qolgan umrini Marengoda, g'aribxonada eshikbon bo'lib o'tkazishni sira xayoliga keltirmagan ekan. Asli parijlik, oltmish to'rtga chiqibdi. Shu yerda uning gapini bo'ldim.

– E, bu yerlik emasiz?

Keyin esladim, boya mudir yoniga boshlashdan oldin, onamni gapirgan edi. Tezroq ko'mish kerak, bu yer Jazoir, yana adir joy, qarang, qanaqa issiq, degan edi. Ayni shu asnoda Parijda yashagani, Parijdan ko'ngil uzolmayotganini aytgan edi. Parijda o'likni uch kun, hatto to'rt kungacha saqlaydilar. Bu yerda vaqt tig'iz, hali odam o'lganini eshitib, bu xabarga ko'nikib ulgurmay, ridvonaravanning orqasidan chopib ketayotgan bo'lasiz. O'shanda xotini «Bas qilsang-chi, yosh yigitga bunaqa gaplarning keragi yo'q», deb uni jerkib berdi. Chol qizarib, uzr so'radi. Men: «Mayli, hechqisi yo'q», deb yonini olgan bo'ldim.

Meningcha, u nimani gapirgan bo'lsa, hammasi to'g'ri va qiziqarli edi.

U keyin, o'likxonada, g'aribxonaga muhtojlik tufayli kelib qolganini aytdi. Lekin, hali baquvvat, shuning uchun eshikbonlikka o'tibdi. Men, demak, g'aribxona qaramog'ida ekansiz-da, dedim. U bo'lmagan gap, deb tan olmadi. Oldin ham uning g'aribxonadagilar to'g'risida «bular», «manavilar», ora-sira, bu yerdagilarning ba'zilari undan yoshroq bo'lsa ham, «boboylar» deb mintaqib gapirishidan ajablangan edim. Lekin, endi bu boshqa masala.

Har holda, u eshikbon, maʼlum darajada, ularning ustidan boshliq.

Bu orada hamshira qaytib keldi. Birdan kech tushdi. Oynavand shift ustini qorongʻilik qopladi. Eshikbon yoqqichni buradi, yaraqlagan nurlardan koʻzim qamashib qoldi. Eshikbon oshxonaga, ovqatga taklif qildi.

Ovqatlangim yoʻq edi. U menga, bir finjon sutli qahva olib kelaman, dedi. Mayli, dedim, chunki sutli qahvani juda yaxshi koʻraman. U hayal oʻtmay patnis koʻtarib kirdi. Qahvani ichdim. Chekkim keldi. Avval tobut yonida qanday boʻlarkan, deb ikkilandim. Keyin nima farqi bor, deb oʻyladim. Eshikbonga ham sigaret tutdim, ikkalamiz chekdik.

Saldan keyin u:

– Ha, aytganday, hali onangizning doʻstlari ham kelib, jasad yonida oʻtirib chiqishadi. Bu yerda odat shunaqa. Borib yana qahva, kursi olib kelay, – dedi.

Men chiroqlardan loaqlal bittasini oʻchirsa boʻlmaydimi, deb soʻradim. Yaraq-yuruq nurlar oq devorlardan qaytib, odamni toliqtirayotgan edi. Eshikbon sira iloji yoʻq, dedi. Shunaqa ishlangan: yonsa, hammasi birday yonadi, bittasi oʻchsa, hammasi oʻchadi. Shundan soʻng eshikbonga sira eʼtibor bermay qoʻydim. U chiqib ketdi, qaytib kelib kursilarni joylashtirdi. Bitta kursiga qahvachoyinak bilan finjonlarni terib qoʻydi. Keyin tobutning u tomonidan, roʻparamga oʻtirib oldi. Hamshira doim bir burchakda, menga orqa oʻgirib oʻtirar edi. Menga uning nima qilayotgani koʻrinmadi. Lekin tirsaklarining borib-kelishidan, toʻqiyotganini ang-

ladim. Jimlik, qahva ichib isinib oldim, ochiq eshikdan tun va gullarning isi kirib kelardi. Ko'zim ilinibdi shekilli.

Shitir-shitirdan uyg'onib ketdim. O'tkir yorug'ni unutgan ekanman, oppoq devorlar ko'zimni butkul qamashtirib qo'ydi. Tariqcha soya yo'q, har bir ashyo, har bir burchak, chizgilarning aniqligidan ko'zga og'riq kirardi. Onamning do'stlari kirdilar. O'n ikki kishi ekan, ko'r qilarli charog'onda tovushsiz yuzib o'tishdi. O'tirishdi, bironta ham kursi g'ichirlamadi. Men hech qachon eng mayda ajingacha, kiyimlarning eng mayda qatigacha bunchalar aniq-ravshan ko'rmagan edim. Lekin kirganlardan bironta ham tovush chiqmadi, men hatto ularning tirikligiga ham ishonmay qo'ydim. Hamma xotinlar beldan chilvir boylangan peshband taqqan, shundan qorinlari battar qappayib ko'rinadi. Kampirlarning qorni shunaqa katta bo'lishini ilgari sira payqamagan ekanman. Qariyb bari erkaklar oriq, hassa tutib olgan edilar. Hammadan ko'ra ularning ko'zlari ko'rinmayotganiga, qalin ajin to'rlari orasidagi ko'z o'rnida nimadir yiltillayotganiga ajablanib qoldim. O'tirganlaridan keyin, ko'pchiligi menga qarab bosh irg'adi; hammasining tishi tushib ketgan, og'izlari cho'kkan edi; men bilan salomlashishyaptimi yo qarilikdan boshlari shunaqa liqillab qolganmi, bilolmadim. Har holda, salomlashishyapti, deb o'yladim. Shunda ularning bari bosh qimirlatganlaricha, eshikbonning ikki tarafidan menga yuzma-yuz o'tirayotganlariga e'tibor qildim. Bular meni hukm qilishga to'planishgan, degan bema'ni fikr xayolimdan lip etib o'tdi.

Ko'p o'tmay xotinlardan biri yig'lashga tushdi. U ikkinchi qatorda, boshqa bir kampirning orqasida o'tirgan edi, menga yaxshi ko'rinmadi. U bir maromda, ora-sira hiqillab cho'zar, yig'isini, nazarimda, hech qachon to'xtatmaydiganga o'xshar edi. Boshqalari esa xuddi uni eshitmayotganday o'tirardilar. Hammasi allanechuk shalvirab, ho'mrayib, indamay qolgandi. Har biri o'zicha biron bir nuqtaga – birovi tobutga, birovi hassasiga, ishqilib, to'g'ri kelgan tomonga tikilib qolib, boshqa hech narsaga qaramayotgan edi. Boyagi xotin hanuz yig'lardi. G'alati-ya, bo'lmasa, mutlaqo begona xotin. Yig'isini juda to'xtatgim keldi. Ammo o'ziga aytishga yuragim dov bermadi. Eshikbon unga egilib, gapirib ko'rdi, ammo xotin bosh chayqab, bir nima deb ming'irladi-da, yana o'shanday bir ohangda hiqillayverdi. Shundan keyin eshikbon tobutni aylanib, yonimga kelib o'tirdi. Avvaliga sukut qildi, so'ngra yuzimga qaramay:

– Onangizga bog'lanib qolgan edi, – dedi. – U marhuma yolg'iz dugonam edi, endi bu yerda hech kimim qolmadi, deyapti.

Shu ko'yi uzoq o'tirdik. Haligi xotinning uh tortib, hiqillashi sal-saldan kamaydi. Yana biroz vaqt pish-pish qilib turib, nihoyat tinchidi. Boshqa uxlagim kelmasdi, ammo juda charchadim, belimga zirqiroq kirgan edi. Endi bularning sukut saqlab o'tirishi ezib yubordi. Faqat har zamonda g'alati bir tovush eshutiladi, qayoqdan kelayotganini bilolmay turgan edim. Nihoyat, topdim: qariyalarning ba'zilari lunjini so'rayotganda tishsiz og'zidan

shunaqa cho'lpillash chiqar ekan. Haddan ortiq o'ylga berilganlaridan o'zlari ham payqamayotgan edilar. Menga hatto ularning marhuma bilan tariqcha ham ishlari yo'qday tuyuldi. Endi o'ylasam, menga shunday tuyulgan ekan, xolos.

Eshikbon hammaga qahva quydi, hammamiz ichdik. Keyin nima bo'ldi, bilmayman. Tun oxirlab qolibdi. Qay bir mahal ko'zimni ochib, qariyalarning kursiga qapishib uxlayotgani, faqat bittasi hassasini mahkam qisimlagan qo'llariga iyagini tirab, menga tikilib o'tirganini ko'rganim esimda. Keyin yana ko'zim ilinibdi. Belim qattiqroq og'riyotganidan uyg'onib ketdim. Shisha tomning tepasi yorishib qolibdi. Saldan keyin bir qariya uyg'onib, rosa uzoq yo'taldi. Tinmay katta katak dastro'moliga tupurar, har yo'talganida ichidan bir narsa yulinib chiqayotganga o'xshardi. Yo'tal tovushidan boshqalari uyg'ondi, eshikbon ketadigan vaqtlaring ham bo'ldi, dedi. Tobut yonida o'tirib chiqishdan qiynalغانlaridan hammasining yuzi kulrang tusga kirgan edi. Juda g'alati bo'ldi: biz bir og'iz ham gaplashmagan bu kecha barimizni qadrdon qilib qo'yganday, ketayotib hammasi qo'limni qisib qo'ydi.

Charchadim. Eshikbon darvozaxonaga taklif qildi, sal uyoq-buyog'imni to'g'rilab oldim. Keyin yana sutli qahva ichdim, juda lazzatli ekan. Darvozaxonadan chiqqanimda tong otib ketgan edi. Marengo bilan dengiz o'rtasidagi qirlar tepasida osmon qizg'ish tusga kiribdi. Shamol ham o'sha qirlar ortidan dengizning sho'r nafasini olib

kelayotgan edi. Juda ajoyib kun boshlandi. Ko'pdan beri shahardan chiqqanim yo'q, agar onam bunaqa bo'lmasa, jon deb sayrga otlanardim.

Endi hovlida, chinor tagida kutib qoldim. Dimog'imga toza yer hidi urildi, uyqu xumori butkul yo'qoldi. Hamkasblarim esimga tushdi. Hozir ular turib, ishga otlanadilar – men uchun eng og'ir daqiqalar shu edi. Yana ozgina vaqt shunaqa narsalar to'g'risida o'yladim, keyin g'aribxonada qo'ng'iroq chalindi, xayolim bo'lindi. Derazalarining ichkarisida allanechuk sarosimalik boshlandida, sal o'tmay hamma yoq yana jimib qoldi. Quyosh tag'in ham balandlab, oyog'imni qizdira boshladi. Kabinetga bordim. Mudir bir talay qog'ozlarga qo'l qo'ydirdi. Egnida qora syurtuk, chiziq-chiziq shim. U telefonni ushlab, menga:

– Dafn mahkamasi xodimlari keldi. Hozir tobutni mahkamlab yopishni buyuraman. Mabodo, undan oldin onangizni oxirgi marta ko'rib qolmoqchi bo'lsangiz, ayting, – dedi.

Men, yo'q, dedim. U ovozinı pasaytirib telefonga buyurdi:

– Fijak, ayting ularga, boshlayverishsin.

Keyin u menga, ko'mishda o'zim ham qatnashaman, dedi. Men minnatdorçhilik bildirdim. U yozuv stoliga o'tirib, kaltagina oyoqlarini çhalishtirdi. Men-u siz, yana navbatchi hamshira boradi, dedi. G'aribxona istiqomatchilariga ko'mishda qatnashish ta'qiqlangan ekan. Mudir ularga faqat keçhasi jasad yonida o'tirib çhiqishga ruxsat berar ekan.

– Odamparvarlikni ham unutmash kerak, – dedi u.

Lekin bu gal u bir qariyaga marhumani mozorgacha kuzatishga ruxsat beribdi.

– Toma Perez – onangizning eski qadrdoni. – Mudir shu yerda jilmayib qo‘ydi. – Tushunasiz-ku, bunaqa tuyg‘u ham bir bolalik. Lekin onangiz ikkovi juda qalin edi. Bu yerdagilar tegishib, Perezni kuyov, deb aytardilar. U ham kulardi. Bu gap ikkalasiga ham yoqardi. Yana, aslini aytganda, Merso xonimning o‘limi unga juda og‘ir zarba bo‘lib tushdi. Shuning uchun ham ko‘nglini qaytarmadim. Ammo kechasi marhuma yonida o‘tirib chiqishga qo‘ymadim – hakim shunday maslahat beruvdi.

Keyin anchagacha indamay o‘tirdik. Mudir o‘rnidan turib derazaga qaradi. Sal o‘tib:

– Ana, kashish ham shu yerda. Sal ertaroq kelibdi, – dedi.

U yana qavmlar butxonasi Marengoning o‘zida ekanini, u yoqqacha chorak kam bir soat yurish kerakligini aytib qo‘ydi. Kabinetdan chiqdik. O‘likxona yonida kashish bilan yana ikkita dastyor bola turgan ekan, kashish egilib, bir dastyorning qo‘lidagi buxo‘rdonning kumush zanjirini to‘g‘rilayotgan edi. Yaqin borganimizda kashish qaddini ko‘tardi. Menga «bo‘tam», deb ikki og‘iz taskin berdi. Keyin u o‘likxonaga kirdi, men unga ergashdim.

Kirganim zahoti murvatlarning qopqoqqa chuqur qotirilganiga, to‘rtta qora kiygan odam turganiga e‘tibor qildi. Mudir ridvonarava kutib qolganini aytdi, kashish shu ondayoq tilovat qi-

lishga tushdi. Qora kiygan odamlar qo'llaridagi yopinchiq bilan tobutni o'radilar. Kashish, dastyor bolalar, mudir ikkalamiz o'likxonadan chiqdik. Eshik oldida bir yoshi ulug'roq ayol turgan ekan, oldin uni ko'rmagan edim. Mudir meni unga:

– Janob Merso, – deb tanishtirdi.

Xonimning ismini eshitmadim, faqat uning shu yerlik ekanini anglab qoldim. U iltifot ham qilmay, quruq boshini egdi, yuzi cho'zinchoq, juda qotma edi. Keyin hammamiz tobutkashlarga yo'l bo'shatib, o'zimizni chetga oldik. Tobutni olib chiqishdi, ularga izma-iz darvozadan o'tdik. Darvoza oldida ridvonarava turardi: uzun, yaltiroq, qalamdonning o'zginasi. Ridvonarava yonida yarashiqsiz kiyim kiygan pakana odamcha – marosimboshi va o'zini yo'qotib qo'ygan, jonsarak bir qariya turgan ekan. Perez degani shu ekanini angladim. U keng gardishli, tepasi dumaloq movut shlyapa (tobutni olib chiqayotganlarida, boshidan oldi), kattaligidan shimining pochasi boshmog'i ustida qatlanib qolgan kostyum kiygan, bo'yniga katta yoqali oq ko'ylagiga nisbatan kichkina ko'rinadigan qora kapalak taqqan edi. Burniga husnbuzar toshgan, lablari qaltiraydi. Siyrak oq sochlari tagida ajabtovur g'alati bichimli quloqlari tikraygan, bu ham yetmaganday, olovrang-qirmizi tovlanadi, shunga rosa ajablandim, lekin o'zi murdaday oqarib ketgan edi. Marosimboshi bizga tartib qanaqa bo'lishini tushuntirdi. Hammadan oldin kashish, keyin ridvonarava. Ridvonarava atrofida to'rtta qora kiygan odam. Orqada mudir ikkovimiz. Saf oxirida esa hamshira bilan Perez yuradigan bo'ldi.



Quyosh osmonni o'ziniki qilib olgan edi. Havo qizib, harorat daqqa sayin ko'tarilib borardi. Nega buncha uzoq turib qolganimizni tushunolmadim. Qora kostyumda pishib ketdim. Perez chol shlyapasini bir kiydi-yu, yana shu zahoti yechib oldi. Sal burilib, unga ko'z tashladim, mudirning u haqda nima deyayotganiga quloq soldim. Kechqurunlari onam bilan Perezning bir hamshira kuzatuvida sayr qilishgani, goho qishloqqacha borishlarini aytayotgan ekan. Atrofga qaradim. Sarvlar qatori ufqdagi qirlargacha ko'tarilib borgan, ora-orada, qayerda qizg'ish, qayerda yashil yer ko'zga tashlanar, unda-bundagi uylar juda aniq ko'rinardi va men shunda onamni tushundim. Bu o'lkaning oqshomi o'ychan sukunatdan iborat bo'lsa kerak. Hozir esa butun atrof qaysar quyosh ostida qaynab, o'zi ham toshbag'ir va berahm bir tus olgan edi.

Yo'lga tushdik. Shundan keyin Perezning oqsayotganini sezdim. Ridvonarava tobora jadallab, chol oz-ozdan orqada qola boshladi. Qora kiyganlardan birovi ham ridvonaravani oldinga o'tkazib, men bilan yonma-yon tushib oldi. Qiziq, quyosh borgan sari tez ko'tarilardi. Dalalardagi hasharotlar allaqachon g'o'ng'illash, vizillashini boshlab yuboribdi. O'tlar shitir-shitir qilayotgan edi. Yuzimga ter quyildi. Shlyapamni tashlab kelgan edim, dastro'molcha bilan yelpindim. Janoza mahkamasi xodimi menga bir narsa dedi, lekin eshitmadim. U tepakalini dastro'moli bilan artdi, dastro'mol chap qo'lida edi, o'ng qo'li bilan furajkasini ko'tardi. Men qaytarib so'radim:

– Nima?

U osmonga ishora qilib, takrorladi:

– Kuydiryapti-yu.

– Ha, – dedim.

Saldan keyin u:

– Marhumaga kim bo'lasiz – o'g'limi? – deb so'radi.


Men yana ha, dedim.

– Qarib qolganmidi?

– Ha, shunaqaroq – dedim, chunki onam nechaga chiqqanini aniq bilmadim.

Keyin u boshqa gapirmadi. Orqaga o'girilib, Perezning ellik qadamcha qolib ketganini ko'rdim. Shlyapasini ushlab olib, qo'llarini silkitganча, jonining boricha intilayotgan edi. Mudirga ham qarab qo'ydim. U bironta ham ortiqча harakat qilmay, viqor bilan odimlayotgan edi. Peshonasiga ter ko'pchigan, lekin u artib ham qo'ymas edi.

Nazarimda, izdihom tobora tezlashayotganday edi. Atrofdа – quyoshga bo'kib, yaltillab yotgan o'sha bir xil adirlik. Bir muddat yo'lning yaqindagina tuzatilgan joyidan yurdik. Quyoshda gudron erigan edi. Oyoq botib, yo'lning yaltillayotgan badanida chuqur-chuqur jarohatlar qoladi. Aravakashning ridvonarava tepasida lipillab borayotgan kleyonka silindri ham shu qora mumdan quyilganga o'xshaydi. Osmon ko'zga haddan ortiq qadaldardi. Quyosh, ridvonaravadan kelayotgan ko'n hidi, ot go'ngining isi, buxo'r va lok bo'yining anqishi, chala uyqu tundan keyingi ~~lanjib~~ ~~hammasidan~~ boshim aylanib, miyam ~~qaynab~~, fikrlarim ayqashib



ketayotgan edi. Yana qayrilib qaraganimda, Perez quyosh jivirida lip-lip etib ko'rdi, keyin tamom yo'qolib qoldi. Atrofga alanglab, uning yo'lni qo'yib, daladan kesib chiqayotganini ko'rdim. Keyin bilsam, oldimizda yo'lning burumi bor ekan. Demak, bu yerlarni yaxshi bilgan Perez bizga yetib olish uchun yo'lni qisqa qilgan. Burumda u bizga qo'shildi. Keyin uni yana yo'qotib qo'ydik. U yana daladan kesib chiqdi, shu ahvol bir necha bor takrorlandi. Chakkamda qon tepayotganini his qildim. Keyin hammasi kelishilgan, tartibli maromda shunday tez bo'ldiki, hech narsani eslab qololmadim. Faqat bittasi – qishloqqa kirayotganimizda hamshiraning gapirgani esimda. Uning shu yuziga sira mos tushmaydigan haroratli, jaranglama, ajoyib bir ovozi bor ekan.

– Sekin yurish xavfli, oftob urishi mumkin, – dedi u. – Lekin shoshilsangiz, terlab ketasiz, keyin butxonada shamollaysiz.

Ha, gapi to'g'ri. Boshqa iloj ham yo'q. Xotiramda shu kundan qandaydir uzuq-yuluq parchalar qolgan – masalan, bizga oxirgi marta yetib kelgan Perezning yuzi. Charchoq va qayg'udan yuzlarida yirik-yirik yosh tomchilari sizayotgan edi. Lekin ajinlari tomchilarning yumalashiga imkon bermayotgan, ko'zyoshi yoyilib, cholning qotma yuzini yiltiroq ho'l pardaday qoplab olgan edi. Keyin esimda qolganlari – butxona, yo'l chekkalaridagi qishloq odamlari, mozor, go'rlar ustida qizarib turgan yorongullar, Perezning o'zidan ketib qolgani (xuddi ipi qo'yib yuborilgan qo'g'irchoqday quladi), onamning

tobuti ustiga tomirlarning oppoq etiga aralashib tushayotgan qonday qirmizi tuproq, yana odamlar, g'ala-g'ovur, qishloq, qahvaxona oldidagi bekat, motorning betinim guvillashi – avtobus Jazoirning charog'on chiroqlari oralab yurayotganda, hozir borib o'zimni to'shakka tappa tashlayman-u, o'n ikki soat qotib uxlayman, deb quvonch bilan o'ylaganim esimda.

## II

Uyg'onganimdan keyin nima uchun ikki kunga ta'til so'raganimda boshliqning norozi bo'lganini tushundim – bugun shanba ekan. Sal bo'lmasa unutibman, turayotib birdan esladim. Albatta, boshliq o'sha zahoti yakshanbani ham hisoblaganda, to'rt kun erkin bo'lishimni o'ylagan, turgan gap, bu unga yoqmagan. Lekin, bir jihatdan, onamni bugun emas, kecha ko'mganimiz uchun men aybdor emas, boshqa tomondan, shanba, yakshanba kunlari, bari bir, ishga bormasdim. Lekin, shunda ham, boshliqning noroziligini yaxshi tushunaman.

Turishim qiyin bo'ldi, chunki kecha rosa charchagan edim. Soqolimni olayotib, bugun nima qilishni o'yladim va cho'milishga qaror qildim. Tramvayga o'tirdim, bandargoh yonidagi suvga bordim. Suvga tushib, suzib ketdim. Yosh-yalang ko'p edi. Suvda Mari Kardonni uchratdim. U ilgari bizda kotiba bo'lib ishlagan, o'sha paytlari uni istar edim. U ham, aftidan, yo'q demasdi.

Lekin topishmadik, u tezda bo'shab ketdi. Hozir uning gupsarga chiqib olishiga ko'maklashdim

va shu asnoda ko'kragiga tegindim. Men hali suvdan chiqqanim yo'q, u esa gunsarga cho'zilib yotdi. Va menga o'girildi. Sochlari ko'ziga tushdi va u kulib yubordi. Men ham cho'zilib, uning yoniga yotdim. Juda yaxshi, sal pastga surilib, xuddi hazillashayotganday boshimni qorniga qo'ydim. U indamadi, men ham shunday yotaverdim. Bepoyon, moviy va tillarang osmon to'g'ri ko'zimga keldi. Ensam bilan Marining nafas olayotganda qorni sekin ko'tarilib tushishini tuydim. Shu ko'yi yarim mudrab uzoq yotdik. Quyosh juda kuydiravergandan keyin Mari suvga tashlandi, men ham unga ergashdim. yetib olib, belidan quchoqladim. Ikkalamiz suzib ketdik. U tinmay kulardi. Qumloqda quriyotganimizda u:

– Men sizdan ko'proq qorayibman, – dedi.

Men undan, kechqurun kinoga bormaysizmi, deb so'radim. Fernandel o'ynagan kartina bo'lsa, yo'q demasdim, dedi. Kiyinganimizdan keyin u meni qora galstukda ko'rib, juda hayron bo'ldi, nima, azadormisiz, deb so'radi. Onam o'lgan, dedim. U qachon, dedi. Men kecha, dedim. U bir qadam ortga tislendi, lekin indamadi. Axir, menda nima ayb, deb aytmoqchi edim, lekin boshliqqa ham shunday deganimni eslab qoldim. Ha, mayli, qanday aylantirsang ham, bari bir, gunohkor bo'lib chiqaverasan.

Kechqurun Mari hammasini unutib yubordi. Film, ba'zi joylari qiziqarli bo'lsa ham, lekin, umuman olganda, sayozgina ekan. Marining oyog'i oyog'imga qapishib turgan edi. Seans oxirida uni o'pib oldim, lekin o'pishim qanaqadir beo'xshov chiqdi. Kinodan keyin Mari menikiga yurdi.

Ertalab ko'zimni ochsam, Mari ketgan ekan. Oldinroq xolasini ko'rishi kerakligini aytgan edi. Bugun yakshanbaligini esladim, ko'nglim xira bo'ldi: yakshanbalarni yomon ko'raman. Bu tomonimga ag'darilib, Marining dengiz hidiga qorishgan sochlarining bo'yi kelayotgan yostiقدan nafas oldim va soat o'ngacha qotib uxladim. Keyin o'n ikkigacha turmay yotdim, bir nechta sigaret chekdim. Har kungiday Selestnikiga borib nonushta qilish yoqmadi, u yerda, turgan gap, savolga tutishadi, menga bunaqasi yoqmaydi. Tuxum qovurdoq qilib, tovaning o'zidan, nonsiz yeb oldim – uyda bir burda non ham yo'q edi, chiqib kelishga erindim.

Nonushtadan so'ng zerikib qoldim, uyda tentiray boshladim. Onam bilan turganda, uy saranjom edi. Bir kishiga esa kenglik qildi, yemakxonadagi stolni yotoqxonamga kiritib olishga to'g'ri keldi. Hozir faqat shu xonada yashayman, bu yerda po-xol o'tirg'ichi cho'kkan bir nechta kursi, oynavand shkaf (ko'z gusini sariq dog' bosib ketyapti), qo'lyuv-gich va mis panjarali karavot bor. Boshqa narsalar qanday tashlangan bo'lsa, shunday yotibdi. Nima qilishimni bilmay, eski bir gazetani oldim, o'qishga tutindim, surgidori reklamasini qiyib, eski daftaringa yopishtirdim, bu daftarga gazetalarda nima kulgili narsa ko'rsam, hammasini yig'ib yuraman. Keyin qo'limni yuvdim va nihoyat peshayvonga chiqdim.

Xonamning derazasi shahar kanorasining markaziy maydoniga qaragan. Havo ochiq edi. Lekin shibbalangan ko'cha moyday yaltillaydi, o'tkinchilar siyrak, hammasi shoshilayotgan edi.

Ayrimlar oila-oila bo'lib, sayrga chiqishgan. Avval qotirib dazmollangan matroska va tizzadan sal pastroqqa tushadigan ishtonlarida xuddi tayoqday ko'rinayotgan ikki bolakay, sochlariga katta naparmon kapalak taqqan, loklangan qora boshmoqcha kiygan qizaloq o'tdi. Ulardan keyin jigarrang ipak ko'ylakli semiz onaxon va kichkina, chuvakkina padarcha ko'rindi, uni yuzidan taniyman. U kapalaknusxa galstuk taqib, qo'lga aso tutgan edi. Xotini bilan yonma-yon ko'rgandan keyin, uning nega mahallamizda juda baobro' sanalishini tushunib qoldim. Saldan keyin navqiron oliftalar o'tdi – sochlari silliq taralgan, moylangan, galstuklari qizil, beli tor kostyumlarining ko'krak kissasida kashtado'z dastro'mol, oyoqlarida tumshug'i chorqirra boshmoq. Shaharga, kinoga o'tlanishgani ko'rinib turibdi. Shuning uchun uydan ertaroq chiqqanlar, tramvayga oshiqadilar, ovozlarning boricha xaxolab kuladilar.

Keyin ko'cha sekin-sekin huvillab qoldi. Hamma joyda seanslar boshlanganga o'xshaydi. Ko'chada faqat baqqollar-u mushuklar qoldi. Uylarni enlab o'sgan fikus daraxtlari tepasidagi osmon toza, lekin xiraroq. Yo'lning u tomonidagi tamaki do'konining sohibi kiraverishdagi yo'lakka kursi qo'yib, minib oldi, tirsaklarini suyanchiqqa tiradi. Boyagina tiqilinch o'tgan tramvaylar endi bo'sh qaytyapti. Tamaki do'koni yonidagi «Pero huzurida» qahvaxonasi xizmatchisi qipiq sepib, polni supurdi. Bugun yakshanba ekani shundoq ko'rinib turibdi.

Men ham tamakifurushga o'xshab, kursini aylantirib o'tirdim – shunaqasi juda o'ng'ay ekan.

Ikkita sigaret chekib, xonamga kirdim, bir bo'lak shokolad oldim-da, deraza yoniga qaytdim. Ko'p o'tmay osmon xiralashdi, yozgi momoqaldiroq gumburlab bermasa edi, deb o'yladim. Lekin osmon asta-sekin yana yorishdi. Ammo bulutlar o'tib ketgan bo'lsa ham, ko'cha xuddi yomg'irni kutayotganday xira tortib turaverdi. Men osmonga tikilib, ne mahalgacha o'tirdim.

Soat beshda tramvaylar taraqlab kelib qoldi. Ular uzoqroqdagi stadiondan odam olib qaytayotgan, ishqibozlar tramvaylarning biqiniga, lappaklariga dasta-dasta osilgan edilar. Keyingi tramvaylar o'yinchilarning o'zini olib o'tdi, jomadonlaridan tanidim. Ular baqirib, o'zlarining yengilmas komandalari sha'niga qo'shiq aytib kelishayotgan edi. Ba'zilar menga qo'l silkidi. Bittasi hatto:

– Biz yutdik! – deb qichqirdi.

Men ham bosh irg'ab qo'ydim.

Keyin oqim-oqim bo'lib avtomobillar o'tdi. Kun battar xiralashdi. Tomlar ustidagi osmon qirmizi tusga kirdi, kech kirishi bilan ko'chalar jonlandi. Odamlar sayrdan qayta boshladi. Ular orasida baobro' oila boshlig'ini ham ko'rdim. Bolalar g'ingshib, tixirlik qilar, ularning qo'llaridan sudrar edilar. Shu paytiyoq mahallamizdagi hamma kinoteatrlar tomoshabinlar oqimini ochib yubordi. Yoshlar odatdagidan g'ayratliroq odimlab, qo'llarini shahdam siltar edilar – sarguzasht kino ko'rsatilganga o'xshaydi. Shahar markazidagi kinoga borganlar keyinroq qaytishdi. Bular o'zlarini ancha jiddiy tutardilar. Ba'zan-ba'zan kulib qo'yishar,



ammo yuzlari horg'in va o'ychanligicha qolaverar edi. Ular uy-uylariga tarqalishmay, ro'paradagi yo'lakda uyoqdan bu yoqqa yurib sayr qilishdi. Qizlar qo'ltiqlashib kezardilar. Yigitchalar ataylab ularning yo'llarini to'sib, har xil gap otar, qizlar esa teskari burilib, hiringlab qo'yar edilard. Ba'zi qizlar menga tanish edi, bosh irg'ab, tabassum qilishdi.

Birdan ko'cha chiroqlari porlab, endigina ko'ringan yulduzlar unniqib qoldi. Charog'on ko'chaga, o'tkinchilarga hadeb qarayverganimdan ko'zlarim jimirlashib ketdi. Ko'cha chiroqlar ostida yaltirar, o'tib ketayotgan tramvaylar shu'lasida kimningdir sochi, tabassumi yo kumush baldog'i chaq nab qolar edi. Kam-kamdan tramvaylar siyraklashdi, daraxtlar va chiroqlar tepasidagi osmon butkul qoraydi, asta-sekin mahalla huvilladi va, mana, tamom kimsasiz ko'chani yalqovlanib birinchi mushuk ham kesib o'tdi. Shunda men ovqatlanib olish kerak, deb o'yladim. Kursi suyanchig'iga tirsaklarimni tirab, uzoq o'tirganimdan bo'ynim qotib qolibdi. Non bilan makaronga chiqib keldim, makaron qaynatib, tik turgancha yeb oldim. Keyin deraza yonida yana sigaret chekmoqchi edim, salqin urib, junjikib ketdim. Derazani yopib qaytayotganimda, ko'zguda stolning bir burchagi, uning ustidagi manqaldon, burda nonlarni ko'rdim. Va o'yladim – mana, yakshanba ham o'tdi, onamni ko'mdik, ertaga yana ishga boraman va, mohiyatan olganda, hech narsa o'zgargani ham yo'q.

### III

Bugun mahkamada ishlarim uyulib yotgan ekan. Boshliq ancha odamoxunlik qildi. Juda charchagandirsiz, deb so'radi, u ham onamning necha yoshga chiqqanini surishtirdi. Adashishdan qochib, «yetmishga qarab ketayotgan edi», deb qo'ya qoldim. Boshliq, boshqa gaplashadigan gap qolmadi, deb hisobladimi, negadir juda yengil tortdi.

Stolimda hujjatlar dasta-dasta uyulib yotgan edi, hammasini ishlash kerak. Ovqatga borishdan oldin qo'limni yuvdim. Tush payti bu – eng yoqimli yumush. Kechqurun juda yoqimsiz – qo'lyuvgich oldidagi sochiqdan butun mahkama foydalanadi, kechga borib jiqqa ho'l bo'ladi. Bir kuni boshliqqa shunday deb aytdim, u, albatta, yaxshi emas, lekin arzimas nuqson, dedi. Ovqatga odatdagidan kechroq, o'n ikki yarimda, Emmanyuel bilan bordim, u ekspeditsiya bo'limida ishlaydi. Mahkamamiz dengizga qaragan, biz ikki-uch daqiqa alahsib qoldik – quyoshda tovlanayotgan bandargohdagi tijorat kemalarini tomosha qildik. Shu payti dudburonini tarillatib, zanjirlari qaltirab, bir yukmoshin o'tib qoldi. Emmanyuel: «Ketdikmi?», dedi. Yukmoshin uzoqlashgan edi, quvlashga tushdik. Shovqindan qulog'im bitib, changga ko'milib qoldim. Hech narsani ko'rmay-sezmay, chig'irlar, ko'tarminorlar, to'lqinda osmonni chizayotgan kema xarilari, matalgan qayiqlar oralab chopayotgan edik. Yukmoshinga birinchi bo'lib yetib, o'grachasiga chiqib oldim. Keyin Emmanyuelga ko'maklashdim.

Zo'rg'a nafas rostladik, yukmoshin quyosh va changga qorishib, chorqirra tosh to'shalgan yo'ldan sakrab-sakrab borayotgan edi. Emmanyuel xaxolashini to'xtatolmasdi.

Terlab-pishib Selestnikiga kirib bordik. U hamishagiday, meshqorin, oq mo'ylovli, oq fartukda turgan edi. Mendan «Xo'sh, qalay, tuzukmisan?», deb so'radi. Men: «Ha», dedim, qornim ochganini ham aytdim. Nonushtani apir-shapir tushirib, qahva ichdim. Uyga bordim, ozgina mizg'idim, ovqatdan keyin ko'proq ichgan ekanman, uyg'onganimdan keyin chekish xumor qildi. Kechikishdan qo'rqib tramvayga yugurdim. Kechgacha ishladim. Mahkama juda dim bo'ldi. Va kechqurun shoshilmay, huzur qilib suv bo'yidan piyoda qaytdim. Osmon zangori; o'zim ham osoyishta, xushnud edim. Shunga qaramay, to'ppa-to'g'ri uyga jo'nadim, kartoshka qaynatib yegim kelgan edi.

G'ira-shira zinapoyadan chiqayotib Salamano cholga to'qnash keldim – u bilan bir dolonchada turamiz. Ko'ppagini ko'chaga olib chiqayotgan ekan. Sakkiz yildan beri ikkovi birga yashaydi. Bu spanielning qanaqadir teri kasalligi bor, temiratki bo'lsa kerak – juni tushib, hamma yog'ini yara-chaqa, qoraqo'tir bosgan. Salamano chol ko'ppagi bilan torkunjak uyda yashaydi, uzoq vaqt birga turganidan o'zi ham ko'ppagiga o'xshab qolgan. Yuzini qizg'ish qasmoq boylagan, sochlari siyrak, unniqib ketgan. Ko'ppak ham egasiga taassub qiladi: kallasini osiltirib, bo'ynini cho'zib, bukchayib yuradi. Ikkalasing ham zoti birga o'xshaydi, lekin

birov-birovini o'lguday yomon ko'radi. Chol kuniga ikki mahal, o'n birda va oltida ko'ppakni sayrga olib chiqadi. Sakkiz yildan beri ular yuradigan yo'l o'zgarmaydi. Lion ko'chasida kezishadi, ko'ppak jonining boricha tasma-sini tortadi, Salamano chol chalishib ketadi. Shunda u ko'ppakni kaltaklaydi, bo'ralab so'kadi. Ko'ppak qo'rqqanidan cho'nqayib, yerga qapishib oladi. Endi sudrash navbati cholga o'tadi. Lekin ko'ppak, sal kaltakni unutishi bilan, yana xo'jayinini sudrab ketadi, bunisi yana uni uradi, boyagiday so'kadi. Ikkalasi yo'lakning qoq belida bir-biriga tikilib turishadi: it qo'rqinch bilan, odam nafrat bilan. Har kuni shu ahvol. Ko'ppak oyog'ini ko'tarsa, chol unga imkon bermaydi, sudraydi va ko'ppakning orqasida munchoq-munchoq tomchi to'kiladi. Agar ko'ppak uyda shunday qilib qo'ysa, boshiga yana kaltak yog'iladi. Sakkiz yildan beri ahvol shu. Selest Salamanoni yaramas odam, deydi, lekin shundaymi, yo'qmi, kim ham biladi. Cholni zinapoyada ko'rganimda, u ko'ppagini so'kayotgan ekan:

– Past! – dedi u. – Ablah!

Ko'ppak javob o'rniga ingilladi.

– Xayrli kech! – dedim cholga.

Chol so'kinishdan to'xtamadi. Shunda men undan iti nima yomonlik qilganini so'radim. Salamano javob bermay, nuqul:

– Past! Ablah! – deb takrorlardi.

Qorong'ida uning itiga egilib, bo'yinbog'ini to'g'rilaganini g'ira-shira ko'rdim. Men yana, bu gal qattiqroq so'radim. Shunda u men tomonga qaramay, jahlini zo'rg'a bosib:

– Jonimga tegib ketdi bu... – dedi.

Va shu bilan ko'ppagini sudradi, ko'ppak g'ingshidi, to'rt panjasi bilan tiralib oldi.

Shu payti dolonchada birga turadigan yana bir qo'shnim chiqib qoldi. Mahallamizda u qo'shmachi sifatida nom chiqargan. Lekin o'zidan nima ish qilishini surishtirganlarga, omborchiman, deydi. Hech kim uni yoqtirmaydi. Ammo men bilan tez-tez gaplashib qoladi, ba'zan hatto uyimga ham kirib turadi, chunki men uning gaplarini eshitib o'tiraman. Meningcha, u qiziq narsalarni aytadi. Keyin, u bilan gaplashmay yurishga ham hech bir asos yo'q. Uning oti – Raymon Sintes. O'rta bo'yli, yelkari keng, burni bokschilarnikiga o'xshaydi. Po'rim kiyinib yuradi. U ham Salamano to'g'risida menga:

– Yaramasni qarang! – dedi.

Va bularning hammasi jirkanch tuyulmaydimi sizga, deb so'radi, men yo'q, dedim.

Zinapoyadan birga chiqdik, men uyga kirmoqchi edim, lekin u:

– Menikida kolbasa bilan vino bor. Balki kirarsiz? – dedi.

Kirsam o'zimga ovqat qilishdan qutulaman, deb o'yladim, rozi bo'ldim. Raymonning uyi xuddi Salamanonikiday, bitta xona-yu qorong'i, derazasi yo'q oshxonadan iborat edi. Karavot tepasida – oqish-naparmon ganch farishta, chempionlarning rasmlari, jumaldan qirqib olingan ikki yo uchta surat – yalang'och xotinlar. Uy iflos, to'shak yig'ishtiriqsiz edi. Raymon eng avval kerosin chiroqqa unnadi, keyin cho'ntagidan toza-notozaligi bilinmay ketgan

bint olib, o'ng qo'lini bog'lashga kirishdi. Men qo'lga nima qilganini so'radim. U izoh berdi: bir nusxa tirg'alib olgan ekan, adabini berib qo'yishga to'g'ri kelibdi.

– Tushunyapsizmi, janob Merso, men badjahl emasman, lekin fe'lim tez. O'sha nusxa menga: «Qani, erkak bo'lsang, tramvaydan tush!», dedi. Men unga: «Mayli endi, elakishma», dedim. U bo'lsa, shu, erkak emassan, deyapti. Oxiri u bilan birga tramvaydan tushdim-da, «Yaxshisi, jo'na, bo'lmasa, ko'rsatib qo'yaman!», dedim. U bo'lsa, «Qo'lingdan kelmaydi!», deydi. Shu payti bir soldim. Uchib ketdi. Turg'izib qo'ymoqchi edim. Tepinib yaqinlashtirmayapti. Tizzam bilan yaxshilab tuydim-da, shart-shurt yuziga soldim. Basharasi qonga qorishdi. Xo'sh, qalay, shu bilan basmi, deb so'radim. U: «Bas», dedi.

Sintes gapdan to'xtamay, qo'lini bog'lab oldi. Men uning to'shagida o'tirgan edim. U yana:

– Tushunyapsizmi, men unga tegmagan edim. O'zi birinchi haqorat qildi.

Shunday qilish kerak edi, deb gapiga qo'shildim. Keyin u men bilan ayni shu haqda maslahatlashib olmoqchi ekanini aytib qoldi, men erkak ekanman yana ko'pni ko'rganman va unga yordam berolaman, shunday qilsam, u men bilan do'st tutinadi. Men indamadim, shunda u qadrdon do'st bo'lishga xohishimni so'radi. Menga baribir, dedim va u, ko'rinishidan, mamnun bo'ldi. U kolbasa olib, tovada qizartirdi, stakan, likopchalarni joylashtirdi, pichoq, sanchqilar, ikki shisha vino qo'ydi. Hammasini indamay qildi. Keyin stolga o'tirdik. Ovqat ustida

o'z ishlari haqida gapira boshladi. Avvaliga biroz chaynaldi.

– Men bittasi bilan tanish edim... nafsilamrini aytganda, o'ynashim...

U bilan mushtlashgan odam – shu o'ynashining akasi. Raymon xotinni ta'minlab turganini aytdi. Men indamadim, lekin shosha-pisha mahallada o'zi haqda qanaqa g'iybatlar yurishini, ammo vijdoni toza ekanini, omborchi bo'lib ishlayotganini qo'shib qo'ydi.

– Xullas, – deb gapida davom qildi. – Meni chuv tushirayotganini sezib qoldim.

U o'ynashiga yashashga qancha kerak bo'lsa, shuncha ajratib turadi. Unga o'zi ijara topdi va ovqati uchun kuniga yigirma frank beradi.

– Ijara uchun uch yuz frank, ovqatga olti yuz, vaqti-vaqti bilan paypoq-maypog'iga ming frank. Yana bu xonimcha ishlamaydi. Lekin doim bergan puling yetmayapti, deb ishontirmoqchi bo'ladi. Men unga: «Yarim kunlik ishga kir. Meni mayda xarajatlardan qutqarasan, senga shu oyda kostyum olib berdim, kuniga yigirma frank ovqatga olasan, ijarangni to'layman, sen bo'lsa kuppa-kunduzi dugonalarining bilan qahva ichib o'tirasan. Tag'in ularni qand solingan qahva bilan siylaysan. Hammasi mening pulimdan. Senga yaxshilik qilyapman, sen menga nima qilyapsan?», deyman. Lekin u ishlamadi, puling yetmayapti, degan gapni topib olgan, oxirida meni chuv tushirayotganini sezib qoldim.

Raymon menga xotinning xaltachasidan lotoreya bileti topgani, xotindan so'rasa, qaysi pulga

olganini aytolmay qolganini gapirib berdi. Saldan keyin u xotinnikidan tilxat topib oldi, bilsa, baldog'i borligidan mutlaqo bexabar ekan.

– Shu yerda qanaqaligini bilib qoldim. Keyin u bilan orani ochiq qildim. Lekin oldin do'pposladim. O'zi haqida nima o'ylagan bo'lsam, hammasini betiga soldim. Sen, dedim, faqat duch kelgan bilan to'shakda ag'anashni bilasan. Tushunyapsizmi, janob Merso, betiga shunday dedim, seni baxtli qildim, dedim, senga hammaning havasi keladi, sen esa qadriga yetmayapsan. Hali pushaymon yeysan, lekin keyin o'rniga tushmaydi.

U xotinni ko'kartirib urdi. Shungacha uni urmagan ekan.

– Urrib turardim-u, lekin nomiga, yaxshi ko'rganimdan. U ham ko'zyosh qilardi, lekin men derazaning qopqasini yopib qo'yardim va shu bilan hammasi joy-joyiga tushib qolardi. A, bu gal ish jiddiyroq bo'ldi. Hali, sizga aytsam, hali uni keragicha o'qitib qo'yolmadim.

U xuddi shu yerda maslahatim zarurligini tushuntirdi. Keyin to'xtab qoldi va pilikni to'g'riladi, chunki chiroq tutayotgan edi. Men indamay o'tirdim. Salkam bir litr vino ichdim, boshim g'uvullab ketdi. Eshitib, Raymonning sigaretini chekyapman, o'zirniki tugab qoldi. Kunduzning so'nib borayotgan aks sadolarini olib, oxirgi tramvaylar o'tdi. Raymon gapini davom ettirdi. Hali bu ayoldan ko'ngli qolmagan, eng yomoni shu. Lekin albatta uni o'qitib qo'ydi. Avval u o'ynashini bironta mehmonxonaga olib borib, axloq politsiyasini chaqirmoqchi bo'ldi:



mayli, bir janjal chiqib, sariq chiptasini qo'liga tutqazishsin. Keyin do'stlaridan maslahat so'radi: bunaqa davralarda o'z odamlari bor. Lekin ular tuzukroq yo'l ko'rsatishmadi. Shundan keyin bunaqalar bilan do'st bo'lib yurishdan nima foyda, dedi Raymon. Ularga to'ppa-to'g'ri shunday deb aytdi, keyin ular xotinning yuziga tamg'a bos, deb taklif qilishdi. Lekin bu Raymonga kerak emas. U yana o'ylab ko'radi. Lekin oldin mendan u-bu narsani iltimos qilmoqchi. Yo'q, ungacha shunday savoli bor: men o'zi shu mashmasha haqida nima deb o'ylayman? Men, hech nimani o'ylayotganim yo'q, menga shunchaki qiziq, dedim. A, men qanday fikrdaman, xotin uni aldayaptimi? Ha, aldayotganga o'xshaydi. Men qanday fikrdaman, uni o'qitib qo'yish kerakmi? Men uning o'rnida bo'lsam, nima qilardim? Mening biron narsa deyishim qiyin. Lekin uni o'qitmoqchi bo'lsa – buni tushunaman. Keyin yana vino ichdim. Raymon sigaret chekdi va menga rejasini tushuntirib berdi. U xotinga xat yozadi, xatda uning tumshug'iga soladi va shu bilan birga tavbasiga tayantiradi. So'g'in, xotin kelgandan keyin, ikkalasi birga yotganda, ayni o'sha ish bo'lay deganda, betiga tupuradi va haydab yuboradi. Men unga qo'shildim – ha, shunaqa qilib, xotin chindan ham jazosini oladi. Lekin Raymon aytdiki, ochig'i, bunaqa xat yozish qo'lidan kelmaydi, shu uchun, mana o'ylabdi – xatni balki men yozib berarman. Men hech qanday javob bermadim, shunda, men qarshi bo'lmasam, hoziroq ishga kirishsak, deb taklif qildi. Men, qarshi emasman, dedim.

U bir stakan vino ichdi va o'rnidan turdi. Likopchalarni, to'nglab qolgan kolbasalarning qoldig'ini nari surdi. Hafsala bilan stol klyonkasini artdi. Tortmadan katak chiziqli qog'oz, qizil yog'och yozgich, binafsha siyoh to'ldirilgan chorburchak siyohdon oldi. Xotinning otini aytgan edi, uning mavr ekani bilinib qoldi. Men xat yozdim. To'g'ri kelgan gaplarni to'qidim-u, lekin Raymonni mamnun qilishga urindim – aslida, nega o'zi urinmasligim kerak? Keyin xatni ovoz chiqarib o'qib berdim. U tingladi, chekdi, bosh irg'ab o'tirdi, keyin yana bir marta o'qishimni iltimos qildi. Juda mamnun bo'ldi. Va menga:

– Ko'pni ko'rgan odam ekaningni bilardim-da, – dedi.

Uning senlashga o'tganini birdan payqamabman ham. «Mana, endi haqiqiy do'stimsan!», – dedi, bunga lol bo'lib qoldim. Yana bir marta shunday deb qaytardi va men ham: «Ha», dedim. Do'st bo'lsa, do'st-da, menga baribir, lekin uning shuni juda istayotgani ko'rinib turibdi. Keyin indamay o'tirdik, chekdik. Ko'cha jimib qoldi, faqat yakkash bir mashina g'ildiraklarining shuvillagani eshitildi. Men:

– Kech bo'lib qoldi, – dedim.

Raymon ham shu fikrda edi. U vaqt juda tez o'tadi – bir hisobda, shunaqasi ham to'g'ri, dedi. Mudrab ketayotgan edim, lekin sira o'rnimdan turolmasdim. Aft-basharamdan charchaganim bilinib turgan shekilli, Raymon, ko'ngilni cho'ktirmaslik kerak, dedi. Avvaliga tushunmadim. Shunda Raymon izoh berdi: onamni ko'mganimni eshitibdi, lekin iloj

qancha, oldinmi, keyinmi, hammamiz ham o'lamiz. Gapiga qo'shildim.

Keyin men turdim. Raymon qo'limni qattiq siqdi, haqiqiy erkaklar doim bir-birini tushunadi, dedi. Tashqari chiqib, eshikni yopdim, bir-ikki daqiqa qorong'i dolonchada to'xtadim. Qimirlamay turardim, lekin hech narsani eshitmadim, faqat qulog'im shang'illardi. Ha, Salamano cholning uyidan ko'ppaginging bo'g'iq angillashi chiqardi.

#### IV

Hafta davomida ko'p ish qildim. Bir marta Raymon keldi va o'sha xatni jo'natganini aytdi. Ikki marta Emmanyuel bilan kinoga bordim, u ko'pincha ekranda nima bo'layotganini tushunmaydi. Unga aytib turishim kerak. Kecha, shanba kuni, gaplashib olganimizday, Mari keldi. Qizil, oq chizikli juda chiroyli ko'ylak, charm shippak kiygan ekan va uni juda istadim. Durkun ko'kraklari ko'ylagidan turtib turar, quyoshda toblangan yuzi gulga o'xshar edi. Avtobusga chiqdik va Jazoirdan bir necha chaqirim naridagi kichkina qumloqqa bordik—qumloq qoyalar bilan panalangan, quruqlikdan esa qamish to'sib turardi. Soat to'rtida quyosh uncha qizdirmas, lekin suv iliq edi. Erinchoq nishab to'lqinlar osoyishta shipillab turardi.

Mari menga o'yin o'rgatdi: suzayotib, to'lqin yollaridagi ko'pikni og'zingga yig'asanda, chalqancha o'girilib, osmonga favvora qilib puflaysan. Havoga zarralar ipak hoshiyaday

yoyiladi va betingga yomg'ir bo'lib tushadi. Lekin tezda og'zim achchiq-sho'r suvdan kuyishib ketdi. Mari pinjimga suzib kirdi va qattiq quchoqlab oldi.

Labimga labini bosib, tili bilan aylantirib chiqdi. Og'zimning achishi to'xtadi va biz biroz to'liqinda chayqalib yotdik.

Keyin qumloqqa chiqib kiyinishga tushdik. Mari menga yonib qaradi. Uni quchoqladim. Shundan keyin boshqa gaplashmadik. Men uni bag'rimga oldim va avtobusga oshiqdik, to'g'ri uyga kelib, to'shakka otildik. Derazani ochiq qoldirdim. Yoz tuni quyoshda lovullagan badanlarimizni cho'miltirdi va bu juda qoyilmaqom edi.

Mari ertalab ham uyda qoldi va men, kel, birga nonushta qilaylik, dedim. Biron-bir yegulik olib kelishga chiqdim. Qaytib kelayotganimda Raymonning xonasidan ayol ovozi eshitildi. Sal o'tmay Salamano ham itiga javrab qo'ydi. Zinapoya yog'ochida poshna taqillab, tirmoqlar qitirladi va tanish ovoz eshitildi:

– Past! Ablah!

Ular ko'chaga chiqdi. Men Mariga cholni gapirib berdim va u rosa kuldi. U mening cholvorimni kiygan edi, pochalarini tugib olgan. Sal vaqtdan keyin u:

– Meni yaxshi ko'rasanmi? – deb so'radi.

Men, bular quruq gap, hech narsani anglatmaydi, lekin, to'g'risi, yaxshi ko'rmayman, dedim. U xomush bo'lib qoldi. Lekin nonushta tayyorlayotib, hech narsadan hech narsa yo'q, birdan kulgan edi, uni bag'rimga oldim. Xuddi shu vaqt Raymonning xonasida shovqin ko'tarildi.

Biz oldin ayolning qattiq chinqirig'ini, keyin Raymonning ovozini eshitdik:

– Sen meni aldading, a, aldading! Meni aldash qanaqaligini senga ko'rsatib qo'yaman!

Bo'g'iq musht tovushlari keldi va xotin shunday chinqirdiki, uydagilarning hammasi zinapoyaga chopib chiqdi. Mari ikkalamiz ham chiqdik. Xotin haliyam qichqirar, Raymon do'pposlashni to'xtatmas edi. Mari, qanday dahshat, dedi. Men indamadim. U, mirshabni chaqirib kelsang-chi, dedi, mirshablarni jinim suymaydi, dedim. Lekin mirshab paydo bo'ldi, uni ikkinchi qavatda turadigan vodoprovodchi ergashtirib keldi. Mirshab eshikni taqillatdi va ichkari o'sha zahoti tinchidi. U qattiqroq taqillatdi, xotin yig'lab berdi va Raymon eshikni ochdi. U soxta ishshayib turar, og'zida sigaret bor edi. Xotin eshikka otildi va mirshabga Raymonning urganini aytib, qichqirdi.

– Familiya? – deb so'radi mirshab.

Raymon javob qilmadi.

– Ol sigaretni og'zingdan, men bilan gaplashyapsan, – dedi mirshab.

Raymon chaynaldi, menga qaradi va sigaretini olmadi. Mirshab qulochkashladi-da, zalvorli shapaloqni tarsillatib uning yuziga yopishtirdi. Sigaret bir necha qadam nariga uchib ketdi. Raymonning yuzi bo'zardi, lekin birdan gapirmadi, sal vaqtdan keyin, mo'mingina qilib so'radi: sigaretni olsam maylimi. Mirshab ruxsat berdi va:

– Ikkinchi marta mirshablarga hazil qilish nimaligini bilasan, – deb qo'shib qo'ydi.

Shu vaqt davomida xotin yig'lar va:

– U meni do'pposladi. Hangi bu, – deb takrorlar edi.

Raymon:

– Janob mirshab, odamni hangi deb haqoratlashga qonun yo'l qo'yadimi? – dedi.

Lekin mirshab unga jag'ini yopishni buyurdi. Shunda Raymon xotinga o'girildi va:

– Shoshmay tur, qizaloq, yana qo'limga tusharsan, – dedi.

Mirshab unga jag'ini yopishni buyurdi, bo'пти, xotin ketaversin, u esa mirshabxonaga chaqirishguncha uyda o'tirib tursin. Va yana qo'shimcha qildi – Raymonga uyat emasmi, shuncha ichadiki, qalt-qalt titraydi. Shunda Raymon izoh berdi:

– Mast emasman, mirshab janoblari. Sizning oldingizda o'z-o'zidan qaltirab ketyapman.

U eshikni yopdi va hamma tarqaldi. Mari ikkalamiz yana nonushta tayyorlashga tushdik. Lekin uning ishtahasi o'lgan ekan, hammasini o'zim yedim. Bir soatdan keyin u ketdi, men esa yana ozgina uxlab oldim.

Soat uchlarda eshik taqilladi va Raymon kirdi. Men hali turmagan edim. U karavot chetiga ilindi. Indamay o'tiraverdi va men nima bo'lgan edi, so'radim. U aytib berdi. Hammasini o'ylaganiday qilibdi, lekin xotin unga shapaloq tortib yuboribdi. Keyin xotinni do'pposlabdi. Qolganini shusiz ham o'zim ko'rdim. Men, mana, xotinni o'qitib qo'yding, endi xursand bo'lsang arziydi, dedim. U ham

shu fikrda edi, mirshab xalal berganiga qaramay, xotinni o'xshatib kaltakladi, endi hech kim buni orqaga qaytarolmaydi. U yana, mirshablarni yaxshi o'rganganman, ular bilan qanday muomala qilishni bilaman, deb qo'shib qo'ydi. Keyin undan ham mirshabning tumshug'iga solishini, hoynahoy, kutgan bo'lishimni so'radi. Men hech narsani kutganim yo'q, dedim, umuman mirshabiyani jinim suymaydi. Raymonning ko'ngli joy bo'lgani ko'rinib turardi. Men bilan birga aylanib kelmaysizmi, deb so'radi. Men turdim, sochimni taradim. Shunda u meni guvohlikka o'tkazmoqchiligini aytdi. Menga bari bir, lekin nimani gapirishni bilmayman. Raymon tushuntirdi: shu ayolning uni aldaginini tasdiqlash kifoya ekan. Men guvohlikka o'tishga rozi bo'ldim.

Uydan chiqdik va Raymon bir qadahdan konyak ichishga chorladi, keyin bir qo'ldan bilyard o'ynagisi kelib qoldi va men ozgina boy berdim. Keyin u meni islovotxonaga taklif qildi, lekin men, yo'q, dedim, chunki bunaqa ishlarni yomon ko'raman. Shundan keyin oshiqmay uyga qaytdik. U tinmay o'ynashini o'qitib qo'yganidan ko'ngli joy bo'lganini gapirdi. U menga ancha yoqimtoylik qildi va men juda yaxshi ko'ngil yozdik, deb o'yladim.

Uzoqdan uyimiz eshigi oldida Salamano cholni ko'rdim, u nimadandir juda hayajonga tushgan edi. Oldiga borgandan keyin bilsak – yolg'iz o'zi, iti yo'q. Atrofga olazarak alanglaydi, qorong'i dolonga termiladi, turgan joyida aylanib, qanaqadir uzuq-yuluq g'o'ldirab, yana yelikkan, qip-qizil ko'zlari bilan ko'chani tintishga tushardi. Raymon nima

bo'ldi, deb so'radi, ammo chol birdan javob bermadi. U haliyam kalovlanib turardi va men uning tishlanib vaysaganini zo'rg'a tushundim:

– Past! Ablah!

Iti qaydaligini so'radim.

– Qochdi, – deb cho'rt kesdi chol va birdan gapi toshib ketdi:

– Uni yetaklab har kungiday maydonga bordim. Bozor bo'layotgan edi, tomoshagohlarning oldida tumonat. Men «Daydi qirol»ga qarashga to'xtadim. Keyin narigi yoqqa o'tmoqchi bo'ldim, birdan qarasam yo'q, qorasi o'chgan, yo'q... Asli ilgariyoq bo'yinbog'ning torrog'idan olish kerak edi. Lekin bu ablahning shunaqa qochib qolishini sira o'ylamabman.

Raymon unga taskin berishga urindi: kim biladi, balki adashib qolgandir, shoshmay turing, o'zi ham kelib qolar. U har xil misollar keltirdi: egasini yo'qotib, o'nlab chaqirim adashib qolgan, keyin yana uyini topib kelgan itlar istagancha chiqadi. Lekin cholning ko'ngli sira tinchimadi.

– Tushunsangiz-chi, o'ldirishadi uni. Bironta odam asrasa ham mayli edi. E, yo'q, bunaqa irganchiq kimga ham zaril, hamma jirkanadi undan. Allaqachon sallohlr ushlab olgan chiqar.

Shunda men Salamanoga sallohxonaga borishni maslahat berdim, mayli, jarima to'laydi – itni qaytarib berishadi. U, jarimasi kattami, deb so'radi. Men buni bilmadim. Shunda u tutaqib ketdi:

– Shu o'laksaga tag'in pul to'lash ham kerakmi! O'lsa o'lsin.



Va so'kinishga tushib ketdi. Raymon kulib, uyga ko'tarildi. Men ham izma-iz chiqdim. Dolonchada xayrlashdik. Bir daqiqalardan keyin qadam tovushini eshitdim, chol eshikni taqillatdi. Eshikni ochdim, u ostonada deysinib turib qoldi va:

– Kechirasiz... afv eting... – deb g'uldiradi.

Men ichkariga chorladim, lekin u kirmadi. Yerga boqdi, qasmoq boylagan qo'llari qaltiradi. Boshini ko'tarmay:

– Merso janoblari, ayting, mendan uni olib qo'yishadimi? Menga qaytarib berishadimi? Endi menga nima bo'ladi!

Men sallohxonada itlar, agar xo'jayini izlab borsa, olib ketishi uchun uch kun saqlanadi, keyin o'z bilganlaricha ish tutishadi, deb aytdim. U menga indamay, uzoq termildi. Keyin:

– Yaxshi yotib turing, – dedi.

Va uyiga kirib ketdi, men uning xonasida u yoq-bu yoqqa borib kelayotganini eshitib turdim. Keyin karavot g'ijirladi. Yupqa devor ortidan bir g'alati bo'g'iq tovush eshitildi, cholning yig'layotganini angladim. Lekin ertaga barvaqt turish kerak. Ishtaham yo'q edi va men ovqat yemay, uxlashga yotdim.

## V

Raymon mahkamaga sim qoqdi. Bir oshnasiga meni gapirib bergani, shu oshnasi meni shahar tashiga mehmonga chorlayotganini aytdi, o'sha yerda uning kichkina uyi, to'g'rirog'i, kulbasi bor

ekan. Men jon deb borardim, lekin yakshanbada birga bo'lishga bir qiz bilan va'dalashganman, dedim. Raymon shu zahoti, mayli, qizing ham yuraversin, dedi. Oshnasining xotini erkaklar davrasida bir o'zi bo'lmaganiga faqat quvonadi.

Men darrov dastakni qo'ymoqchi bo'ldim, boshliq bizni so'rab mahkamaga telefon qilishlarini yomon ko'radi. Lekin Raymon, yana bir daqiqa, dedi, taklifni u kechqurun aytishi ham mumkin edi, lekin u mendan yana u-bu narsani iltimos qilmoqchi ekan. Uni kun bo'yi bir nechta arab ta'qib qilib yuribdi, ular orasida sobiq o'ynashining akasi ham bor ekan.

– Agar kechqurun qaytib, uni uyimiz oldida ko'rsang, menga aytib qo'y.

Men, albatta, dedim.

Saldan keyin boshliq chaqirtirdi, ta'bim xira bo'ldi, hozir telefonda gap sotish o'rniga ko'proq ishlangiz bo'lardi, desa kerak deb o'yladim. Lekin, gap mutlaqo boshqa yoqda ekan. U menda bitta fikr bor edi, hali noaniqroq, dedi. Shu haqda mening fikrimni bilmoqchi ekan. U Parijda mahkamamiz bo'limini ochmoqchi bo'libdi: bevosita o'z joyida ish yuritadi, Parijdagi yirik firmalar bilan shartnomalar tuzadi – xo'sh, ana shu ishga men kirishsam qanday bo'ladi? Parijda yashashim va shu bilan birga ko'p joyni kezishim ham mumkin.

– Siz yoshsiz, menga ham shu ish sizga ma'qul tushadiganday tuyulyapti.

Men, mayli, mohiyatan olganda, menga baribir, dedim. Shunda u, sizga nahotki turmushni o'zgartirishning qizig'i bo'lmasa, dedi. Men,

turmushda hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi, hammasi doim birday, menga shu turishim ham yaxshi, dedim. Uning yuzi norozi tus oldi: doim boshqa gapni to'g'rilab turasiz, sizda shuhrattalablik yo'q, bu esa ish uchun yomon, dedi. Men yana ishingga qaytdim. Uni norozi qilganim o'zimga yoqmasdi, lekin nimaga endi hayotimni o'zgartirishim kerak? Bunday o'ylab ko'rilsa, nima, bebaxtmanmi? Talabalik paytimda bir talay shuhrattalab orzularim bor edi. Lekin o'qishni tashlashga to'g'ri kelganda, bunaqa orzular havoyi ekanini tezda tushunib oldim.

Kechqurun Mari keldi va turmush qurishimizni istarmiding, deb so'radi. Menga baribir, lekin agar u shuni xohlasa, turmush qursak ham bo'laveradi, dedim. Keyin uni sevish-sevmasligimni bilgisi keldi. Men, avval ham aytganimday, buning hech ahamiyati yo'q, lekin bor gap, seni yaxshi ko'rmayman, deb javob berdim.

– Unda nima qilasan menga uylanib? – deb so'radi u.

Men tushuntirdim; buning mutlaqo ahamiyati yo'q u shuni istayotgan bo'lsa, nimaga endi uylanmasligim kerak. Axir, uning o'zi shuni so'rayapti, men faqat rozi bo'lyapman. Shunda u nikoh – juda jiddiy narsa, dedi.

Men:

– Yo'q, – dedim.

Uning gapi og'zida qoldi va bir muddat indamay menga tikilib qoldi. Keyin yana gapirdi. Qiziq, uning o'rnida boshqa ayol, men bilan shunaqa munosabat

bilan bog'lanib qolib, menga shunday taklif qilsa, rozi bo'larmidim? Men:

– Albatta, – dedim.

Mari seni yaxshi ko'rish-ko'rmasligimni o'zim ham tushunmayman, dedi, ammo buni men qaydan bilay. U yana indamadi, keyin tutilinqiradi, men qanaqadir g'alatiman, – lekin u, albatta shunaqaligim uchun meni yaxshi ko'radi, ehtimol, vaqti kelib, ayni shunaqaligim uchun ham joniga tegib qolarman. Bunga qo'shadigan gapim yo'q edi va men hech narsa demadim; shunda u jilmayib, qo'lini qo'limdan o'tkazdi va menga turmushga chiqishini ma'lum qildi. Men qachon xohlasa, shunda, men qarshi emasman, dedim. Keyin unga boshliqning taklifini aytib berdim, Mari Parijni ko'rsa, rosa quvonishini aytdi. Men bir vaqtlar u yerda yashaganimni aytdim va Mari Parij qanaqa o'zi, deb so'radi.

– Kir joy. Hamma yoqda kaptar bilan is bosgan uylar. Odamlarining terisi oq, – dedim.

Keyin uydan chiqdik va keng ko'chalar bo'ylab shaharni butunicha kezib o'tdik. Juda ko'p chiroyli ayollarga duch keldik va men Maridan, bularni sezyapsanmi, deb so'radim. U, ha, seni yaxshi tushunaman, dedi. Ancha vaqtgacha boshqa gapirmadik. Lekin uning yonimda qolishini istadim va ikkovimiz birga Selestnikida ovqatlansak bo'ladi, dedim. Mari juda borgisi kelyapti-yu, lekin, bugun ishim bor, dedi. Mening uyimdan ancha uzoqda edik va men unga, ko'rishguncha, dedim. U menga tikildi:

– Nima ishim borligi nahotki seni qiziqtirmasa? – deb so'radi.

Ha, qiziq edi-yu, lekin so'rash birdaniga xayolimga kelmabdi, u ham shuni ta'na qilayotganga o'xshaydi. Xijolatga tushganim bilinib qoldi shekilli, u kulib yubordi va menga butun vujudi bilan intildi, lablarini tutdi.

Tushlikni Selestnikida qildim. Endi ovqatni boshlagan edim, to'satdan bir g'alatiroq xotin kirdi va oldingizda o'tirsam bo'ladimi, deb so'radi. Albatta, bo'ladi. U juda allatovur edi: kichkinagina, serg'ayrat, yuzlari olmachaday, ko'zlari yiltillaydi. U nimchasini yechib tashladi, o'tirdi-da, taomnomani jonsarak o'qishga tushdi. Selestni chaqirdi va shu zahoti talvasa bilan, lekin qat'iy ohangda ovqat buyurdi. Gazak olib kelishguncha xaltachasini ochdi, bir varaq qog'oz bilan qalam chiqardi-da, hammasini oldindan hisob-kitob qildi, karmonini oldi, qancha bo'lsa, shuncha sanab, choychaqa ham qo'shib, idish yoniga qo'yib qo'ydi. Shu payt unga gazak keltirishdi va u bir zumda paqqos tushirdi. Keyingi ovqatni olib kelishguncha u yana xaltachasini ochdi, haftalik radioeshittirishlar ro'yxati bosilgan jurnal va ko'k qalam chiqardi. Hafsala bilan haftalik eshittirishlarning qariyb hammasiga sidirg'asiga belgi qo'ya boshladi. Dastur qariyb o'n sahifani egallagan edi, bu unga butun tushlikka yetarli ish bo'ldi. Men ovqatlanib bo'ldim, u esa hali ham g'ayrat bilan belgi qo'yib yotgan edi. Keyin u turdi, xuddi qo'g'irchoqnikiga o'xshagan keskin harakatlar bilan nimchasini kiydi va tashqari chiqdi. Men ham chiqdim va boshqa ishim yo'q, ermakka orqasidan tushdim. U yo'lakning eng chetidan, sal ham

og'ishmay, hech qayoqqa qaramay o'qday to'g'ri, aql bovar qilmaydigan shiddat bilan yurib ketdi. Oxiri, uni ko'zdan yo'qotib qo'ydim va orqamga qaytdim. Juda g'alati ekanmi, deb o'yladim, lekin u tezda esimdan chiqib ketdi.

Eshigim oldida Salamano serrayib turgan ekan. Uni uyga ergashtirib kirdim, u iti topilmagani, sallohxonada ham yo'qligidan nolidi. U yerning xizmatchilari, balki moshin-poshin bosib ketgandir, deb aytibdilar. Salamano, buni politsiyadan aniqlash mumkinmi, deb so'rabdi. Unga, bunaqa hodisalar son-mingta, hech kim hisobga olib yurmaydi, deb javob beribdilar. Men, boshqa it asrasangiz bo'lardi, dedim, lekin chol o'z itiga ko'nikib qolganini aytdi, u haq edi.

Men karavotda oyog'imni yechmay o'tirdim, Salamano esa menga ro'para, stol yonida edi. Qo'llarini tizzasiga qo'ygan. Eski movut shlyapasini yechmadi. U burda-surda gaplarni lanj chaynar, sarg'aygan mo'ylovlari titrar edi. U sal-pal jonimga tekkan edi, lekin, baribir, boshqa qiladigan ishim yo'q, uyqum ham kelmayotgan edi. Boshqa gapiradigan narsa ham qolmadi va men choldan yana itini so'radim. Chol xotini o'lgandan keyin shu itni asraganini aytdi. Kech uylandi. Yoshligida aktyor bo'lishni orzu qilardi va polkda askarlarning havaskor to'garagida o'ynardi. Lekin hamma orzulari temiryol xizmatiga o'tish bilan poyoniga yetdi va u afsus qilmaydi, chunki hozir ozgina nafaqa to'lashadi. Xotini bilan baxtli bo'lmadi, lekin unga juda o'rganib qolgan edi. Xotini o'lgandan keyin,

yolg'izlik qiynab qo'ydi. Shunda ustaxonadagi bir oshnasidan kuchuk so'rab oldi. Kuchuk juda kichkina ekan, so'rg'ich bilan ovqatlantirishga to'g'ri keldi. Lekin itning umri odamnikidan qisqaroq va ikkalasi birga qaridi.

– Juda badfe'l edi, – dedi Salamano. – Ko'p kelishmay turardik. Lekin, bari bir, yaxshi it edi.

Men, ha, zotdor it edi, dedim, bu gapimdan chol ancha taltaydi.

– Siz uni kasalga chalinishidan oldin bilmaysiz-da, – deb qo'shib qo'ydi u. – Juni shunday yaxshi ediki, silab to'ymasdim.

It dardga chalingandan keyin Salamano unga har kuni ertalab, kechqurun malham surib qo'yardi. Lekin, aslida, it kasal emas, shunchaki qarigan edi, qarilikka esa davo yo'q.

Men shu asnoda esnadim va chol, borishim kerak, dedi. Mayli, hali o'tirsangiz bo'lardi, dedim, iti kulfatga uchragani yomon bo'ldi-da. Chol minnatdorchilik bildirdi. Uning itini onam juda yaxshi ko'rishini ko'rganini aytdi. «Sho'rlik volidangiz», dedi. Keyin irod qildi: onam o'lib, boshimga og'ir baxtsizlik tushdi, men hech narsa demadim. Keyin qattiq xijolatga tushganday gapirdi: onamni g'aribxonaga topshirganim uchun mahalladagilar meni ayblashar ekan, lekin uning o'zi meni yaxshi biladi va onamni yaxshi ko'rganimga shubha qilmaydi. Men o'zim ham shu gap nimaga kerakligini bilmay, meni ayblashlarini birinchi eshitishim, dedim, onamni g'aribxonaga joylashtirish tabiiy, chunki unga qaraydigan hamshira yollashga pulim yetmas edi.

– Va keyin, – deb qo‘shib qo‘ydim, – men bilan gaplashadigan gapi ham yo‘q, bir o‘zi juda zerikib qolgan edi.

– Shunday, – gapimni ma‘qulladi Salamano, – g‘aribxonada, hech bo‘lmasa, do‘st orttirish mumkin.

Keyin xayrlashishga chog‘landi. Uxlash kerak. Hayoti o‘zgardi, bundan so‘ng qanday kun kechirishini o‘zi ham bilmaydi. Shuncha yil bilganimdan beri, u birinchi marta menga tortinibgina qo‘l uzatdi va men uning qo‘li naqadar g‘adir-budur ekanini sezdim. Ketayotib u ma‘yus jilmaydi va:

– Kechasi itlar hurmasa ham mayli edi. Xuddi itim kelib hurayotganday tuyulaveradi, – dedi.

## VI

Yakshanba kuni zo‘rg‘a turdim. Mari meni chaqirib, siltab uyg‘otdi. Nonushta qilib o‘tirmadik, chunki ertaroq borib, cho‘milib olmoqchi edik. Kuragimning tagi sanchib, boshim salgina og‘riyotgan edi. Sigaret taxir tuyuldi. Mari kuldi va yuzing u dunyoga borayotgan odamnikiga o‘xshaydi, dedi. U oq chit ko‘ylak kiygan, sochlarini yozib yuborgan edi. Men unga, juda ochilib ketibsan, dedim, u rohatlanib kuldi.

Chiqayotib, Raymonning eshigini taqillatdik. U hozir chiqaman, deb qichqirdi. Yaxshi uxlamaganim, uyda pardalarni ochib qo‘ymaganimiz uchun, o‘tkir quyosh nuri yuzimga xuddi shapaloqday urilib, esankiratib qo‘ydi. Mari shodon kulimsirab, qanday



yaxshi kun, deb takrorlardi. Sal o'zimga keldim va birdan qornim ochligini angladim. Mariga aytgan edim, u menga klyonka xaltachasini ko'rsatdi – xaltachada faqat cho'milish kiyimimiz bilan sochiq boredi, xolos. Faqat bitta chora – kutish qoldi, nihoyat Raymonning eshikni qulflayotganini eshitdik. U ko'k shim, yengi kalta oq ko'ylakda chiqib keldi. Somon kanotye-shlyapa kiyib olgan ekan, Mari hatto kulib yubordi; qalin qora jun bosgan qo'li tirsakkacha oppoq edi. Sal jirkandim. Raymon hushtak chalar, ko'rinishidan juda mamnun edi.

– Salom, otaxon! – dedi.

Mariga «mademuazel», dedi.

Kecha ikkalamiz mirshabxonaga bordik va men haligi xotinning Raymonni «aldagani» haqida guvohlikka o'tdim. Unga ogohlantirish berib, qo'yib yuborishdi. Mening gapimni esa hech kim tekshirib o'tirmadi. Hozir, ko'chaga chiqayotib, Raymon bilan yana shu haqda gaplashdik, keyin avtobusda ketishga qaror qildik. Qumloq uncha uzoq emas, lekin avtobusda tezroq boramiz. Raymon ertaroq yetsak, oshnasi xursand bo'lishini aytdi. Endi bekatga yurmoqchi edik, Raymon birdan menga ko'chaning u tomoniga qara, deb ishora qildi. U yoqda bir nechta arab tamaki do'koni peshtaxtasiga suyanib turishgan edi. Ular bizga indamay, lekin shunaqa loqayd qarashdiki, go'yo biz odam emas, tosh yo qurib qolgan daraxtmiz. Raymon menga, chapdan ikkinchisi xuddi o'shaning o'zi, dedi va yuzi tashvishli tus oldi. Ha, mayli, endi o'tib ketgan ish, deb qo'shib qo'ydi. Mari tushunmay, nimani

gaplashyapsiz, deb so'radi. Men, manavi arablarning Raymondan qasdi bor, dedim. U, shunday bo'lsa, tezroq bu yerdan ketaylik, dedi. Raymon ko'kragini mag'rur kerdi, lekin shu zahoti kulib yubordi va rostdan ham, shoshilishimiz kerak, dedi.

Biz bekatga qarab yurdik – yaqin edi, Raymon aytib qo'ydi – arablar izimizga tushibdi. Men orqaga qaradim. Ular hatto qimirlab ham qo'yishmadi, boyagiday loqaydlik bilan hozirgina biz turgan joyga befarq qarab turardilar. Avtobusga o'tirdik. Raymonning ko'ngli tinchidi shekilli va Marini tinmay hazilga ila boshladi. Mari unga yoqqanini angladim, lekin Mari uning hazillariga qariyb javob qilmadi. Faqat har zamon unga qarab, kulib qo'yardi.

Shahardan chiqdik. Qumloq avtobus bekatiga juda yaqin edi. Faqat baland qirg'oqdagi ochiq, tep-tekis joydan o'tilsa, nariyog'idagi qiyalik to'g'ri qumloqqa olib tushardi. Oyoq ostida sarg'ish toshlar sochilib yotar va allaqachon niliy rangga to'yingan asfodel gullar osmon tagida o'tkir tovlanar edi. Marining vaqti choq – klyonka sumkasini o'ynatib, asfodellarni urib, bargini tushiradi. Oq, zangori devorlar bilan o'ralgan bog'hovlilar oralab yurdik, ba'zi uylar yulg'unga o'ralib olib, ko'zga tashlanmas, ba'zilari esa toshlar orasida yap-yalang'och tuyulardi. Hali qiyalik oxiriga yetmayoq, yastanib yotgan dengizni ko'rdik. Nariroqdagi mudroq burun tiniq suvni yorib turardi. Ochiq havoda motorning zaif gupillashi eshitildi. Olis-olisda kichkina baliqchi kemasi ko'rindi, tovlanayotgan dengizda uning suzayotgani bilinmasdi. Mari toshlar orasidan bir

nechta gulsafsar topib oldi. Qiyalikdan unda-bunda cho'miluvchilar borligi ko'rindi.

Raymonning oshnasi qumloqning eng chekkasidagi yog'och uychada turar ekan. Uycha qoyaga tirangan, oldini qoziqoyoqlar tutib turar, atrofida suv sharillar edi. Raymon bizni tanishtirdi. Uning oti Mason ekan. O'zi daroz, yelkador, to'la, xotini esa kichkina, dumaloqqina, talaffuziga qaraganda, parijlik. Mason, o'z uyingizdagiday bahuzur o'tiravering, hozir sizni qovurma baliq bilan mehmon qilaman, dedi. Men, uyingiz chiroyli ekan, dedim. U shanba, yakshanba kunlari, butun ta'til oyini shu yerda o'tkazishini aytdi.

– Xotinim bilan albatta, – deb qo'shib qo'ydi.

Uning xotini bilan Mari bir narsa haqida gapirib, kulib yuborishdi. Men nazarimda birinchi marta jiddiy o'ylab qoldim: chindan ham uylanish kerakka o'xshaydi.

Mason cho'milmoqchi bo'ldi, lekin uning xotini bilan Raymonning borgisi kelmadi. Uchovimiz ketdik va Mari shu zahoti suvga otildi. Mason ikkovimiz qum ustida biroz o'tirdik. U salmoq bilan, oshiqmay gapirar va har jumladan keyin, qo'shadigan gapi bo'lmasa ham, «bundan tashqari» deb qo'yadigan odati bor ekan. Mari haqida:

– Juda suluv, bundan tashqari – yoqimtoy, – dedi.

Keyin uning yoqimsiz qo'shimchalariga e'tibor qilmay qo'ydim, huzur qilib cho'zildim – oftobda isinib yotish rohat edi. Oyog'im tagidagi qum qizib ketdi. Suvga tushgim kelayotgan bo'lsa-da, turmay yotaverdim va oxiri Masonga:

– Ketdikmi? – dedim.

Va suvga otildim. U ehtiyot bilan suvga kirdi; faqat oyogʻi yerga tegmay qolgandan keyingina suza boshladi. Brass usulida, juda yomon suzar ekan, uni ortda qoldirib, Mariga yetishga oshiqdim. Suv sovuq, lekin suzish maza edi.

Mari ikkovimiz uzoqqa ketdik, birga, hamohang, shundayin ikkalamizga ham yoqayotganini his qilib suzish juda huzurbaxsh edi.

Olisroqqacha suzib borib, chalqancha yotdik, osmonga qaradim, labimdagi, yuzimdagi shoʻr tomchilar quyoshda darrov quridi. Masonning suvdan chiqib, qumloqqa choʻzilgani koʻrindi. Uzoqdan u juda bahaybat koʻrindi. Marining ikkovlashib suzgisi keldi. Uning orqasiga oʻtib, belidan quchoqladim va u qoʻllariga tayanib suza boshladi, men esa oyoq chayqab madad berib turdim. Ertalabki sukunatda suv vazmin shaloplardi. Keyin men charchadim va Marini qoʻyib, qoʻllarimni bir tekis siltab, chuqur-chuqur nafas olgancha qirgʻoqqa qarab suzdim. Suvdan chiqdim, Masonning yoniga, qornimni yerga berib yotdim, va yuzimni qumga qoʻydim. Yaxshi, dedim unga, u ham gapimga qoʻshildi. Saldan keyin Mari ham qaytdi. Men oʻgirilib, uning suvdan chiqishiga qaradim. U shoʻr suvdan xuddi loklanganday tovlanib koʻrindi, sochlarini orqaga tashlagan edi. Mari qavatimga yotdi, uning qaynoq badani va oftob qaynogʻidan meni mudroq bosdi.

Mari kiftimga turtdi-da, Mason ketdi, ovqat vaqti ham boʻldi, dedi. Shu zahoti oʻrnimdan

turdim, chunki qornim ochgan edi, ammo Mari uni ertalabdan beri biron marta ham o'pmaganimni aytib qoldi. Rostdan, bir marta ham o'pmabman, lekin juda o'pgim kelayotgan edi.

– Yur, bittadan sho'ng'ib olamiz, – dedi Mari.

Yugurib suvga tushdik, qirg'oqbo'yi to'lqinlarda chayqalib yotdik. Ozroq suzdik va Mari menga tarmashdi. Oyog'i bilan oyog'imni chirmab oldi va men uni istab qoldim.

Uychaga qaytayotganimizda Mason bo'sag'adan turib bizni chaqirayotgan edi. Qornim juda ochligini aytgan edim, u shu zahoti xotiniga irod qildi: men unga yoqib qolibman. Non juda mazali ekan, o'zimga qo'yilgan baliqni bir zumda paqqos tushirdim. Keyingisi go'sht bilan kartoshka qovurma edi. Ovqatni indamay yedik. Mason sharobdan ho'plab, menga ham tinmay quyib turdi. Qahva kelguncha, boshim og'irlashib, ustma-ust sigaret chekishga tushdim. Mason, Raymon uchovimiz avgustda shu yerda halfana yashashga kelishdik. Birdan Mari:

– Soat nechaligini bilasizlarmi? Endi o'n bir yarim, – dedi.

Hammamiz ajablandik, lekin Mason – ertaroq ovqatlangan bo'lsak nima qipti, hech yomon joyi yo'q – qachon qorin ochsa, o'shanda ovqatlanaverish kerak, dedi. Negaligini bilmadim, Mari bu gapga rosa kuldi. Sal ko'proq ichdim shekilli. Mason, ikkovimiz qumloqda aylanib kelmaymizmi, deb so'radi.

– Xotinim doim ovqatdan keyin dam oladi. Men esa yoqtirmayman. Menga sayr qilish kerak. Doim

unga: sayr qilish sog'liqqa foydali, deyman. E, oxiri qo'l siltadim, bilganini qilmaydimi.

Mari, men ham qolaman, Mason xonimga idish yuvishga qarashay, dedi. Parijlik kichkina ayol esa, bu uchun erkaklarni haydash kerak, dedi. Va uch erkak tashqariga chiqdik.

Quyosh nurlari qumloqqa tippa-tik tushayotgan va dengiz ham nurlar ostida chidab bo'lmaydigan darajada yaltirar edi. Qumloqda jon asari yo'q. Baland qirg'oq labiga qapishgan uychalardan idish-oyoqning jaranglashi, pichoq va sanchqilarning taqillashi eshitilardi. Oyoq tagidagi qizigan toshlardan shunaqa harorat kelardiki, odamning dami qaytib ketardi. Mason bilan Raymon ish haqida, men bilmaydigan odamlar to'g'risida gaplashishdi. Men ularning bir-birlarini avvaldan bilishini va hatto bir vaqtlar bitta uyda turishganini angladim. Shunday suv bo'yidan, qumloqning labidan yurdik. To'lqinlardan dadilroqlari shaloplab chiqib, parusin boshmoqlarimizni ho'llab ketardi. Hech narsani o'ylamay, oftob yalang boshimni kuydiraverganidan mudrab borayotgan edim.

Raymon birdan Masonga allanima dedi, nimaligini eshitmadim. Lekin shu daqiqada uzoqda, qumloqning eng chekkasida ikkita ko'k kiygan arabni ko'rdim. Ular bizga qarab kelayotgan edi. Men Raymonga o'girildim va Raymon:

– Xuddi o'sha, – dedi.

Biz to'xtamay boraverdik. Mason, bu yoqqa kelishni qaydan bilishdi, deb so'radi. Men, hoynahoy, avtobusga cho'milish xaltasi bilan chiqqanimizni ko'rishgandir, deb o'yladim; lekin indamadim.

Arablar shoshilmay tobora yaqin kelaverishdi. Biz yurishimizni sekinlatmadik, lekin Raymon:

– Agar janjal chiqsa, Mason, ikkinchisi senga, menga tegishli nusxani o'zimga qo'yib beravering. Agar uchinchisi kelib qolsa, Merso, sen qaraysan, – dedi.

– Mayli, – dedim.

Mason qo'lini cho'ntagiga tiqdi. Qizib yotgan qum endi menga qip-qizil ko'rindi. Bir maromda, shoshilmay arablarga qarshi boraverdik. Masofa qisqardi. Oramizda bor-yo'g'i bir necha odim qolganda, arablar to'xtadi. Mason ikkovimiz ham sekinladik. Raymon to'g'ri raqibiga yurdi. Uning arabga nima deganini eshitmadim, ammo unisi xuddi hammaga otilmoqchiday oldinga egildi. Raymon shunda unga bir musht tushirdi va shu zahoti Masonni chaqirdi. Mason ikkinchi arabga yaqinlashdi va bor kuchi bilan uni ikki marta urdi. Arab yuztuban suvga yiqildi va bir necha daqiqa shunday yotib qoldi, boshining atrofida suv bilqillab turdi. Bu paytda Raymon raqibini yana urdi va yuzini qonga beladi. Menga qarab:

– Hozir bunga rasm solaman! – dedi.

Men qichqirib yubordim.

– Ehtiyot bo'! Pichoq!

Lekin arab pichoqni siltab, uning tirsagidan yuqorirog'ini, lablarini tilib yubordi.

Mason oldinga sakradi. Lekin ikkinchi arab ham qo'zg'aldi, pichoq tutgan sherigining orqasida turib oldi. Biz qimirlashga ham jur'at qilolmadik. Ular pichoqni o'qtalganicha, bizdan ko'z uzmay, sekin-

sekin orqaga chekindilar. Uzoqlashib olgach, burilib, qochishdi, biz esa xuddi yerga yopishib qolganday, oftob tagida qotib turaverdik. Raymon qo'lining tilimlangan joyini siqimladi, jarohatdan tizillab qon oqayotgan edi.

Mason shu yaqin-o'rtada hakim borligini esladi. Yakshanba kunlari hamisha dala hovliga kelar edi. Raymon shu zahoti unga uchrashmoqchi bo'ldi. Lekin sal gapirishi bilan tilingan lablaridan qon pufak-pufak bo'lib chiqardi. Uning qo'ltig'idan tutib, tezroq Masonning uyiga yetkazishga oshiqdik.

Bu yerda Raymon, hech qanaqa jarohat emas, shunchaki shilingan, dedi, hakimga o'zi ham boraverishini aytib, xo'rozlik qildi. Mason ikkovi chiqib ketishdi, men esa ayollarga nima bo'lganini tushuntirib berdim. Mason xonim yig'ladi, Mari bo'zday oqarib ketdi. Oxirida ular bilan gaplashish ba'dimga urdi. Gapni bas qilib, dengizga termilgancha chekishga tushdim.

Bir yarimlarda Mason bilan Raymon qaytishdi. Raymonning qo'li boylangan, labiga malham yopishtirilgan edi. Hakim, arzimagan narsa, dedi, ammo Raymonning qovog'idan qor yog'ilardi. Mason uni kuldirishga urindi. Lekin u miq etmadi. Keyin u, yana qumloqqa boraman, dedi, men qayoqqa, dedim. U, shunchaki havo olishga, dedi. Mason ikkovimiz, biz ham boramiz, dedik. U esa birdan tutaqdi va bizni so'kib berdi. Mason, bunga gap qaytarish kerak emas, dedi. Men baribir Raymonning izidan chiqdim.

Qumloqda ancha yurdik. Quyosh ayamay kuydirardi. Qumda, suvda o'tkir-o'tkir parchalarga



bo'laklanar edi. Raymon o'zining qayoqqa borayotganini biladi, deb o'ylagan edim, ammo yanglishganga o'xshayman. Qumloqning eng chekkasiga borganimizda, chashmaga duch keldik, katta qoyaning tagidan chiqib, qumda sizilib, dengizga oqayotgan edi. Shu yerda haligi ikki arabni uchratdik. Ular yag'iri chiqqan ko'k kiyimda, yastanib yotishgan ekan. Sirtidan ular tinch, hatto mo'min-qobil ko'rinar edilar. Bizni ko'rib ham o'zlarini juda osoyishta tutishdi, Raymonga pichoq urgani ham unga indamay qarab turaverdi. Ikkinchisi esa qamish nayini chalib, bizga ko'z tagidan qarab qo'yar va yana-yana o'sha uch pardali kuyni takrorlardi.

Faqat quyosh va sokinlik, jilg'a shivirlaydi, qamish nay esa yakka-yu yagona ohangni qaytaradi. Keyin Raymon to'pponchani olish uchun qo'lini cho'ntagiga tiqdi, lekin raqibi qilt etmadi, ikkalasi bir-biriga tikilib turaverdi. Men nay chalib yotganning oyog'idagi katta barmog'i boshqa barmoqlaridan orasi ochiqroq joylashganini payqadim. Lekin shu payti hali ham raqibidan ko'z uzmayotgan Raymon mendan so'rab qoldi:

– Gumdon qilsammi?

O'ylanib qoldim – «yo'q» desam, battar tutaqib, otib tashlashi hech gap emas. Boshqa gap topolmay:

– Hali bir og'iz ham gapirgani yo'q, – dedim, – hech narsadan hech narsa, otib tashlash to'ng'izlik bo'ladi.

Yana shu sukut, jaziramada qotib turibmiz, chashmaning shildirashi, nay nolasini tinglayapmiz.

– Unda yaxshilab so‘kaman, javob qaytargani zahoti – tinchitaman.

– Unda boshqa gap, – deb javob beryapman.  
– Agar shunda ham pichog‘ini chiqarmasa – otish yaxshi emas.

Raymon sal-saldan ko‘tarildi. Narigi arab esa tinmay nay puflardi, ikkovi ham Raymonning har bir harakatini kuzatib turar edi.

– Gap bunday, – dedim. – Birga bir chiqamiz, de, to‘pponchani menga ber. Agar unisi qo‘shilsa yo pichoq chiqarsa, o‘zim otaman.

Raymon to‘pponchani menga berdi, metall quyoshda yaltillab ketdi. Lekin ilgarigiday qilt etmay turaverdik, go‘yo atrof-javonib qotib qolgan, bizni ham qotirib qo‘yganday. Biz – arablarga, arablar bizga tikilgan, dengiz, quyosh, qum, bazo‘r eshitilayotgan nay bilan chashma tosh qotgan.

Shunda men otib tashlasa ham, aksincha, otmasa ham bo‘laveradi, nima farqi bor, deb o‘yladim. Lekin birdan arablar tislani, qoya orqasiga o‘tib oldilar. Raymon ikkovimiz orqaga qaytdik. U sal yengil tortganga o‘xshadi va avtobusga chiqib, uyga jo‘nasak ham bo‘lar, dedi.

Men uni Masonning kulbasigacha kuzatib qo‘ydim va u zinapoyadan ko‘tarila boshladi, men pastda to‘xtab qoldim: yigirmatacha pillapoyadan chiqib, yana ayollar bilan gaplashishga chog‘im yetmadi. Lekin quyosh ham ayamay qovurar, osmondan ko‘zni qamashtirib nur quyilar, uning tagida turaverishga ham chidam yo‘q edi. Shu yerda turishning ham, yurishning ham farqi yo‘q, oxir-

oqibat bir xil edi. Bir daqiqa shunday turdim, keyin o'girilib qumloqqa yo'l oldim.

Qirmizi qum boyagiday ko'zni qamashtirayotgan edi. Dengiz og'ir hansirab, qum ustiga mayda to'lqinlarni itqitib tashlardi. Sekingina qoyalarga qarab yurdim va boshim quyoshdan shishib borayotganini his qildim. Harorat bosib tushayotgan, yo'limda devorday tiklanib, qaynoq nafasni yuzimga ufurayotgan edi. Quyoshni, meni chulg'ab olib, yiqitguday bo'layotgan loyqa mastlikni yengishga urinib, tishimni tishimga qayta-qayta bosdim, cho'ntakka tiqilgan qo'llarimni mahkam siqimladim. Har bir qum zarrasi, quyoshda oqargan chig'anoq, shisha parchalari menga hovuch-hovuch nur otardi va men yana tishimni tishimga bosardim. Shu ko'yi uzoq yurdim.

Olisdagi qoyaning qoramtir gavdasi qamashtirayotgan nur va uchayotgan dengiz ko'piklari og'ushida tovlanib ko'rindi. Shu qoyaning orqasida chashma borligini esladim. Yana shu chashma shivirini eshitishni, quyoshdan bekinishni, ayollarning ko'z yoshlarini ko'rmay, nihoyat soyada va sokinlikda hordiq olishni istab qoldim. Lekin yaqin borib, ko'rsam – haligi arab, Raymonning raqibi qaytib kelgan ekan.

U yolg'iz edi. Qo'llarini boshining tagiga qo'yib yotibdi, yuzi soyada, butun gavdasi oftobda yastangan edi. Qaynoq nurlarda ko'k kiyimidan hovur ko'tarilardi. Men bir oz hayron turib qoldim. G'alva tamom bo'ldi, deb hisoblab, bu yoqqa kelayotganimni mutlaqo unutib yuborgan edim.

Arab meni ko'rgandan keyin, o'rnidan turdi va qo'lini cho'ntagiga soldi. Turgan gap, kamzulim cho'ntagidagi Raymonning to'pponchasini paypasladim, lekin qo'limni cho'ntakdan olmadim. Undan ancha uzoqda, o'n qadamlar berida edim. Goho yarim yumuq qovoqlarim orasidan uning qarab qo'yganini sezardim. Lekin jazirama hovurda uning kelbati erib ketayotgan edi. To'lqinlar yanada siyrakroq, tushdagiga qaraganda erinchoqroq shovullardi. O'sha quyosh, o'sha yaltillagan, ko'zni qamashtirayotgan qum va bularning sira poyoni yo'qday tuyulardi. Mana, ikki soat bo'ldi, kun qotib qolgan, erigan metallardan iborat ummonga langar tashlagan ko'yi, joyidan qo'zg'almaydi. Ufqda kema suzayotgan edi, men ko'z qirimda qoramtir nuqtani zo'rg'a ilg'adim, chunki ko'z uzmay arabga tikilayotgan edim.

O'yladim: hozir orqaga burilib, jo'nab qolish kerak – shu bilan hammasiga barham beriladi. Lekin butun qovrilayotgan qirg'oq meni oldinga itarayotganday edi. Bari bir, hali ungacha uzoq edi. Balki yuziga soya tushib turgani uchundir, u kulayotganga o'xshab ketdi. Men sekinladim. Quyosh yuzimni kuydirardi, qoshimga tomchi-tomchi ter oqib tushardi. Quyosh onamni ko'mgan kundagiday kuydirar, o'sha kungiday peshonamda azobli og'riq qo'zg'alib, chakkam lo'qillardi. Boshqa bardosh qilolmadim va oldinga yurdim. Men bilardim: bu ahmoqlik, bir qadam oldinga yurganim bilan quyoshdan qutulolmayman. Va, baribir, shuni qildim – yakkash-yagona odim bosdim. Shunda

arab, joyidan turmay, pichog'ini chiqardi-da, quyoshga tutdi. Quyosh po'latning yuzida o'tkir nurni chaqmoqladi, xuddi uzun, chaqnoq tig' naq peshonamga sanchilganday bo'ldi. Xuddi shu daqiqada qoshimda yig'ilib qolgan ter tomchilari qovog'imga oqib, ko'z oldimni ho'l choyshab qoplab oldi. Sho'r-nomakob ko'z yoshlar pardasi ortida hech narsaning farqiga bormay qoldim. Hech narsani sezmasdim, faqat quyosh peshonamga childirmaday urilar va po'lat tig'idan chiqqan olovli shamshir ko'z oldimda silkinib turardi. Jazillagan tig' mijjalarimni yorib o'tib, azoblangan, kuyib borayotgan ko'zlarimga sanchilar edi. Dengiz og'ir, qaynoq nafas ufurdi. Shunda hamma yoq tebranib ketdi. Menga osmon to'lasicha yorilib, olov yomg'ir quyilib tushganday tuyuldi. Hamma yog'im taranglashdi, barmoqlarim to'pponchani qattiq siqimladi. Dastakning bo'rtiqlari silliqlangan, tekis edi va shunda tepki juda yengil qo'zg'aldi – quruq, lekin quloqni batang qilguday gumburlab ketdi – hammasi boshlandi. Men o'zimdan ter tomchilari va quyoshni qoqib tushirdim. Bundan sal oldin shunday yaxshi turgan kunning muvozanatini, qumloq qirg'oqning g'ayrioddiy sokinligini buzib yuborganimni angladim. O'shanda yastanib yotgan gavdaga qarata yana to'rt marta o'q uzdim, o'qlar unga iz qoldirmay kirib ketdi. Va bu to'rtta keskin zarb shunday tovush berdiki, men misoli falokat eshigini qoqib turgandek bo'lib qoldim.

## II BOB

### I

Hibsga tushishimdan keyinoq meni bir necha marta so'roq qildilar. Lekin so'roqlar ko'p cho'zilmadi. Shunchaki – kimligimni aniqlashdi. Birinchi so'roqda mening ishim bilan, nazarimda, mirshabxonadagilardan birontasi hatto qiziqmaganday edi. Lekin hafta o'tgach, adliya tergovchisi menga qiziqsinib tikildi. Ammo boshlashda u faqat ismim, turar joyim, kasbim, qachon va qayerda tug'ilganimni so'radi, xolos. Keyin u mening advokat yollaganim yo yo'qligimni bilmoqchi bo'ldi. Men, yo'q, shuncha zarilmi, dedim.

– Bu nima deganingiz? – deb hayron bo'ldi u.

Meningcha, ishim juda oddiy, dedim.

U jilmaydi va:

– Shunaqa deb hisoblasa ham bo'ladi, – dedi. – Lekin qonun bor. Agar siz o'zingizga oqlovchi tanlab olmasangiz, unda o'zimiz birontani tayinlashimizga to'g'ri keladi.

Juda o'ng'ay ekan – hamma mayda-chuydaga adliyaning o'zi g'amxo'rlik qiladi, deb o'yladim. Tergovchiga ham shuni aytdim. U gapimni

ma'qulladi, keyin qonunlar chuqur o'ylab tuzilgan, deb qo'shib qo'ydi.

Avvaliga unga uncha jiddiy e'tibor qilmadim. U meni derazalariga parda tortilgan kabinetida kutardi, stol ustida yonayotgan bitta-yu bitta chiroq faqat men o'tirgan kursini yoritar, tergovchining o'zi doim qorong'ida turar edi. Kitoblardan bunaqa usullarni allaqachonlar o'qiganman va hammasi ermak bo'lib tuyulgan edi. Lekin gaplashganimizdan keyin unga jiddiyroq qaradim – daroz, yuz bichimi nozik; chuqur-chuqur ko'zlari moviy, mo'yloviga oq oralagan, uzun, yolg'a o'xshagan sochi qariyb oppoq odam ekan. U menga juda aqlli, og'zi asabdan qanaqadir g'alati uchib tursa ham, umuman yoqimli odamday tuyuldi. Chiqib ketayotib, sal bo'lmasa, unga qo'l uzatay dedim, lekin odam o'ldirganimni o'z vaqtida eslab qoldim.

Keyingi kuni qamoqqa, men yotgan bo'lmaga advokat kirdi. U kichkina, baqaloq, hali yosh, sochlari hafsala bilan silliqlangan odam edi. Issiqqa qaramay (men kamzulsiz o'tirgan edim), u qora kostyum kiygan, kraxmal yoqa va keng-keng oq-qora yo'l-yo'l juda allambalo galstuk taqib olgan edi. U portfelini karavotimga o'rnatdi, o'zini tanishtirdi va ishimni diqqat bilan o'rganganini ma'lum qildi. Masala ancha nozik, lekin u, agar unga to'la ishonsam, yutib chiqishimizga shubha qilmas ekan. Men unga rahmat aytdim va u:

– To'g'ri ishning mohiyatiga o'tsak, – dedi.

U karavotga o'tirib oldi va mening shaxsiy hayotimni o'rganishga kirishilganini aytdi.

Onam yaqinda g'aribxonada o'lgani aniqlanibdi. Shunda Marengoga so'rov yuboribdilar. U yoqdan tergovchilarga onamning janozasida «bag'ritoshlik qilganim»ni xabar qilishibdi.

– Tushunyapsizmi, – dedi himoyachim, – buni so'rash menga noqulay. Lekin nihoyatda muhim. Ayblovda ham, agar men hech narsa deb rad qilolmasam, bu dalilni ustalik bilan ishlatishlari mumkin.

U yordam berishimni xohladi. O'sha kuni iztirob chekdingizmi, yo'qmi, deb so'radi. Juda hayron bo'ldim, o'zimga qolsa, men birovga bunaqa savol berishga istihola qilardim. Tuyg'ularni tahlil qilishdan o'tganman va bu haqda bir narsa deyishga qiynalaman, deb javob qildim. Albatta, onamni yaxshi ko'rardim, lekin buning nima ahamiyati bor. Esi joyida bo'lgan har qanday odam bir kun kelib o'zi sevgan kishiga o'lim tilab qoladi. Shunda advokat gapimni shart kesdi, nazarimda, juda hayajonlanib ketganday bo'ldi. Bunaqa gapni sudda ham, tergovchi oldida ham aytmasslikka mendan so'z oldi. Men unga tabiatim shunaqaligini – jismonan o'zimni yomon sezsam, tuyg'ularim, fikrlarim hammasi chalkashib ketishini baribir tushuntirdim. O'sha, onamni ko'mgan kunimiz men uyquga to'ymagan, juda charchagan edim. Shuning uchun ham nima bo'layotganini tuzukroq anglamadim ham. Lekin, har holda, bir narsani – menga onamning tirik yurgani ma'qul ekanini aytishim mumkin. Lekin himoyachining ko'ngli to'lmagani bilinib turardi. U:

– Buning o'zi kam, – dedi.



U o'ylanib turdi. Keyin sudda o'sha kuni o'zimni qo'lga olib, tabiiy iztirobimni oshkor qilmaslikka harakat qildim, deb ayta olasizmi, yo'qmi, deb so'radi.

– Yo'q, bu yolg'on-ku, axir, – dedim.

U menga g'alati, xuddi men unda oz-moz nafrat uyg'otayotganday qaradi. Va qariyb zarda bilan, «nima bo'lmasin, ishqilib, g'aribxonada mudiri, xizmatchilari hali guvoh sifatida chaqiriladi, shunda ish siz uchun juda xavfli tus oladi», dedi. Men unga buning nima aloqasi bor, meni, axir tamom boshqa narsa uchun sud qilishadi-ku, dedim, lekin u, biron marta ham adliyaga ro'para bo'lmaganingiz ko'rinib turibdi, deb javob qildi, xolos. U achchiqlanib chiqib ketdi. Uni to'xtatishni, menga yaxshi munosabat bildirsa, sudda ham meni himoya qilishga ko'proq jon kuydirishini o'ylab emas, yo'q, shunchaki xursand bo'lishimni tushuntirishni xohladim. Muhimi, men uchun tashvishga tushganini ko'rib turibman. U meni tushunmayapti, shuning uchun ham biroz jahli chiqyapti. Unga o'zimning hamma odamlarga o'xshagan, boshqalardan sira farqim yo'qligini tushuntirishni istadim. Lekin, bu gaplarning hammasi, mohiyatan olganda, befoyda, dedim, erindim va qo'l siltab qo'ya qoldim.

Saldan keyin meni yana tergovchiga olib borishdi. Soat ikki, bu gal kabinet nurga to'lgan, yuqqa pardalar yorug'likni qariyb to'solmayotgan edi. Juda issiq. Tergovchi meni o'tirishga chorladi va o'ta xushmuomala bilan, himoyachim kelolmagani – «sharoit yo'l qo'ymaganini» ma'lum qildi.

Lekin so'roqqa javob berishdan bosh tortishga – advokat kutishga haqim bor ekan. Men, bir o'zim javob bersam ham bo'laveradi, dedim. U stoldagi qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Yosh kotib kirdi va orqada, menga juda yaqin joyda o'tirdi.

Tergovchi ikkovimiz kursiga qulayroq o'rtnashib oldik. So'roq boshlandi. Oldin u, ko'pchilikning fikricha, siz indamas, damdo'z odamsiz – o'zingiz bunga qanday qaraysiz, deb so'radi.

Men:

– Aytadigan gapim yo'q. Mana, shuning uchun ham indamayman, – dedim.

U, adashmasam, birinchi marta iljaydi, bundan zo'rroq sabab ko'rsatib bo'lmaydi, deb gapimni ma'qulladi va qo'shimcha qildi:

– Mayli, buning ahamiyati yo'q. – Indamay menga tikildi, birdan qaddini ko'tardi-da, tez gapirdi: – Meni o'zingiz qiziqtirasiz.

Men uning nima demoqchiligini uncha tushunmadim, jim turaverdim.

Men, hammasi juda oddiy, dedim. U o'sha kunni yana bir marta batafsil aytib berishimni so'radi. Men unga oldin aytgan gaplarimni: Raymonni, qumloqni, cho'milganimizni, arablar bilan janjalni, yana qumloqni, chashmani, quyoshni va to'pponchadan besh marta o'q uzganimni takrorladim. U qayta va qayta:

– Shunday, shunday, – deb turdi.

Gapim qumda qilt etmay yotgan gavgaga kelganda u yana ma'qulladi:

– Yaxshi.

Bir narsani hadeb takrorlayverish jonimga tegib ketdi, umrimda buncha ko'p gapirmaganday edim.

Biroz jim o'tirdik, keyin u o'rnidan turdi va menga juda qiziqib qolganini, xudo xohlasa, men uchun u-bu qilishga urinib ko'rishini aytdi. Lekin bundan oldin u mendan yana bir nechta narsani so'ramoqchi ekan. Va paysalga solmay so'radi: onamni yaxshi ko'rarmidim?

– Ha, hammaga o'xshab, – dedim.

Shu paytgacha uzluksiz chiqillatib o'tirgan kotib adashib boshqa harfni bosib qo'ydi shekilli, mashinkani birdan to'xtatib, orqaga qaytardi. He yo'q, be yo'q, tomdan tarasha tushganday, tergovchi ham ketma-ket, to'xtamay besh marta otdingizmi, deb savol berdi. O'ylanib turdim va oldin bir otib, sal o'tgandan keyin yana to'rt marta o'q uzganimni esladim.

– Nega birinchisidan keyin kutib turdingiz? – deb so'radi u.

Ko'z oldimga yana o'sha qip-qizil qumloq keldi va quyosh peshanamni qanday kuydirganini esladim. Bu gal hech qanday javob qilmadim. Ancha vaqt indamay o'tirdik, tergovchi xuddi hayajonlanayotganday edi. U yana o'tirdi, sochini changalladi, stolga tayandi va qanaqadir g'alati bir tusda menga tomon egilib oldi.

– Nega, nega o'lib yotgan odamni yana otdingiz?

Yana nima deb javob qilishni bilmay qoldim. Tergovchi kaftini peshanasiga surdi va tovushi o'zgarib, savolni qaytardi:

– Nega? Ayting menga, bu juda muhim: nega?

Indamay o'tiraverdim.

U otilib turdi, katta-katta odimlab, kabinetni kesib o'tdi-da, kartoteka yoniga bordi va qutini ochdi. Qutidan bir kumush xoch oldi va uni silkib yonimga qaytdi. Va mutlaqo boshqacha, sal xirqiroq tovush bilan:

– Siz uni bilasizmi? – deb xitob qildi.

– Ha, albatta, – dedim.

Shundau kuyib-yonib, qaynab gapirishga tushdi: u xudoga ishonadi, xudo gunohidan o'tmaydigan bironta gumroh banda yo'qligiga ishonadi, lekin bu uchun gunohkor banda tavba qilib, ko'nglini lang ochishi, xuddi boladay – ochiqko'ngil va ishonuvchan bo'lishi kerak. Tergovchi stolga egilib oldi. Xochni naq boshimning ustida silkidi. Ochig'ini aytsam, uning gapidagi ma'noni yaxshi uqmadim, chunki juda issiq, bu ham yetmaganday, kabinetda katta-katta pashshalar uchib yurar, yuzimga qo'nar, bundan tashqari, tergovchi ko'nglimga biroz qo'rquv ham solayotgan edi. Lekin, ayni paytda, qo'rqish kulgili ekanini ham anglab turardim, axir, oxir-oqibat, jinoyatchi o'zim-ku. Tushunganim shu bo'ldi: aybimni tan olishimda unga bir vaziyat – bir marta otganimdan so'ng biroz kutganim, keyin yana to'xtamay o'q uzavermaganim noaniq ekan. Boshqa jihatlari unda shubha tug'dirmaydi, faqat shunisini tushunolmayapti.

Menga uning behuda yopishib olganini aytmoqchi bo'ldim: to'xtab otdimmi, to'xtamay otdimmi – nima farqi bor. Lekin u gapimni bo'lib qo'ydi, qaddini azot ko'tarib, oxirgi marta javob talab

qildi: xudoga ishonasizmi? Men, ishonmayman, deb aytdim. Uning jahli chiqdi va o'tirib oldi. Bunaqa bo'lishi mumkin emas, hamma xudoga ishonadi, hatto undan qaytganlar ham, dedi.

– Nahotki siz mening umrim chippakka chiqishini istaysiz? – deb xitob qildi u.

Menga bunisining aloqasi yo'q, deb o'yladim va unga ham shunday dedim. Lekin u xochni burnimga ishqaguday cho'zdi va bamisoli telbaday qichqirib yubordi:

– Nasroniyman! Men undan sening gunohlaringni kechirishni o'tinyapman! Uning sen uchun iztirob chekkaniga qanday qilib ishonmaysan?

Albatta, uning menga xuddi yaqin odamiday «sen» deb gapirishga o'tganiga e'tibor qildim, lekin jonimdan to'ydirib yubordi. Issiqqa chidab bo'lmay qoldi. Hamisha o'zimni zo'rlab gapini tinglayotgan bironta odamdan qutulmoqchi bo'lganimday, tergovchining hamma gapiga qo'shilayotgan tusga kirdim. Uning quvonib ketgani meni ajablantirdi.

– Mana, ko'ryapsanmi, ko'ryapsanmi! – deb tantana qildi u. Axir, unga ishonishing, o'zingni unga topshirishing haqiqat-ku!

Turgan gap, men unga yana, yo'q, deb aytdim. U kursiga behol o'tirib qoldi. Yuzi juda horg'in tusga kirdi. Biroz indamay o'tirdi, suhbatimiz davomida chiqillashdan tinmagan mashinka esa so'nggi so'zlarimizni yozayotgan edi. Keyin tergovchi menga diqqat bilan, va hatto, ma'yusona termildi. Va to'ng'illadi:

– Siznikiday tosh qotgan yurakni shu paytgacha uchratmagan edim. Qo'limdan qanchadan-qancha

jinoyatchi o'tdi, lekin hammasi ham bu mushfiq siymo oldida yig'lashga tushgan.

Men ular jinoyatchi bo'lgan, shuning uchun ham yig'lagan, demoqchi edim. Lekin shu zahoti o'zim ham shunaqalardan ekanimni o'ylab qoldim. Ana shu fikrga sira ko'nikolmadim. Shu asnoda tergovchi xuddi so'roq tugaganini bildirganday, o'rnidan turdi. Faqat o'sha-o'sha horg'in tusda, qilgan ishingizga pushaymonmisiz, deb so'radi. Men o'ylab turib, nafaqat pushaymonman, o'zimga ham juda yoqimsiz, deb javob berdim. U tushunmaganday tuyuldi. Lekin o'sha kuni hammasi shu bilan tugadi.

Keyin tez-tez tergovchining oldiga boradigan bo'ldim. Lekin har gal advokatim birga bo'lardi. Mendan faqat oldin bergan ko'rsatmalarimni oydinlashtirish talab qilinardi. Yoki tergovchi advokat bilan ayblov moddalarini muhokama etishar edi. Har qalay, tergov ohangi asta-sekin o'zgarib qoldi. Meningcha, qilmishim tergovchiga juda aniq bo'lgan va endi u menga qiziqmay qo'ygan edi. U menga xudo to'g'risida boshqa gapirmadi, birinchi marta uchrashuvimizdagiday hayajonga tushganini boshqa ko'rmadim. Shuning uchun suhbatlarimiz ancha erkin bo'la boshladi. Bir necha savol, advokat bilan qisqacha suhbat – vassalom. Ishim, tergovchining aytishicha, o'z rasamadi bilan ilgarilashga tushdi. Ba'zan, agar suhbat umumiy mavzularga ko'chsa, meni ham suhbatga tortar edilar. Bunaqa soatlarda menga hech kim jahl qilmasdi. Endi erkinroq nafas olayotgan edim. Xuddi oldindan yozib qo'yilganday, hammasi o'z

maromida, osoyishta, tabiiy ko'chayotgan va menda ham go'yo o'zim shu oilaning bir a'zosiday alomat bir taassurot paydo bo'lgan edi.

Tergov o'n bir oyga cho'zildi va oxirida tergovchining eshikkacha kuzatib qo'yib, yelkamga qoqqancha:

– Xo'sh, buguncha yetar, janob Dajjol, – deb do'stona xushlashganiday noyob daqiqalardan boshqa maroqli damlar umrimda bo'lganiga ham qariyb ishonmay qoldim.

Keyin meni jandarmlar qo'liga topshirdilar.

## II

Ba'zi xil narsalar to'g'risida gapirishni hamisha yoqtirmayman. Qamoqdagi birinchi kunlarimdayoq umrimning bu bo'lagi haqida so'ylash juda yoqimsiz bo'lishini tushunib qoldim.

Keyin bu tuyg'uning ham sariq chaqaga qimmat ekanini o'ylay boshladim. Mohiyatan olganda, birinchi paytlar hali haqiqiy mahbus ham emas, bir ojiz ilinj bilan, mana, mana, nimadir o'zgarib ketadi, deb kutardim. Hammasi Marining birinchi va oxirgi uchrashuvga kelishi bilan boshlandi. Undan xat olgan kunimdan (Mari, turmush qurmaganimiz uchun bizga boshqa uchrashuvni ruxsat berishmas ekan, deb yozgan edi), ayni shu kundan boshlab men shu hibsxona endi uyimga aylanganini, hayotim ham shu yerda yakun topganini angladim. Qamoqqa olinganimdan keyin boshida meni bir nechta mahbuslar yotgan hibsxonaga qo'yishdi,

ularning qariyb hammasi arab edi. Dastlab ular meni ko'rib, ustimdan kula boshladilar. Keyin nima gunoh qilganimni so'rashdi. Men bir arabni o'ldirganimni aytdim va ular jim bo'lib qolishdi. Lekin tezda qorong'i tushdi va menga ular to'shanchi bo'ladigan bordonni qanday yoyishni o'rgatishdi. Bosh qo'yish uchun bir uchi lo'labolishday yumaloqlanar ekan. Tuni bilan yuzimda taxtakanalar o'rmalab chiqdi. Bir necha kundan keyin meni bir kishilik hibsonaga ko'chirishdi, bu yerda yog'och so'rida yotadigan bo'ldim. Hibsonada axlat chelak bilan yuvinishga tunuka tog'ora qo'yilgan edi. Qamoqxonah shahardan balanda, tor tuynukdan dengiz ko'rinib turadi. Bir kuni panjaraga osilib, yorug'likka talpinayotgan edim, turmabon kirdi va meni ko'rgani kelishganini aytdi. Men, hoynahoy, Mari bo'lsa kerak, deb o'yladim. Rostdan ham, Mari ekan.

Uchrashuv xonasiga meni avval uzun dolondan, keyin zinapoyadan, keyin yana dolondan olib borishdi. Derazalari katta-katta qilib faqat bir tomonga qurilgan keng xonaga kirdim. Ikki qator panjara to'siq butun xonani uzunasiga bo'lib qo'ygan edi. Panjaralar orasidagi sakkiz-o'n metr chamasi bo'shliq mahbuslarni ularni ko'rishga kelganlardan ajratib turardi. Ro'paramda Mari, uning yo'l-yo'l ro'molini, oftobda qoraygan yuzini ko'rdim. Bu tomonda, mening qatorimda o'ntacha, chamasi, bari arab mahbuslar. Ko'rgani kelgan ayollar ham, Maridan boshqa, hammasi ko'proq arab; Marining o'ng yog'ida qora kiyingan, lablarini qimtib olgan jikkak kampir, chap yog'ida sochlari unniqib



ketgan semiz ayol, u qo'llarini siltab, tovushining boricha qichqirar edi. Darvoqe, panjaralarning orasi juda uzoq bo'lganidan, mahbuslar ham, ko'rgani kelganlar ham baqirib gapirishga majbur edi. Baqirchaqir va derazadan quyilib, ko'zni olayotgan nurlar yalang'och devorlarga urilib qaytib yana kuchayardi, kirgan paytimda hatto boshim aylanib ketdi. Men yotgan hibsxona bundan tinch va qorong'iroq edi. Ko'nikishim qiyin bo'ldi. Keyin o'tkir yog'duda odamlarning yuzini aniq farqlay boshladim. Ikki panjara oralig'ining oxirida turmabon o'tirgan ekan. Ko'p arab-mahbuslar va ularga kelgan qarindoshlari bir-birlariga qarab cho'kka tushgan edilar. Ular baqirmayotgan edi. Ular juda sekin gaplashar va shuncha chuvvosga qaramay bir-birlarini eshitishni ham uddalar edilar. Ular pastdan bo'g'iq g'uldirar, xuddi boshlarining ustida uyoq-bu yoqqa uchayotgan savol-javoblarga bas toriday g'o'ng'illab yo'ldoshlik qilar edilar. Bularning hammasini bir zumda ko'rib oldim va Mariga qarab yurdim. U allaqachon panjaraga tarmashib olgan va kuchining boricha jilmayayotgan edi. U menga juda chiroyli bo'lib ko'rindi, lekin buni uning o'ziga aytishga chog'im kelmasdi.

– Xo'sh, qalay? – dedi u juda baland ovozda.

– Bir navi.

– Sog'lig'ing qanday, kerakli hamma narsang bormi?

– Ha, bor.

Gapimiz to'xtab qoldi. Mari hali ham jilmayib turgan edi. Semiz xotin mening yonimdagi, eri

bo'lsa kerak, oq-sariq sochli, ko'zlari tiniq, daroz davangirga bir nima deb baqirdi.

Bu suhbat, aftidan, men kelguncha boshlangan ko'rinadi.

– Janna uni olishga ko'nmadi! – deb jonining boricha baqirdi baqaloq xotin.

– Ha, ha, – deb takrorladi eri.

– Men unga chiqqaningdan keyin qaytarib olishingni aytsam ham, bari bir, olib turishga ko'nmadi!

Shu payt Mari, Raymon senga salom aytdi, deb qichqirdi, men:

– Rahmat, – dedim.

Lekin yonimdagi xotiniga baqirib, gapimni eshittirmadi:

– O'zi qanday, zo'rmi?

Xotini iljayib javob berdi:

– Hammadan zo'r!

Chap yonimdagi qo'shnim – qiltiriq, qo'llari ingichka yigit hali ham miq etmay turgan edi. Men uning jikkak kampirning ro'parasida o'tirgani, ikkovining bir-biriga ko'z uzmay tikilishayotganini payqadim. Ularni boshqa kuzatishga imkon bo'lmadi, chunki Mari qichqirib qoldi: yaxshi narsalarni o'ylash kerak!

– Ha, – dedim men.

Mariga termildim va uning yengil ko'ylak yashirgan yelkalarini quchoqlagim keldi. Men birdan bu mo'jaz qomatni qo'msadim, ochig'i, bundan boshqa yana nimani orzu qilish mumkinligini ham bilmayman. Lekin, albatta, mudom jilmayib

turishiga qaraganda Mari ham xuddi shu narsani o'ylayotgan edi. Endi menga faqat tishlarining chaqnashi, ko'zlari atrofidagi kulgich ajinlarigina ko'rinib turardi.

– Chiqishing bilan to'yimizni qilamiz!

– Shunday bo'ladi deb o'ylaysanmi? – dedim, nimadir aytish kerak edi-da, axir.

U juda tez va juda baland ovozda javob qaytardi: bo'ladi, bo'ladi. Sen oqlanasan va hali ikkovimiz ko'p cho'milamiz. Lekin yonidagi semiz xotin yana ham qattiqroq baqirdi: qamoqxona ma'muriyatiga savat tonshirgan ekan, unga nimalar solinganini bir-bir sanashga tushdi. Ishqilib, olayotganda tekshirsin, axir, hammasi ozmuncha pul turmaydi! Ikkinchi qo'shnim bilan onasi boyagi-boyagiday sukut bilan bir-biriga termilib turgan edi. Arablar pastdan o'shanday pichir-pichir gaplashayotgan edilar. Ko'chadagi charog'on yog'du go'yo shishib ketgan, oynani bosib-itarib kelayotganday edi. U odamlarning yuzidan baayni yorilib ketgan meva shirasiday oqib tushardi.

Mazam qochib qoldi, jon deb ketgim keldi. Shovqindan chakkam lo'qillab berdi. Lekin, baribir, hozircha iloji bor ekan, Marini ko'rib turgim kelayotgan edi. Mari o'z ishlari haqida gapirishga tushdi, hanuz jilmayishini qo'ymayotgan edi. G'uldirash, baqir-chaqir, gap-so'z tomonlar otishmasiga aylandi. Faqat bir orol omon – yonimdagi jikkak yigit va uning onasi indamay bir-birlariga termilar edilar. Birin-sirin arablarni olib keta boshladilar. Birinchisi ketishi bilan xonada

qolganlarning qariyb barisi jimib qoldi. Kampir panjaraga yaqinroq surildi va ayni shu daqiqada turmabon uning o'g'liga imo qildi. O'gil:

– Yaxshi boring, ona, – dedi.

Kampir esa panjara simlari orasidan cho'zgan qo'llarini sekin-sekin, uzoq vaqt silkib turdi.

Yigit chiqib ketdi, shu zahoti kampirning o'rmini shlyapasini qo'liga olgan bir erkak egalladi. Boshqa bir mahbusni olib kelishdi va ikkalasi shosha-pisha, lekin pastroq ovozda gaplashib ketdilar, chunki zaldagilarning qariyb hammasi jimib qolgan edi. Turmabon bu yonimdagi sherigimga keldi va buning xotini endi baqirishga hojat yo'qligini bilmaganday qichqirdi:

– Boxabar bo'li! O'zingga qara!

Keyin navbat menga keldi. Mari havodan o'pich yubordi. Eshikka yetganda orqamga qaradim: u panjaraga yuzini bosib, qilt etmay, hanuz o'sha qiynoqli, suratday qotgan tabassumi bilan jilmayib turar edi.

Ko'p o'tmay u menga xat yozdi. Ana shundan keyin aytib berish menga sira yoqmaydigan ko'p narsalar boshlandi. Har holda, ko'pirtirishga hojat yo'q: men boshqalarga qaraganda yengilroq o'tkazdim. Lekin qamoqdagi birinchi kunlarimda eng yomoni shu bo'ldiki, kallamda erkin odamning xayollari tug'ila boshladi. Masalan, birdaniga qumloqda yastanib yotgim, dengizga tushgim kelib qoladi. Mana, oyog'imga ilk to'lqinlar shaloplab uriladi, suvga sho'ng'iyman, shunday aniq his qilamanki, qushday yengil tortaman, o'zimni erkin

hisoblayman, – shunda birdan tegramni qamoqning to‘rt devori qurshab oladi. Ammo bir necha oy o‘tib, bunaqa xayollardan qutuldim. Endi mahbusga munosib o‘y surishga o‘tdim. Hovliga – har kungi sayrga olib chiqishlarini yo bo‘lmasa, advokat kelishini kutib yotaman. Boshqa vaqtlari ham ovunchoq topadigan bo‘ldim. Va doim o‘ylardim: agar meni biron qurigan daraxt tanasiga tiqib, shuning ichida yashashga majbur etishsa, mayli, hech bir narsa qilishga iloj bo‘lmasin, faqat boshim ustida osmon yorishib kelayotgani ko‘rinib tursa, shunga ham asta-sekin ko‘nikaman. Bironta qush uchib o‘tishini, bulutlarning suzishini kutib turaverardim, bari bir, bu yerda ham bugun advokatim yana qanday allambalo galstuk taqib kelar ekan deb kutib yotaveraman, qamoqqa tushmasimdan oldinlari ham shanbani – Marini quchoqlasa bo‘ladigan kunni sabr-toqat bilan shunday kutardim. Lekin, bunday o‘ylab ko‘rilsa, men qurigan daraxt ichida o‘tirganim yo‘q. Mendan baxtsizroq odamlar ham bor-ku. To‘g‘ri, bu mening fikrim emas, onamga tegishli, u, oxir-oqibat, odam bolasi hamma narsaga ko‘nikadi, degan gapni tez-tez aytib yurardi.

Keyin o‘zim ham o‘y o‘ylaganda, odatda, juda chuqur kiravermas edim. Bir-ikki oyni o‘tkazish juda og‘ir ko‘chdi. Bir amallab o‘zimni yengishim kerak edi, lekin xuddi shu narsa ham vaqtni o‘tkazishga yordam berdi. Mana, masalan, ayolni juda sog‘inib qolaman. Bu tabiiy, chunki yoshman. Men hech qachon faqat Marining o‘zinigina o‘ylaganim yo‘q. Shunchaki bir ayol, umuman ayollar,

ko'rganlarimning hammasi haqida va qaysisi bilan qachon, qayerda qanday qo'shilganimni o'ylayman, shu qadar ko'p o'ylaganimdan, hibsxona ularning yuzlariga to'lib ketib, istaklarimga torlik qilib qoladi. Qay bir ma'noda, bu narsa meni notayin ahvolga soladi. Lekin shu yo'l bilan kun o'tkazish osonroq ko'chadi. Oxirrog'iga kelib, katta turmabon, u oshxonadan ovqat tashiydigan odamni kuzatib kelardi, menga achina boshladi. Shu katta turmabon menga ayollar to'g'risida gap ochdi. Hamma mahbuslarga ham eng yetishmaydigani shu-da o'zi, dedi u. Menga ham yetishmayapti, dedim, odamlarni bunaqa ahvolga solish adolatdan emas.

– Axir, xuddi shuning uchun ham sizlarni qamoqqa solishadi-da, – dedi u.

– Nega bunaqa?

– Ha endi, erkinlik ham shuning o'zi-da. Sizlarni erkinlikdan mahrum qilishadi-ku.

Bu gap ilgari kallamga kelmagan ekan.

– Ha, to'g'ri aytasiz, bo'lmasa buning jazoligi qoladimi?

– Ha, mana, siz farqiga borasiz. Boshqalar tushunmaydi. Lekin, borib-borib ular ham o'zlariga taskin topadi.

U shunday deb chiqib ketdi.

Keyin – sigaretlar. Qamoqda boshidayoq qayishim, boshmog'imning iplari, galstuk va cho'ntagimdagi hamma narsamni, eng yomoni – sigaretlarimni olib qo'ygan edilar. Hibsxonaga tushganimdan keyin qaytarib beringlar, deb so'radim. Lekin qaytarish ta'qiqlanganini aytishdi.

Birinchi kunlari nihoyatda og'ir bo'ldi. Hammasidan ham chekish mumkin emasligi meni ezib yubordi. So'ridan payraxa sindirib olib so'radigan bo'ldim. Kun bo'yi ko'nglim aynib yurardi. Mendan hech kimga xalal bermaydigan, ziyoni tegmaydigan narsamni nega tortib olishganiga sira aqlim yetmasdi. Keyin tushundim – bu ham jazoga kirar ekan. Ammo bu vaqtga kelib chekish xumoridan qutulgan edim va bu menga endi jazo ham emas edi. Agar shu ko'ngilsizliklarni hisobga olmasa, men juda uncha baxtsiz emasdim. Yana qaytaraman, eng muhimi – vaqt o'tkazish. Men turli narsalarni o'ylashga odatlanib oldim va shundan keyin boshqa zerikmay qo'ydim. Goho o'zim yashagan xonani eslayman, mana, bir kezib chiqaman, manavi burchakdan boshlab, ko'zim tushgan mayda-chuydalargacha e'tibor qilaman – hammasi yodimda aniq tiklanadi. Boshida bu ham ko'pga cho'zilmas edi. Lekin galdan galga eslashim uzayib boraverdi. Chunki har bir kursini, qayerda, qaysi g'aladonda qanaqa ashyo yotibdi, arziyas narsani, bezagi, qirilgan, darz ketgan joylarini, rangining qanaqaligini, paypaslaganda qo'lga qanday tegishini – barcha tafsilotlarini aniq esga tushirardim. Ayni paytda chalkashtirmay, tartibini buzmay, hech bir narsani unutmay xotirlashga tirishar edim. Bir necha haftadan keyin xonamda bor narsalarning hammasini bir-bir xayoldan o'tkazishimga soatlab vaqt ketkazadigan bo'ldim. Qancha eslasam, xotiramda shuncha ko'p arziyas mayda-chuydalar tiklanaverdi. Shunda bir narsani tushundim: agar

odam bir kungina yashasa bas, keyin u qamoqda yuz yil ham bemalol yotaverishi mumkin ekan. Zerikib qolmasligi uchun unda istagancha xotira topiladi. Kerak bo'lsa, bu ham taskin beradi.

Yana uyqu ham bor. Boshda kechalari yomon uxlar, kunduzlari esa mijja qoqmas edim. Asta-sekin kechalariga ishim o'nglandi va hatto kunduzlari uxlashga ham o'rgandim. Keyingi oylari esa kuniga o'n olti, o'n sakkiz soatlab uxlaydigan bo'ldim. Qolgan olti soatni bir amallab o'tkazish kerak edi, buning uchun esa ixtiyorimda nonushta, tushlik, kechki ovqat, tabiiy zarurat, xotiralar va yana bir chexning sarguzashtlari bor edi.

Bir kuni men so'ridan, somon to'shak tagidan unga yopishib qolgan bir ro'znoma parchasini topib oldim, sarg'ayib, qariyb shaffof tusga kirgan edi. Bir jinoyat tafsiloti ekan, boshi yo'q, lekin mazmunidan voqea Chexoslovakiyada bo'lganga o'xshaydi.

Bir odam baxtini sinab ko'rish uchun tug'ilgan qishlog'ini tashlab, olis o'lkalarga uloqib ketibdi. U yigirma yildan keyin boy-badavlat bo'lib, xotini va bolasini ergashtirib yurtiga qaytibdi. Qishloqda uning onasi bilan singlisi kichkina mehmonxona ochib olishgan ekan. U uyidagilarni hayratga solaman deb, xotini bilan bolasini boshqa bir joyga qo'yib, o'zi onasining oldiga boribdi – onasi uni tanimabdi. U azbaroyi hazilga go'yo o'ziga xona zarurligini aytibdi. Onasi bilan singlisi ko'rsaki, unda pul juda ko'p. Tunda uni bolg'a bilan urib o'ldirib, jasadini daryoga tashlab yuborishadi. Ertalab uning xotini keladi, hali hech narsadan xabari yo'q, kechagi



mehmonning kimligini aytadi. Ona o'zini osib qo'yadi. Singlisi o'zini quduqqa tashlaydi. Men bu voqeani ming marta o'qidim shekilli. Bir tomondan, hech haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Ikkinchi tomondan – juda tabiiy. Meningcha, bu odam qay bir ma'noda o'ziga tegishlisini olgan. Hech qachon mug'ombirlik qilish kerak emas.

Men shu tarzda soatlab uxlardim, xotiraga berilardim, shu voqea parchasini qayta-qayta o'qirdim, hibsxona dam yorishar, dam qorong'ilashar – vaqt o'tib boraverar edi. Bir paytlar qayerdadir qamoqdagi odam borib-borib vaqt haqida tasavvur qilishni ham unutadi, deb o'qib qolgan edim. Lekin o'shanda bu gapga e'tibor ham bermagan edim. Men kunning bir vaqtning o'zida ham juda uzun va ham juda qisqa bo'lishini tushunmasdim. Albatta, bunaqa kunlar – juda uzun, yana shunaqa cho'zilishadiki, oxir-oqibat, qo'shilishib, biri ikkinchisiga uyqashib ketadi. Bilgisiz, qiyofasiz tus oladi. Faqat «kecha» bilan «bugun» degan so'zlarning ma'nosigina yo'qolmay turadi.

Bir kuni turmabon qamoqda yotganimga ham besh oy bo'lganini aytib qoldi – ishondim-u, uncha tubiga yetmadim. Men uchun hibsxonada yotgan kunim – sira oxiri yo'q, cho'zilgandan cho'zilib kelayotgan bir kun va tashvishim ham doimgiday bitta tashvish edi. Turmabon chiqib ketdi, men dekchani yuzimga ko'zgu qilib tutdim. Yuzim, hatto unga qarab jilmayishga uringanimda ham xo'mrayganicha qolayotganday tuyuldi. Dekchani har yoqdan tutib ko'rdim. Yana jilmaydim, aksim

badqovoq va ma'yusligicha qolaverdi. Kech kirayotgan, qamoqxonaning barcha qavatlaridan bo'g'iq shom shovqinlari dilgir ohangda balandlab, yana shu ko'yi sekin pasayadigan, men aytib berishni sira yoqtirmaydigan bir kez edi. Tuynuk oldiga borib, so'nayotgan shom shu'lalari yog'dusida yana bir marta aksimga termildim. Yuzim boyagiday juda jiddiy edi, nachora, o'zim endi jiddiylashib qolganimdan keyin, buning nimasi ajablanarli? Lekin ayni shu payti, bir necha oydan beri ilk marta, o'z ovozimni aniq eshitib qoldim. Ko'p kunlardan beri qulog'imga eshilib yurgan tovush shu ekan: shundagina men yakkabo'lmaga tushganimdan beri doim o'zimga o'zim gapirib yurganimni anglab qoldim. Hamshiraning onamni ko'mgan kunimizda aytgan gapi esimga tushdi. Ha, shundoq, qamoqxonadagi shomlar qanaqa bo'lishini hech kim tasavvur qilolmaydi, boshqa najot yo'li ham yo'q.

### III

Mohiyatan olganda, yoz fasli boshqa yoz bilan tez o'rin almashdi. Issiq kunlar boshlanishi bilan hayotim yangi bosqichga o'tishini oldindan bilar edim. Ishim sud maslahatchilarining oxirgi sessiyasida ko'rilishi kerak, sessiya iyunda yakunlanadi. Jarayon boshlanganda erkinlikdagi hamma narsa quyoshga chulg'angan edi. Himoyachim meni ajrim uch-to'rt kundan ko'pga cho'zilmaydi, deb ishontirdi.

– Sud imillab o'tirmaydi, – deb qo'shib qo'ydi u. – Ishingiz bu sessiyadagi eng asosiy ish emas.

Bir padarkushlik bor, sizdan keyin to'g'ri shu ishni ko'rishga o'tishadi.

Ertalab yetti yarimda kelib, qamoqxona mashinasida meni sud binosiga olib borishdi. Ikkita mirshab meni zax tortgan bir hujraga olib kirdi, bu yerda qorong'ilik hidi anqirdi. Eshik oldida kutib o'tirdik, eshik naryog'idagilar esa gaplashadi, bir-birini chaqiradi, kursilarni suradi, xullas, g'ala-g'ovur, taloto'p, go'yo konsert o'tib, endi juft-juft raqs tushishga xona o'rtasi bo'shatilayotgan hayriya oqshomiga o'xshaydi. Mirshablar, hali majlis boshlangani yo'q, deb aytishdi, birovi menga sigaret tutdi, men rad qildim. Saldan keyin menga, qo'rqmayapsizmi, dedi, men yo'q, dedim. Qay bir ma'noda menga hatto qiziq edi, ko'ray-chi, qanaqa bo'lar ekan. Hali biron marta sudga tushib ko'rmaganman.

– Ha, – dedi unisi, – lekin oxiriga borib joningga tegib qoladi.

Birozdan keyin xonadagi qo'ng'iroq jiring etdi. Shunda qo'limni kishandan bo'shatishdi. Eshikni ochib, meni aybdorlar kursisiga yetaklashdi. Keng xona odamga to'la. Pardalar ochilmagan. Lekin u-bu yerdan quyosh sizib kiradi, halitdan havo yetishmaydi. Derazalar hali yopiq. O'tirdim, ikki tomonimdan mirshablar joy oldi. Shu payti ro'paramda turgan saf-saf yuzlarni ko'rdim. Hammasi menga tikilib olgan edi, maslahatchilar shu ekanini angladim. Lekin birovini birovidan ajrata olmadim, hammasi qandaydir bir xil tuyuldi. Go'yo tramvayda ketyapman-u, ro'paramda qator

bo'lib yo'lovchilar – qiyofasiz notanishlar o'tiribdi, hammasi menga tikilib, ustimdan kulishga bahona qidirayotganday. Albatta bu o'yning bema'ni ekanini tushunaman: ular mendan biron kulgili narsani emas, jinoyatni qidirishayotir. Lekin uncha ham farqi yo'q, har qalay, o'shanda shu xayolga borgan edim.

Odamning buncha ko'pligidan ham tang qoldim – xuddi bochkaga tuzlab qo'yilgan baliqqa o'xshaydi. Yana keng xonaga ko'z yugurtirdim, lekin bironta qiyofani ajratolmadim. Boshda shu olomonning hammasi meni tomosha qilishga kelgan deb yanglishdim shekilli. O'zi odatda odamlar menga e'tibor bermaydilar. Shu taloto'pning bari men uchun bo'layotganini anglashim juda qiyin bo'ldi. Mirshabga:

– Buncha odam! – dedim.

U hammasi ro'znomalarning ishi, dedi va maslahatchilardan pastdagi stol atrofida uymalashgan odamlarni ko'rsatdi.

– Ana ular, – dedi.

– Kimlar? – deb so'radim.

U yana qaytardi:

– Ro'znomalar.

Tanish bir muxbirni ko'rib qoldim, u ayni bizga qarab kelayotgan edi. Xiyla yoshi o'tgan, yuzi o'ta jonsarak ko'rinsa ham, istarasi issiq edi. U mirshab bilan samimiy ko'rishdi. Shunda men bu yerdagi odamlarning bemalol, go'yo hammalari qadrdon, bir-birlarini ko'rishdan baxtiyor bo'ladigan do'stona davraga yig'ilganday, salomlashib, so'rashib,

gaplashib o'tirishganini angladim. Ha, mana shuning uchun ham o'zimni g'alati, bu yerda xuddi chaqirilmagan mehmonday, ortiqcha deb his qilayotgan ekanman. Lekin muxbir menga jilmayib gap qotdi. Ishonchim komil, dedi u, hammasi yaxshi bo'ladi. Men rahmat aytdim va u:

– Bilasizmi, biz ishingizni oz-moz ko'pirtirdik, – deb qo'shib qo'ydi. – Gazetalar uchun hozir o'lik mavsum. Hech bir tuzukroq voqea topilmadi, faqat siz-u mana shu padarkushlik.

Keyin boya o'zi gaplashgan, hozir muxbirlar galasida burniga qora gardishli ko'zoynak qo'ndirgan, semirib ketgan sassiqqo'zanga o'xshab turgan bir odamga ishora qildi va Parijda chiqadigan ro'znomaning maxsus muxbiri, dedi.

– Aslidasiz uchunkelganiyo'q. Padarkushlikning qanday sud qilishlarini yoritadi, a lekin undan birato'la sizning ishingizni yozib kelishni ham so'rashgan.

Sal bo'lmasa, unga rahmat deb yuborayozdim, lekin buning kulgili bo'lishini o'z vaqtida anglab qoldim. U menga samimiy qo'l silkib qo'ydi va nari ketdi. Shundan keyin yana bir oz kutib o'tirdik. Hamkasabalari qurshovida, advokat hirqasini kiyib olgan himoyachim paydo bo'ldi. Muxbirlar oldiga borib, hammasi bilan qo'l olib ko'rishib chiqdi. To keng xonada qo'ng'iroq chalinguncha, ular misoli o'z uylarida o'tirganday, hazil-huzul qilib, kulishib turdilar. Keyin hamma o'z joyini egalladi. Himoyachi oldimga keldi, qo'limni siqib qo'ydi. Savollarga lo'nda javob qaytarishim, o'zim hech narsa haqida

oldin gap boshlamasiligim, qolgan narsalarni uning o'ziga qo'yib berishimni uqtirdi.

Chap yonimda taraqlatib kursi surishdi, o'girilib qaradim – baland bo'lyli, pensne taqqan qotma bir odam qizil hirqasini hafsala bilan to'g'rilab endi o'tirayotgan ekan. Bu – prokuror edi. Sud ijrochisi sud kelayotganini e'lon qildi. Ayni shu payti ikkita bahaybat ventilyator guvillashga tushdi. Uch kishi – sud kirdi – ikkitasi qora, bittasi qizil hirqa kiygan, har birining qo'ltig'ida qog'oz solingan bittadan juzdon, tez supaga yo'l oldilar. Qizil kiygani o'rtadagi kursiga o'tirdi, panogini ro'parasidagi stolga qo'ydi, tepakalini ro'molcha bilan artib, sud majlisi ochiq, deb e'lon qildi.

Muxbirlar allaqachon qalamlarini shaylagan edilar.

Ularning yuzi beg'am va jindaygina istehzoli ko'rinardi. Aytganday, yupqa kulrang kostyum kiygan, havorang galstukli, ularning ichida eng yosh bittasi hali ro'parasidagi stolda yotgan yozg'ichini qo'lga olmay, faqat menga tikilib o'tirgan edi. Uning yuzida qanaqadir nomutanosiblik bor edi, lekin men faqat uning ko'zlarini ko'rdim, juda tiniq, menga diqqat bilan termilayotgan edi, biroq nigohidagi ifodani uncha ilg'amadim. Juda g'alati – go'yo o'zimni o'zim kuzatib turganday bir ahvolga tushdim. Ehtimol, hali sud tartibini bilmaganim uchundir, keyin nima bo'lganini uncha tushunmadim: qur'a tashlab maslahatchilikka nomzodlar tanlab oldilar, rais himoyachi, prokuror va maslahatchilardan allanarsalarni so'radi (har gal

ularning boshi raisga tomon baravar o'girildi), tez-tez aybnomani o'qidilar (qulog'imga tanish ismlar, begona joylarning nomi chalindi), yana himoyachiga savollar berdilar.

Keyin rais hozir guvohlar chaqirilishini aytdi. Ijrochi baland ovozda ism-shariflarni o'qidi, men ularga e'tibor qildim. Shu paytgacha menga qiyofasiz va quyma bo'lib tuyulgan olomon ichidan g'aribxona mudiri, qorovuli, Toma Perez chol, Raymon, Mason, Salamano, Mari navbat bilan o'rinlaridan turib, yonboshdagi eshikka kirdilar. Mari men tomonga bekitiqcha, tashvishli bosh irg'adi. Shu paytgacha ularning birontasini ko'rmaganimga hayron bo'lib turgan edim, birdan yana bir ismi-sharif o'qildi va Selest o'rnidan turdi. Uning yonida hu bir marta restoranda oldimga kelib o'tirgan o'sha savdoyi xotinni ko'rib qoldim, nimchasi, qat'iyatli yuzi va qo'g'irchoq harakatlaridan tanidim. U menga ko'z uzmay tikilayotgan edi. Lekin o'ylab o'tirishimga imkon bo'lmadi, rais gapni boshlab qoldi. U sudning ishni eshitishga o'tishini aytdi va to'planganlarni tartibga, jimlikka chaqirishga zarurat bo'lmasligiga umid bildirdi. Uning, ya'ni raisning burchi ishning har tomonlama xolis va beg'araz ko'rilishini ta'minlash. Maslahatchilar zimmasida haqiqiy adolat ruhida hukm chiqarish ekan, bularning hammasidan tashqari, agar bironta odam tartibni buzguday bo'lsa, rais unga keng xonani bo'shatib qo'yishni buyuradi.

Yana ham isib ketdi, jamoatdan ba'zilari gazeta bilan yelpinishga tushdi. Rais ijrochiga imo qildi, u

somondan to'qilgan uchta yelpig'ich olib keldi va sudyalar shu zahoti ularni ishga soldilar.

Va shu zahoti meni so'roq qilish ham boshlandi. Rais menga juda xotirjam va hatto xayrixoh bo'lib, savollar berdi. Juda ba'dimga urgan bo'lsa ham, yana ismim, sharifim, yoshim va shunga o'xshagan narsalarni aytish talab etildi, o'ylab qoldim: mohiyatan olganda, bu tabiiy, axir, aybdorning o'rniga boshqa bir odamni sud qilib yuborsalar nima bo'ladi. Keyin rais mening qilmishlarimni qayta boshdan hikoya qildi va mendan har ikki gapning birida:

– Shundaymi? To'g'rimi? – deb so'rab turdi.

Men har gal, xuddi himoyachim o'rgatganday:

– Ha, janob rais, – deb javob berdim.

Juda cho'zildi, chunki rais batafsil, hamma mayda-chuydagacha aytib berdi. Muxbirlar ham yozishdan tinmadi. Ularning orasidagi eng yosh muxbir bilan avtomatxotinning mendan ko'z uzmayotganlarini his qilib turdim. Tramvay o'rindiqlaridagi hamma yo'lovchining ko'zi raisda. U yo'taldi, qog'ozlarni titkiladi, somon yelpig'ich bilan yelpingan ko'yi menga o'girildi.

U endi mening ishimga, sirtidan qaraganda, uncha aloqasi yo'q, lekin, ehtimol, mohiyatan juda bog'liqsavollarga to'xtashini aytdi. Hoziruning onam to'g'risida gapirishini angladim va ko'nglim yomon bo'lib ketdi. U onamni nima uchun g'aribxonaga berganimni so'radi. Unga qarashga va hamshiraga berishga pulim yetmas edi, deb javob berdim. Bu qarorga kelishingiz qiyin bo'ldimi, deb so'radi u.



Men bir-birimizdan ham, umuman boshqalardan ham umid qiladigan hech narsa qolmadi, ikkovimiz ham yangi turmush tarziga ko'nikkan edik, dedim. Shunda rais bu mavzuga yanada chuqur kirishga hojat yo'qligini aytdi va prokurordan menga savoli bor yoki yo'qligini so'radi.

Prokuror menga qaramay, yelkasidan, mening yana chashma oldiga yolg'iz qaytib kelganimdan maqsad arabni o'ldirish bo'lmaganmikan, raisning ijozati bilan shuni bilmoqchiligini aytdi.

– Yo'q, – dedim.

– Unda nega ayblanuvchida qurol bo'lgan va u nima sababdan ayni shu joyga qaytib borgan?

Men, tasodif bo'ldi, deb javob berdim. Prokuror tishini girih qilib:

– Hozircha yetarli, – dedi.

Keyin qanaqadir chalkashlik kelib chiqdi, har holda, menga shunaqa tuyuldi. Undan keyin sudyalar pichirlashib oldilar va rais tanaffus e'lon qildi; endigi majlisda guvohlarning ko'rsatmalari tinglanadi, dedi.

O'ylab olishga vaqtim bo'lmadi. Meni kengxonadan olib chiqib, mashinaga o'tirg'izdilar, qamoqxonaga yetkazdilar, u yerda ovqatimni yedim. Sal ham o'tmay, juda charchaganimni endi sezgan vaqtim meni yana olib ketishdi: hammasi qaytadan boshlandi: yana kengxonaga kirdim, o'sha yuzlar yana menga tikildi. Faqat battarroq isib ketgan, xuddi mo'jiza bilan paydo bo'lganday maslahatchilar, prokuror, himoyachi va ba'zi muxbirlarning qo'lida bittadan somon yelpig'ich. Yosh muxbir, jikkak ayol

o'sha joylarida o'tiribdilar. Lekin ular yelpingani yo'q va ilgarigiday menga tikilib olishgan.

Peshanamdan quyilayotgan terni artaman, qayerdaman, menga nima bo'lyapti, tushunmay o'tirgan edim, to'satdan g'aribxonada mudirini chaqirayotganlarini eshitib qoldim. Undan onamning mendan shikoyat qilganmi-yo'qligini so'rashdi, u, ha, lekin bu odatdagi ish, hamma istiqomatchilar qarindoshlaridan noliydi, dedi. Rais aniqroq aytishni so'radi: onam g'aribxonaga topshirganim uchun mendan noliganmi, yo'qmi, mudir yana, ha, dedi. Endi boshqa hech qanday gap qo'shmadi. Keyingi savolga u janoza kuni mening bamaylixotirligimga hayron bo'lganini aytdi. Undan «bamaylixotirlik» deganda nimani nazarda tutayotganini so'rashdi. Mudir yerga boqdi va tobutda yotgan onamni ko'rishni istamaganim, bir tomchi ham yosh to'kmaganim, qabr ustida sukut saqlab turmaganim, marhumni qabrga qo'ygandan keyinoq, jo'nab ketganimni aytdi. U yana bir narsaga hayron bo'ldi: dafn mahkamasi xodimining unga aytishicha, men onam necha yoshga kirganini aniq bilmaganman. Hamma bir daqiqa jimib qoldi, keyin rais mudirdan u aytgan gaplarning hammasi men to'g'rimdami-yo'qligini so'radi. U savolni tushunmadi, rais: «Qonun taomili shunday», deb izoh berdi. So'ngra u, guvohga savolingiz yo'qmi, deb prokurorga o'girildi, prokuror xitob qildi:

– E yo'q, shu ham yetib-ortadi.

U men tomonga shunday yonib, shunday g'olibona qaradiki, birdan bu odamlar meni shu

darajada yomon ko'rishlarini his etib, ko'p yildan beri birinchi marta, xuddi tentakka o'xshab yig'lab yuborishimga sal qoldi.

Rais maslahatchilar va himoyachidan menga savollari bor-yo'qligini so'radi, keyin eshikbonni chaqirdi. U bilan ham, boshqalarga o'xshab, boyagi taomil qaytarildi. Guvoh joyga chiqqandan keyin u menga bir qaradi-da, ko'zini olib qochdi. Onamni ko'rishni istamaganim, chekkanim, uxlaganim, sutli qahva ichganimni aytdi. Shu asnoda men kengxonada hayajon kuchayib kelayotganini his qildim va birinchi marta o'zimning gunohkorligimni angladim. Eshikbonni yana qaytadan sutli qahva va sigaret to'g'risida gapirib berishga majbur qilishdi. Prokuror menga mazax qilib qaradi. Shu payt himoyachim mudirdan, siz ham unga qo'shilib chekmadingizmi, deb so'rab qoldi. Lekin prokuror qahrli tusda norozilik bildirdi.

– Sudlanuvchi kim o'zi bu yerda va himoya usullari qanaqa o'zi! Himoyaning ayblov guvohlarini qoralashga urinishi chippakka chiqadi, qaqshatqich ko'rsatmalarning zalvorini yengish uning qo'lidan kelmaydi!

Shunda ham rais eshikbondan bari bir savolga javob berishni talab qildi. Chol dovdirab qoldi.

– To'g'ri, menda ham ayb bor, – dedi, – lekin faqat bu janobning o'zi menga sigaret tutdi, qo'lini qaytarish noqulay edi.

Oxirida mendan, qanday qo'shimcha qilishni istaysiz, deb so'rashdi.

– Hech qanday, – dedim, – guvoh to'g'ri gapiryapti. Unga sigaret tutganim ham rost.

Eshikbon menga hayron bo'lib va hatto minnatdorlik bilan qarab qo'ydi. Sal chaynalib turdi-da va o'zi ham meni qahvaga chorlaganini aytdi. Himoyachi quvonch bilan shovqinladi va maslahatchilarning buni e'tiborga olishlari zarurligini aytdi. Lekin javobiga prokuror momaqaldiriqday gumburladi:

– Shunday, janob maslahatchilar e'tiborga olib qo'yishadi. Chet bir odamning qahva taklif etishi mumkinligi, lekin o'ziga hayot baxsh etgan jasadning oldida o'tirgan o'g'il ana shu qahvani rad etishi kerakligidan xulosa ham chiqaradilar.

Eshikbon o'z joyiga qaytdi.

Perez cholga navbat kelganda, sud ijrochisi uni minbarga qo'ltig'idan suyab olib chiqib qo'ydi. Toma Perez onamni yaxshi bilishi, meni esa faqat bir marta, janoza kuni ko'rganini aytdi. Undan o'sha kuni mening nima qilganimni so'radilar va u javob berdi:

– Tushuning, men qayg'udan ado bo'lgan edim. Qayg'u bilan bo'lib hech narsani ko'rmabman. Men uchun bu eng og'ir qayg'u edi. Hatto hushimdan ketib qoldim. Demak, janob Mersoni ko'rmaganman ham.

Prokuror, hech bo'lmasa, uning ko'zyosh to'kkanini ko'rgandirsiz, deb so'radi. Perez, yo'q, ko'rmadim, dedi. Prokuror ham kerakli gapni aytdi:

– Janob maslahatchilarning buni e'tiborga olib qo'yishlariga to'g'ri keladi.

Biroq shu payt himoyachimning qoni qaynab ketdi. Perezdan, meningcha, haddan ortiq jahl bilan,

unda uning yig'lamay turganini ko'rgandirsiz, deb so'radi. Perez:

– Yo'q, – deb javob berdi.

Kengxonada kulgi ko'tarildi. Himoyachi hirqasining keng yenglarini hilpillatib, baralla xitob qildi:

– Mana, qanaqa ekan bu jarayon! Hammasi to'ppa-to'g'ri va hammasi teskariga burilgan!

Prokuror bo'zarib ketdi, qalamini qog'ozlariga nuqigancha o'tiraverdi.

Besh daqiqaga tanaffus e'lon qildilar, himoyachi menga hammasi yaxshi ketayotganini aytib ulgurdi, undan keyin esa Selestni – himoya tomoni, ya'ni men tomonimdan bo'lgan guvohni chaqirishdi. U goho yakshanba kunlari, ikkovimiz birga poyga tomosha qilgani boradigan kunlarimizda kiyadigan yangi kostyumida edi. Lekin yoqasini qadashni eplolmagan shekilli, mis to'qacha bo'lmasa, ko'ylagining surilib ketishiga bir bahya qolgani ko'rinib turardi. Selestdan unikida ovqatlangani borganim to'g'risida so'radilar, u tasdiqladi va qolaversa, unga do'st ekanimni ham aytdi. Undan men to'g'rimda nima fikrda ekanini so'radilar, u meni odam deb aytdi. Bu nima deganingiz? Nima deyayotganimni hamma tushunadi, dedi Selest. U mening damdo'z, odamovi ekanimga e'tibor qilganmi? Javob o'rniga Selest mening xuda-behuda valaqlayvermasligimni aytdi. Prokuror u ovqatga doim o'z vaqtida to'larmidi, deb savol berdi. Selest kuldi.

– E, bu gapga ham arzimaydi, ikkovimiz doim surishib ketaveramiz.

Undan men qilgan jinoyat haqida nima deb o'ylashini so'radilar. Shunda uning ikki qo'llab to'siqqa tayanib olishidan bu savol javobiga oldindan tayyorlanib turgani ma'lum bo'ldi. U shunday dedi:

– Men shunday hisoblayman, bu baxtsizlik. Baxtsizlik nima, buni hamma biladi. Baxtsizlik qarshisida ojizsan odam. Mana, shuning uchun ham buni baxtsizlik, deb hisoblayman.

U yana davom etmoqchi edi, ammo rais, juda yaxshi, rahmat, dedi. Lekin, baribir, u yana ba'zi narsalarni aytmochiman, deb turib oldi. Undan qisqaroq qilishni so'radilar. U yana mening baxtsizlikka uchraganimni qaytardi. Shunda rais:

– Ha, tushunarli, – dedi. – Lekin biz ham siz aytayotgandaka baxtsizlikni sud qilish uchun bu yerda turibmiz. Rahmat sizga.

Selest shunda endi nima qilishni, yana qanday yordam berishni bilmayotganday, menga o'girildi. Ko'zlari g'iltillab, lablari qaltirayotganday tuyuldi. Ayt, yana nima qilsa bo'ladi, deb so'rayotganday edi. Men unga hech nima demadim, hech qanday ishora ham qilmadim, lekin umrimda birinchi marta erkak kishini bag'rimga bosgim kelib qoldi. Rais yana unga guvohjoyni bo'shatishni buyurdi. Selest joyiga tushdi. Majlis oxirigacha oldinga egilib, ikki tirsagini tizzalariga tirab, panamasini g'ijimlagan ko'yi diqqat bilan eshitib o'tirdi.

Mari kirdi. Uning boshida shlyapa, baribir, yanada chiroyli edi. Lekin menga uning boshyalang yurgani ko'proq yoqadi. Men hatto uzoqdan turib ham uning siynalari qanday dirkillayotganini

tuydim, doim salgina turtib turadigan tanish lablarini ko'rdim. Mari juda hayajonlanayotganga o'xshadi. Shu zahotiy oq undan meni qanchadan beri bilishini so'radilar. U, mahkamada birga ishlaganimizdan, deb aytdi. Rais munosabatimiz qanday bo'lganini bilgisi keldi. Mari men bilan do'st ekanini aytdi. Keyingi savolga esa, ha, to'g'ri, unga turmushga chiqmoqchi edim, dedi. Prokuror qog'ozlarini varaqlab turib, to'satdan qachon aloqamiz boshlanganini so'rab qoldi. Mari oy bilan kunini aytdi. Prokuror yuziga loqayd tus berib va yanglishmasam, shundan bir kun oldin uning onasini ko'mishgan, deb eskartish berdi. Keyin achchiq iljayib, Mariga noqulay ekanini tushunayotgani, unga qolsa, bu mavzuda boshqa gapirishni istamasligi (shu o'rinda uning tovushi keskin jarangladi), lekin zimmasidagi burch – hamma narsadan yuqori ekanini qo'shimcha qildi. Va Maridan biz birga yotgan o'sha kunni batafsil aytib berishni talab qildi. Mari gapirishni istamadi, ammo prokuror aytganida turib oldi, keyin Mari ikkovimiz qanday birga cho'milganimiz, kinoga tushganimiz va so'ngra o'zining menikiga borganini aytib berdi. Prokuror Marining tergovda bergan ko'rsatmalaridan keyinoq o'sha kuni qanday kartina qo'yilganini aniqlab olganini aytdi. Lekin o'shanda qanday film qo'yilganini Marining o'zidan eshitmoqchi ekan. Mari eshitar-eshitilmas Fernandel o'ynagan filmning nomini tilga oldi.

U aytib bo'lgach, kengxonaga o'lik sukunat cho'kdi. Shunda prokuror o'rnidan turdi, uning yuzi juda ham jiddiy, tovushida samimiy titroq borday

tuyuldi menga, u men tomonga barmog'ini nuqib, sekin xitob qildi:

– Muhtaram maslahatchilar, bu odam bir kun oldin onasini ko'mib, ertasi kuni qumloqqa cho'milishga borgan, u yerda o'ynash orttirgan va shod-xurram tomoshaga tushgan. Sizga bundan ortiqcha gap aytolmayman.

U o'tirdi, kengxona hali ham sukutda edi. Birdan Mari o'krab yig'lab yubordi va bu yerda meni majburlab, o'ylaganimdan boshqa gaplarni aytirishdi, uni juda yaxshi bilaman, hech qanaqa yomonlik qilgani yo'q, deya gapirib ketdi. Lekin rais ijrochiga imo qildi, u Marini olib ketdi va majlis davom etaverdi.

Shundan keyin Masonni, uning meni halol, «bundan tashqari, vijdonli» odam, deb dalolat etishini hech kim tuzukroq eshitmadi. Itiga qanday g'amxo'rlik qilganimni ayta boshlagan, onasiga qanday munosabatda edi, degan savolga, ikkovining gaplashadigan gaplari ham tugagan edi, shuning uchun ham onasini g'aribxonaga berdi, deb javob qilgan Salamano cholni hech kim yaxshiroq eshitmadi.

– Tushunish kerak, – deb turib oldi Salamano, – tushunish kerak.

Lekin hech kim tushunmagani ko'rinib turardi. Uni ham olib chiqishdi. Keyin oxirgi guvoh – Raymonning navbati keldi. U menga sal belgili bosh irg'ab qo'ydi-da va shu zahoti gunohim yo'qligini dalolat qildi. Lekin rais guvohning burchi – xulosa chiqarish emas, voqeani aytib berish, uning ishi



– savollarga javob berish, dedi. U o'ldirilgan arab bilan qanday munosabatda bo'lgan? Raymon bu savoldan foyda chiqarishga urindi, o'ldirilgan odamning dushmani aslida mana, o'zi ekanini, chunki uning singlisiga shapaloq urgani, shundan keyin akasi uni yomon ko'rib qolganini aytdi. Lekin rais o'ldirilgan arabning meni yomon ko'rishga ham sabab bor-yo'qligini so'radi. Raymon mening qumloqqa borib qolganimni g'irt tasodif, dedi. Shunda prokuror hamma fojiga sabab bo'lgan xat nima qilib men tomonimdan yozilib qolganini so'radi. Raymon buni ham tasodif, dedi. Prokuror e'tiroz qildi: bu voqeadagi hamma ayb negadir tasodifning boshiga tushyapti. U yana bir narsani bilishga qiziqdi: Raymon o'ynashiga shapaloq tortganda mening ajratib qo'ymaganim – bu ham tasodifmi? Mirshabxonaga tasodifan guvoh bo'lib borganmikanman? Ko'rsatmalarim bilan Raymonni har jihatdan qo'llaganim – bu ham tasodifmi? Oxirida u Raymonning nima hisobiga tirikchilik qilishini so'radi. Raymon «Omborchiman», deb javob qildi va prokuror shunda maslahatchilarga o'girildi: bu guvohning juda boshqacha kasbi borligi hammaga ma'lum, u – qo'shmachi. Men esa uning do'sti va hamtovog'iman. Demak, bu o'rinda qabohatga yo'g'rilgan tuban bir fojia kelib chiqqan va sud ro'parasidagi odam rasmona jinoyatchi emas, balki vijdoni va nomusini yo'qotgan razil bir kimsa. Raymon o'zini oqlashga urindi, himoyachim ham norozilik bildirdi, lekin ularga prokurorning gapi tugaguncha jim turish buyurildi.

– Boshqa aytadigan gapim qolmadi hisob, – dedi prokuror va Raymondan so‘radi:

– Sudlanuvchi sizga og‘aynimidi?

– Ha, – dedi Raymon, – mening do‘stim u.

Prokuror menga ham shu savolni berdi, men Raymonga qaradim, u ko‘zini olib qochmadi.

– Ha, – dedim.

Shunda prokuror maslahatchilarga o‘girilib, xitob qildi:

– Mana, onasi o‘lganining ertasi kuni sharmandalarcha buzuqlik qilgan ham shu odam, iflos, axloqsiz bir janjalga chek qo‘yish uchun, arzimagan bir sabab bilan odam o‘ldirgan ham shuning o‘zi.

Prokuror o‘tirdi. Lekin himoyachim chidab turolmadi, qo‘llarini hayajon bilan tepaga ko‘targan edi, hirqasining keng yenglari pastga tushib, hatto kraxmallangan ko‘ylagining qatlarigacha ochilib qoldi.

– Axir, uni nimada ayblashyapti o‘zi, – deb qichqirib yubordi u, – odam o‘ldirganidami yo onasini ko‘mganidami?!

Kengxonada kulgi ko‘tarildi. Lekin prokuror yana qad rosladi va hirqasiga burkanib, bu ikki xil hodisa orasidagi chuqur, aqlni lol qoldiradigan chambarchas bog‘lanishni ko‘rmaslik uchun muhtaram himoyachidek anoyi bo‘lish kerak, dedi.

– Ha, – deb u tantanavor xitob qildi, – men bu odamni onasini ko‘mgan kuni ko‘nglida jinoyatchi bo‘lganida ayblayman!

Uning so‘zlari odamlarga juda katta ta‘sir qilganga o‘xshadi. Himoyachi kiftini qisib qo‘ydi,

pešanasiga ko'pchigan terlarini artdi. Uning o'zi ham dovdirab qolganga o'xshadi va o'zim ham shunda ish men uchun chappasiga ketayotganini angladim.

Shundan keyin hammasi tezlashdi. Majlis yopildi. Meni sud binosidan olib chiqib, mashinaga o'tqazishayotgan paytda yoz oqshomining iliq havosidan to'yib nafas oldim, uning ifori, bo'yoqlarini tuydim. Keyin, g'ildirakli zimiston hibsxona ichida borayotib, horg'inlik aralash qadrdon shaharning o'zim doim yaxshi ko'radigan g'ala-g'ovurini, ko'nglim ochiq va xotirjam paytlarimda juda yoqtiradigan tovushlarni eshitdim. Kunduzgi suron ancha bosilgan, gazetfurusnlarning qichqirig'i, xiyobonlarda uyquga ketayotgan qushlarning o'chayozgan chiyillashlari, sandwich sotayotganlarning xaridor chorlashi, keskin burumda tramvaylarning shikoyatomuz g'iyqillashi, tun qoplanishi arafasida bandargohga xuddi osmondan quyilib tushayotgandek tuyuladigan notinch g'uldirashni aniq-aniq eshitdim – ozod paytlarimda bunaqa bilgilar bilan ko'zimni yumib ham yo'lni topib boraverar edim. Ha, ayni shu soatlarda o'zimni juda yaxshi va xotirjam his qilardim. Hozir meni betashvish, tushimga hech narsa kirmaydigan uyqu kutayotir. Lekin endi nimalardir o'zgarib ketdi va meni faqat ertangi kunni qarshilash istagi emas, yana yakkaxona ham kutayotgan edi. Go'yo yoz osmoniga bilgi qilib qo'yilgan bu tanish yo'llar meni faqat osoyishta uyquga emas, balki qamoqxona panjaralariga ham yetaklab boradi.

## IV

Hatto qora kursida o'tirganda ham odamlar o'zing haqingda nima deyayotganlarini eshitish qiziq bo'ladi. Prokuror bilan himoyachi o'z nutqlarida men to'g'rimda, ha, qilgan jinoyatimdan ko'ra, ko'proq o'zim haqimda bisyor mulohaza yuritdilar. Ikkovining nutqi o'rtasida deyarli farq ham yo'q edi. Himoyachi qo'llarini ko'kka cho'zdi, meni aybdor, lekin shafqatga arziydi, deb ishonch bildirdi. Prokuror qo'llarini paxsa qildi, meni aybdor va tariqcha ham shafqatga arzimaydi, deb ayyuhannos soldi. Menga faqat bir narsa sal-pal noqulay bo'ldi. Har qancha o'yga cho'mmay, baribir, har zamonda gap qo'shgim keldi, lekin har gal himoyachi:

– Jim turing! O'zingizga yaxshi bo'ladi, – deb izn bermadi.

Shunday bo'lib chiqdiki, mening ishimni meni aralashtirmay ko'rishdi. Hamma narsa mening ishtirokimsiz bo'ldi. Taqdirim hal qilinyapti, lekin mendan hech kim o'zing bu haqda qanday fikrdasan, deb so'ramadi. Ba'zan ularning gapini bo'lib: «Aytinglar-chi, aybdor, oxir-oqibat, kim o'zi? O'zingni ayblashsa, qarab turasanmi?», demoqchi ham bo'ldim. Lekin chuqurroq o'ylasam, aytadigan gapim yo'q ekan. Qolaversa, odamlarning sen bilan shug'ullangani qiziqarli mashg'ulot bo'lsa ham, tezda ko'ngilga urib qolar ekan. Deylik, prokurorni tinglashdan charchab ketdim. Har zamonda uning uzuq-yuluq biron gapi yo o'zimni hayron qoldirgan, diqqatimni tortgan biron bir xitobi, ishorasini aytmasa, eshitmadim hisob.

Tushunishimcha, uning fikrlaridan meni ilgari ataylab o'ylangan reja bilan odam o'ldirgan, degan ma'no kelib chiqadi. Har holda, u shunday deb isbotlashga urindi. Uning o'zi shunday deb aytdi:

– Men buni isbotlayman, janob sud maslahatchilari, ikki vosita bilan: avval faktlarning charog'on yoritilishi bilan, so'ngra bu jinoyatkor ko'ngilning sirli puchmoqlarini tahlil qilganda paydo bo'ladigan mudhish nurlari bilan isbotlab beraman.

U onam o'lgandan keyin nima o'tgan bo'lsa – hamma faktlarni yana sanab chiqdi. O'zimni beg'am tutganim, onamning necha yoshdaligini aytolmaganim, ertasi kuni esa ayol bilan birga cho'milganim, kinoda komediya ko'rganim, Marini uyga olib borganimni takror eslatdi. U hadeb «o'ynashi», «o'ynashi» deyaverdi, men boshda tushunmadim, Mari esa men uchun faqat Mari edi. Keyin u Raymon bilan bo'lgan tarixga ko'chdi. Uning tasvirlashida hamma narsa bir-biriga bog'liq bir tus olganini aytib o'tish kerak. U nimani gapirgan bo'lsa, hammasi to'g'riday ko'rinardi. Men Raymon bilan reja tuzib, o'ynashini mazkur «ahloqi shubhali» sub'yekt changaliga tushirish uchun xat yozib berganman. Men qumloqda Raymonning harifi bilan janjal chiqarganman. Raymonni yarador qilishgan. Men uning to'pponchasini olganman. Qurol ishlatish uchun qaytib borganman. O'sha arabni o'ldirish maqsadida borganman. Bir marta otganimdan keyin kutib turganman. Keyin esa

«ishning puxta qilinganidan» ko'nglimni tinchitish uchun, qanaqadir o'ylab qo'yilgan reja bo'yicha – shoshilmay, ishonch bilan unga yana to'rtta o'q uzganman.

– Mana shunday, janoblar, – deb davom ettirdi prokuror. – Men bu odamni ataylab, sovuqqonlik bilan qilingan qotillikka boshlab kelgan voqealar tarixini aytib berdim. Qaytaraman va o'z fikrimda qat'iy turaman: bu o'rinda reja bo'lgan. Bu – jahl ustida amalga oshirilgan oddiy qotillik emas, aybini yumshatsa bo'ladigan, kutilmaganda qilingan jinoyat emas. Qarshingizda, janoblar, keragicha aqlli odam o'tiribdi. Uning gaplarini eshitdingiz, to'g'rimi? Savollarga javob berishni qotirdi. U har bir so'zining bahosini biladi. Va o'zini idora qilolmay ish tutgan deb aytolmaymiz.

Xullas, meni aqlliga chiqarishdi. Lekin men oddiy odamlarga fazilat hisoblanadigan xislatning nima uchun jinoyatchiga kelganda qaqshatqich dalil bo'lishini sira tushunolmadim. Shundan hayratga tushdim va uning:

– Jilla qurmasa, u afsus qilyaptimi? Go'yo hech narsa bo'lmaganday! Tergov davom etgan shuncha vaqt ichida biron marta bu odamning o'z qilmishiga sal-pal bo'lsa ham pushaymon bo'lganini eshitmadik, – degan gapi qulog'imga yetib kelguncha, uni eshitmay qo'ydim.

Shu asnoda u men tomonga o'girilib, barmog'ini bigiz qildi-da, qaytadan hujumga o'tdi, nega bunaqa qilayotganini, ochig'i, tushunish qiyin edi. Albatta, uning qisman haq ekanini tan olmay ilojim yo'q. Ha,

men qilmishimga uncha ham afsus qilmadim. Lekin, baribir, uning menga bu qadar g'azab bilan yopishib olishi g'alati tuyulardi. Men unga o'zimning biron narsa xususida hech qachon haqiqiy pushaymon bo'lmaganimni jon-jon deb, juda samimiy va do'stona qilib tushuntirishga tayyor edim. Meni doim oldinda turgan, bugun va ertaga bo'ladigan narsalar o'ylantiradi. Lekin, albatta seni qora kursiga o'tkazganlaridan keyin hech kim bilan bunaqa ohangda gaplashib bo'lmaydi. Men do'stona, samimiy gaplashish huquqidan mahrumman. Yana tinglashga urindim, chunki prokuror mening qalbim haqida mulohaza yuritishga o'tdi.

U, men uning ko'ngliga juda diqqat bilan tikildim, lekin hech vaqo topmadim, muhtaram sud maslahatchilari, dedi. Chindan ham, uning aytishicha, menda hech qanaqa qalb yo'q, insoniy hech narsa yo'q, inson qalbini gunohdan asraydigan axloqiy aqidalardan tamomila mahrumman.

– Hech shubhasiz, – deb qo'shimcha qildi u, – biz buni unga ayb sifatida qo'yishimiz kerak emas. O'zi egallay olmagan narsaning yo'qligi uchun uni ayblash mumkin emas. Lekin bu yerda, sudda, kechirimlik, rahmdillik – sust olijanoblik o'z o'rnini qiyinroq, biroq yuksak olijanoblikka – ayni adolatparvarlikka bo'shatib berishi lozim. Chunki bu odamning qalbidagi sahro tubsiz o'pqqon bo'lib yorilib, jamiyatimizni tutib turgan hamma narsani yutib yuborish xavfini solayotir.

Shu asnoda u mening onamga munosabatim haqida gapirdi. Oldin aytgan gaplarini qaytardi.

Lekin bu gal, jinoyatimni gapirganidan ko'ra so'zamolroq bo'lib ketdi – shu qadar gapni ezdiki, oxiri issiqdan boshqa hech narsani sezmay qoldim. Ishqilib, to prokuror gapdan to'xtab, bir oz sukut qilgach, yana qayta, endi juda sekin, chin yurakdan:

– Janob maslahatchilar, ertaga xuddi shu sud yovuzlikning eng razili – padarkushlikni ko'rib chiqadi, – degan gapni aytguncha shu alpozda o'tirdim.

Bunaqa yovuzlik, dedi u, sira aqlga sig'maydi. U insoniy sud jinoyatchiga shafqatsiz jazo berishiga umid qilishga jur'at etadi. Lekin u hatto bunday mudhish jinoyatdan ham mening toshbag'irligimni ko'rganchalik dahshatga tushmaganini qo'rqmay aytadi. U shunday yondashadi: toshbag'irligi bilan o'z onasini o'ldirgan odam otasiga jinoyatkorona qo'l ko'targan odam bilan bab-baravar insoniyatdan yuz o'giradi. Har holda, birinchisi ikkinchisining qilmishlariga yo'l ochib beradi va ma'lum ma'noda, bu qilmishlarga boshlang'ich bo'lib, ularni muqarrar qilib qo'yadi.

– Janoblar, – dedi prokuror ovozi bir parda ko'tarib, – agar men hozir qora kursida o'tirgan odam, ertaga siz ko'rib chiqadigan qotillikda ham aybdor deb aytsam, bu fikrni haddan oshiq deb topmasligingizga ishonchim komil. Va uni shu qilmishiga munosib tarzda jazolash lozim bo'ladi.

Prokuror terga botgan yuzini artdi. Xulosasida u zimmamdagi burch juda mashaqqatli, lekin bu burchni qat'iyat bilan ado etaman, dedi. Men eng muhim aqidalarini tan olmaydigan bu jamiyatda



menga o'rin yo'q, inson ko'nglining eng oddiy qo'zg'alishlari ham menga yot ekanmi, demak, rahm-shafqat kutishdan ham mahrum ekanman.

– Men sizdan uning boshini talab qilaman, – dedi u, – bu talabni toza vijdon bilan qilaman. Shu sohada talay vaqt ter to'kdim, bir necha marta o'lim jazosi talab etishimga to'g'ri keldi, lekin hech qachon burch mashaqqati bunchalar qasosli bo'lmagan, muvozanatga kelmagan, hokimona va muqaddas zarurat nurida yorishmagan va men qiyofasidan bironta insoniylik belgisi topolmagan maxluqni ko'rganda dahshatga tushganimchalik oydinlashmagan edi.

Prokuror joyiga o'tirgandan so'ng uzoq daqiqqa jimlik cho'kdi. O'zimni aytsam, issiqdan, hayronlikdan garang bo'lib qolgan edim. Rais yo'talib olgach, juda sekin ovozda mendan biron qo'shimcha qilishni istamaysizmi, deb so'radi. O'rnimdan turdim – gapirgim kelayotgan edi (to'g'ri, sal uzuq-yuluq bo'ldi) sira o'sha arabni o'ldirish niyatim yo'q edi, dedim. Rais, bu dalilsiz izoh, dedi. Mening himoyam shu paytgacha nimaga asoslanganiga aqli yetmayotgani va advokatimni tinglashdan oldin, qanaqa niyatda ish ko'rganimni o'zimdanda eshitmoqchiligini aytdi. Gapim tuturiqsiz chiqishini tushunib tursam ham, shosha-pisha, tutulinqirab: hammasi quyoshdan bo'ldi, dedim. Kengxonada kulgi eshitildi. Advokatim kiftini qisdi va shu zahoti unga so'z berishdi. Lekin u endi kech bo'lgani nutqi bir necha soatni olishini aytib, so'zini tushdan keyingi majlisga o'tkazishlarini so'radi. Sud rozilik bildirdi.

Tanaffusdan keyin bahaybat ventilyatorlar sud kengxonasida dimiqib qolgan havoni yana o'shanday shopirishga tushdi, sud maslahatchilarining kichkina chipor yelpig'ichlari yana o'shanday hilpiray boshladi, nazarimda, himoyachining gapi sira tugamaydiganday edi. Ora-sira eshitgan bo'lsam kerak, har holda:

– Ha, bu haqiqat, men o'ldirdim, – degani qulog'imga chalindi.

U xuddi shu ohangda davom ettirdi – nutqi men haqimda ketyapti-yu, u esa har gal «men» deydi. Juda hayron qoldim. Mirshabga egilib, nega bunday deyayotganini so'radim. U menga jim o'tiring, deb buyurdi-da, saldan keyin:

– Advokatlar doim shunaqa gapiradi, – deb qo'shib qo'ydi.

Shu yo'l bilan meni ishdan chetlashtirib, yo'qqa chiqarishayotir va, ma'lum ma'noda, boshqa odam bilan almashtirishyapti, deb o'yladim. Lekin, bu kengxonada bo'layotgan hamma narsadan juda uzoqda yurganga o'xshayman. Hatto himoyachi ham kulgili tuyuldi. U mening yo'ldan ozish, vasvasa bilan harakat qilganimni shosha-pisha eslatdi-da, keyin qalbim haqida fikr yuritishga o'tdi. Lekin, meningcha, prokuror unga qaraganda iste'dodliroq gapirgan edi.

– Men ham bu qalbgga sinchiklab nazar soldim, – dedi himoyachi, lekin prokuraturaning ko'p hurmatli vakilidan farqli o'laroq, men u yerdan u-bu narsalarni topdim va xuddi ochiq kitobni o'qiganday, bu qalabda nimalarni ko'rganimni aytib berishim mumkin.

U qalbidan mening halol inson, tolmas, tirishqoq mehnatkash, o'zim xizmat qilgan firma manfaatlariga sodiq, begonalarning dardiga sherik va atrofdagilarning muhabbatini qozongan odam ekanimni o'qibdi. Uning fikricha, men ibratli o'g'il va so'nggi imkongacha onamning suyanchig'i bo'lganman, onamni ozgina maosh bilan yaratib berolmagan qulaylik va xotirjamlikni u yerda topar, degan umidda g'aribxonaga berganman.

– Shu qariyalar g'aribxonasi atrofida shuncha ayyuhannos solinayotganiga men juda hayronman, janob sud maslahatchilari, – deb qo'shimcha qildi himoyachim, – zotan, agar shunday muassasalarning foydaligi va oliyhimmatligini isbotlash lozim ko'rilsa, ularga davlatning o'zi rag'bat berayotganini eslatib qo'ymoqchiman.

U faqat janoza to'g'risida gapirmadi va men uning nutqida shu joy bo'sh ekanini tushundim. Lekin bu uzundan-uzoq jumlar, qalbim haqida mulohaza yuritganlarida sira tugamaydiganday tuyulgan soatlarning hammasidan, go'yo barini loyqa suv bosganday bo'lib, boshim aylana boshladi.

Faqat oxirida, himoyachim hali ham nimanidir uqtirayotgan paytda, qandaydir ko'chadan, sud binosining barcha devorlari-yu va kengxonasidan sizib kirib, qulog'imgacha yetib kelgan burg'i tovushini – muzqaymoqfurushning aravachasi o'tib qolganini eslayman. Va shunda endi men mahrum bo'lgan, ilgorigi yoz iforlari, suyukli ko'chalar, shom osmonining bo'yoqlari, Marining kulgisi, uning ko'ylagi kabi eng mayda va eng aniq quvonchlarni

hadya qilgan hayotning xotiralari yopirilib keldi. Bu yerda, kengxonada ma'nisiz, befoyda qo'qqayib o'tirish jonimdan to'ydirib yubordi va bir narsani – hammasi tezroq tugab, tezroq hibsonaga qaytib, uxlab olishni istab qoldim. Himoyachi oxirida, albatta, maslahatchilar qisqa muddatga aqlini yo'qotganidan shu kulfatga uchragan halol bir mehnatkashni o'limga yo'llashni istamaydilar, deb xitob qilgani ham zo'rg'a qulog'imga kirdi. Aybni yumshatadigan holatlarni e'tiborga olinishi kerak, chunki men uchun eng og'ir jazo – mangu vijdon azobi bo'lib qoladi. Sud maslahatlashib olgani ketdi, himoyachim esa, majoli quriganday, joyiga o'tirib oldi. Lekin shu asnoda uni hamkasblari o'rab, qo'lini qisib, tabriklay boshladilar.

– Juda zo'r chiqdi, azizim, – deb aytishdi unga.

Hatto bittasi meni shohidlikka ham tortdi.

– Qanday? – dedi u menga.

Men, nutq zo'r bo'ldi, deb unga qo'shildim, lekin uncha ko'ngildan chiqarib aytmadim, chunki juda charchagan edim.

Bu orada ko'chada kun o'chayotgan, kengxona ham ilgarigiday issiq emas edi. Onda-sonda tashqaridan eshitilgan tovushlarga qarab, mayin, salqin oqshom kirayotganini tuydim. Hammamiz kutib o'tirardik. Lekin birga kutayotgan narsamiz faqat menga tegishli edi. Men yana kengxonaga qaradim. Surrang pijjakli muxbir bilan avtomatxotinning nigohiga duch keldim. Va shuncha vaqtdan beri Mariga qaramaganimni esladim. Uni unutganimdan emas, balki juda band edim. Uni

Raymon bilan Selestning o'rtasida ko'rdim. U menga xuddi, – mana, nihoyat! – deganday, sekingina bosh iring'adi va juda tashvishga tushganiga qaramay, jilmayib qo'ydi. Lekin ichimdagi hamma narsa tosh qotganday edi, hatto unga javoban jilmayishga ham chog'im kelmadi.

Sud qaytib kirdi. Maslahatchilarga tez-tez bir nechta savol o'qib berildi. Uzuq-yuluq eshitdim: «Qotillikda ayblanadi...», «vasvasa...», «aybni yengillashtiradigan holatlar...» Maslahatchilar chiqib ketishdi, meni boshda majlisni kutib o'tirgan joyimga, o'sha hujraga olib kirdilar. Himoyachi ham shu yerga keldi. Uning og'zi tinmas, menga o'zini ilgarigidan ham yaqin tutib, do'stona gapirdi. U hammasi yaxshi bo'lishiga, mening bir necha yillik qamoq yoki katorga bilan qutulishimga hisob qilayotgan ekan. Men undan, agar hukm juda yomon chiqsa, ishni qayta ko'rishlariga umid bormi, deb so'radim. U, yo'q, dedi. Uning usuli oldindan xulosa chiqarmaslikka qurilgan, chunki bunday qilsa, maslahatchilar battar to'nini teskari kiyadi. Bunaqa ish ustidan chiqarilgan hukmni jiddiy asos bo'lmasa, hech kim qayta ko'rmaydi, deb tushuntirdi u. Bu menga juda ravshan edi, uning fikriga qo'shildim. Chuqur o'ylab ko'rilsa, aqlli yo'l tutilgan. Bo'lmasa, xudabehudaga qog'ozbozlik urchib ketadi.

– Har holda, – dedi himoyachi, – afv so'rab ariza berib qo'ygan ma'qul. Lekin ishonaman: oxiri yaxshi bo'ladi.

Biz juda uzoq, taxminan chorakam bir soatcha kutib qoldik. Keyin qo'ng'iroq chalindi. Himoyachi eshikka yo'l oldi.

– Hozir maslahatchilar oqsoqoli savollarga berilgan javoblarni o'qiydi, – dedi u chiqayotib.  
– Sizni hukm o'qiladigan payt kelsa, shunda olib chiqishadi.

Qaydadir eshik ochilib yopildi. Zinapoyada – bilmadim, yaqindami, uzoqdami – odamlar yugurdi. Keyin kengxonadan bo'g'iq tovush eshitildi, bu tovush nimanidir o'qidi. Yana qo'ng'iroq jiringladi, meni qora kursiga olib o'tishdi va kengxonadan menga tomon sukunat – g'alati, misli yo'q bir sukunat yopirilib keldi va men battarroq hayratga tushdim – yosh muxbir mendan ko'zini olib qochdi. Mari tomonga qaraganim yo'q. Ulgurmadim, chunki rais menga qanaqadir balandparvoz iboralar bilan fransuz xalqi nomidan ochiq maydonda boshimni tanimdan judo qilinishini aytdi. Men go'yo hammaning yuzidan bitta-yu bitta tuyg'uni uqayotgandek edim. Shunday, albatta, endi hamma menga hurmat bilan qarayotgan edi. Mirshablar juda shirinsuxan bo'lib qoldi. Advokat qo'ltig'imdanda tutdi. Men boshqa hech narsani o'ylamadim. Lekin sud raisi biron-bir qo'shimcha gap aytishni istamaysizmi, deb so'radi. Men bir oz o'ylab turdim. Va:

– Yo'q, – dedim.

Shunda meni olib ketdilar.

Qamoqxonada kashishi bilan gaplashishdan uchinchi marta bosh tortishim. Mening unga aytadigan gapim yo'q, u bilan gaplashishni istamayman, shusiz ham ko'p o'tmay uning o'zini ko'raman. Hozir men faqat bir narsa bilan bandman: bu mashinadan qutulib qolsa bo'ladimi, muqarrar qismatga chap berish iloji bormi. Meni boshqa bo'lmaga o'tkazishdi. Bu yerdan, yotib qarasang osmon – faqat osmon ko'rinadi, boshqa narsa – yo'q. Kuni bilan osmon yuzida kunni tunga aylantirayotgan bo'yoqlarning unniqishini tomosha qilib yotaman. O'linga hukm etilgan odamlarning birontasi beshafqat mexanizmga chap berganmikan, deb o'zimdan o'zim necha martalar so'raganimni aniq bilmayman. Ilgarilari qatl haqidagi hikoyalarni tuzukroq eshitmay bekor qilgan ekanman. Bunaqa narsalarni bilib qo'yish kerak. Nima bo'lishini oldindan bilmaysan, axir men ham boshqalarga o'xshab ro'znoma xabarlarini o'qib yuraverganman. Lekin, shunaqa narsalarni bosadigan maxsus nashrlar ham bordir, men esa ularga biron marta qiziqmabman. Kim biladi, ularda qamoqdan qochish haqidagi hikoyalar ham uchrab qolarmidi. Balki men, jilla qursa, bir martagina g'ildirak yarim yo'lda to'xtab qolganini, biron martagina tasodif va omad yor bo'lib, voqealarning muqarrar yo'nalishini o'zgartirib yuborganini bilib olarmidim. Hech bo'lmasa, bir

marta! Qay bir ma'noda, o'ylaymanki, menga shuning o'zi kifoya edi. Qolganining hammasini yurakning o'zi qilardi. Ro'znomalar, jamiyat jinoyatchiga hisob ochadi, deb tez-tez yozib turadi. Shu hisob bo'yicha javob berish kerak bo'larmish. Lekin bu gap hech narsani anglatmaydi. G'oyib bo'lish, shafqatsiz marosim changalidan qutulish imkoniyati, shuncha umidlarga yetaklaydigan qochishga iloj – eng muhimi ham shu. Aslini olganda, seni bir muyulishda qo'lga tushirishlari, o'lasini qilib kaltaklashlari yoki qochayotganingda otib tashlashlarigagina umid qilish mumkin, xolos. Lekin, hammasini aql tarozisiga solib ko'rsa, men bunaqa emin-erkinlikdan benasibman, hammasi menga qarshi qaratilgan, bu mashinadan qutulish yo'li yo'q.

Har qancha o'ylamay, bu yalang'och haqiqatga bo'yin egishni istamasdim. Chunki hukmni keltirib chiqargan sharoit bilan hukm e'lon qilingan daqiqadan boshlab muqarrar yaqinlashib kelayotgan muddat o'rtasida qanaqadir bema'ni uzilish bor edi. Hukmni kechqurun soat sakkizda e'lon qildilar, lekin uni soat beshda o'qishlari, u boshqacha bo'lishi ham mumkin edi, uni dunyodagi hamma qatori ichkiyimlarini o'zgartiradigan odamlar chiqardi va qanaqadir juda mujmal narsaning nomidan – fransuz (a, nega nemis yo xitoy emas) xalqining nomidan ma'lum qilindi – bularning hammasi menda bunaqa qaror qanaqadir yuzaki degan tasavvur uyg'otadi. Va lekin, shu qaror chiqarilgan daqiqadan boshlab uning kuchga kirishi



xuddi men hozir butun vujudim bilan suyanib turgan devorday sezimli va aniq-ravshan bo'lib qolganini tan olmay ham ilojim yo'q.

Shunaqa damlarda men onamning otam to'g'risida aytgan bir hikoyasini esladim. Otamni bilmaganman. Bu odam haqida, ochig'i, onamning o'shanda aytgan gaplaridan boshqa narsani bilmayman: u bir kuni qatlni tomosha qilishga boribdi. Hatto o'sha yoqqa borishni o'ylaganda ham ko'ngli ozib ketgan ekan. Lekin, baribir, boribdi, qaytgandan keyin esa, ertalabgacha qayt qilibdi. Shu hikoyadan keyin otam haqida o'ylash ham yoqimsiz bo'lib qolgan edi. Endi tushunsam, bu juda tabiiy ekan. Ilgari qanday qilib aqlimga sig'dirolmagan ekanman – axir, bu dunyoda qatldan ham muhimroq narsa yo'q-ku, ma'lum ma'noda, faqat ugina e'tiborga loyiq. Agar vaqti-soati yetib, biron kuni qamoqdan chiqsam, hamisha qanday qatl etishlarini tomosha qilishga boraman. Qolaversa, bu haqda o'ylashning foydasi ham yo'q. Chunki birgina o'zimni, mana, erta tongda soqchilar safining u yog'ida, narigi tomonda, tomoshaga kelib, ko'rgandan keyin ichi ag'darilib qayt qiladigan oddiy tomoshabin o'rniga qo'yib ko'rishim bilanoq yuragimga zaharlangan to'lqinday shodlik gupurib kiradi. Yo'q, hech aqlga to'g'ri kelmaydi. Bunaqa o'yga borishim behuda, chunki shu zahoti menga muzday qahraton ufurib, adyolnig tagida g'ujanak bo'lib olar edim.

Lekin, tushunarli, odam doim birday mulohazakor bo'lolmaydi. Ba'zan, masalan, yangi

qonunlarni o'ylab chiqarar edim. Jazo tartibini o'zgartirardim. Meningcha, eng muhimi – hukm etilgan odamga jindaygina umidga imkon berish. Mayli, mingdan bittaning omadi chopsin – shu ham kifoya. Deylik, mijozni (o'zimcha shunaqa deb atadim: mijoz) o'ndan to'qqiz imkonda o'ldiradigan kimyoviy dori qilinsa. Bitta sharti bor – mijoz buni bilsin. Chunki men jiddiy mulohaza yuritib, hammasini xotirjam o'ylab, taroziga solib, gilotinaning nimasi yomonligini tushundim – u hech qanday umidga uchqun ham qoldirmaydi. Birinchi daqiqadayoq mijozning o'limi tamomila va uzil-kesil hal bo'ladi. Bunda hammasi qat'iy, mustahkam, bir karra va manguga belgilab qo'yilgan. Orqaga qaytish mumkin ham emas. Agarda biron mo'jiza yuz berib, pichoq to'xtab qolsa, hammasi qaytadan boshlanadi. Shuning uchun ham – alam qiladi odamga – hukm qilinganning o'zi mashinaning shaxd ishlashini tilashga majbur. Men buni kamchilik dedim. Qay bir ma'noda xuddi shunday. Lekin, boshqa bir ma'noda olsang, a'lo bajariladigan ishning sir-asrori ham shunda. Mahkum odam o'zini qatl qiladiganlarning sherigiga aylanadi. Ishning silliq, bexalal ketishi uning foydasiga bo'lib qoladi. Yana men oldinlari bular haqida noto'g'ri tasavvurda bo'lganimni ham tan olmay ilojim yo'q. O'zim ham bilmayman, ko'p vaqtgacha gilotina maxsus supada turadi, unga zinadan chiqib borish kerak bo'ladi, deb yurgan ekanman. Bu tasavvur 1889-yilgi inqilobdan qolgan bo'lsa kerak, chunki maktabda menga shunday deb

o'rgatishgan, rasmlarda ham shunaqa chizilgan. Lekin bir kuni ertalab gazetada shov-shuv qilingan qatlgaga taalluqli bir surat ko'rganimni eslab qoldim. Hech qanaqa supa yo'q, mashina shundoqqina yerda turgan edi. U men o'ylagandan keng ham emas. Buni oldin bilmaganim nash'a qildi. Suratdagi mexanizm o'zining mukammalligi bilan hayratomuz, har jihatdan aniq-puxta ishlangan bir yaltiroq asbobning o'zginasi edi. Endi esa, aksincha, hammasi judda oddiy: mashinaning unga qarab borayotgan odam bilan bir tekislikda o'rnatilganiga ishonch hosil qildim. Unga xuddi qadrdon ko'chadan o'tib borayotganday yaqinlashasan. Qay bir ma'noda, shunisi alam qiladi. Supaga ko'tarilasan, osmonga balandlaysan – xayolga erk bersa bo'ladi. Ammo bunisida qanaqadir mexanizm seni xo'rlaydi – u tinchgina, kamtarlik bilan, sal xijolatga tushganday va bexato o'ldiradi.

Yana men ikkita xira fikrdan – tong bilan afv so'rashdan sira qutulolmayman. Lekin o'zimni ushlashga, shularni o'ylamaslikka tirishaman. Karavotga cho'zilaman, osmonga qarayman va fikrimni bir joyga jamlab olishga urinaman. Osmon zangori tusga kirdi – demak, kech tushyapti. Boshqa narsalarni o'ylash kerak – yana o'zimni majburlashga urinaman. Yuragimning dukillashiga quloq tutaman. Almisoqdan beri menga hamroh bo'lib kelgan shu tovushning birdan uzilishini hech aqlimga sig'dirolmayman. Men biron narsani aniq tasavvur qilishim bilan ajralib turmaganman.

Lekin, baribir, shunga qaramay, yuragimning chakkamda tovush berishi to'xtaydigan daqiqani xayolimga keltirishga urinaman. Ammo, baribir, foyda chiqmaydi. Tong bilan afv ikkovi yana-yana xayolimni qurshab olaveradi. Oxiri bir qarorga kelaman: o'zimni majburlashdan naf yo'q.

Bilaman, ular tongda keladi. Tuni bilan bir mashg'ulot – tongni kutish bilan band bo'laman. Kutilmaganda kirib angda qoldirishlarini istamayman. Nimadir yuz bersa, tayyor turganim ma'qul. Bora-bora, faqat kunduzlari ora-sira mizg'ib, tunlari osmonda, xuddi oynada ko'ringanday, nurlarning ilishini kutadigan bo'lib qoldim. O'zim bilishimcha, odatda ular ishga kirishadigan vaqtni o'tkazib olish hammasidan og'ir edi. Qoq tundan keyin chog'lanaman, kutib turaman. Qulog'im hech qachon shuncha – eng zaif, bazo'r eshitiladigan tovushlarni ilg'ab ololmagan edi. Har holda, omadim yurishib turadi, deb aytsam ham bo'ladi – shu paytgacha biron marta qadam tovushini eshitmadi. Onam, odam hech qachon butkul bebaxt bo'lmaydi, deb tez-tez aytib turardi. Qamoqda, osmon rang olib, bandixonaga nurlar sizib kira boshlagan paytda onam haq ekanini anglayman. Axir, qadam tovushi kelishi ham mumkin edi, unda, ochig'i, yuragim dosh berolmasdi. Lekin hatto salgina shitir ham meni eshikka uloqtiradi va qulog'imni yog'ochga bosib, juda uzoq, jazavam tutib shuncha uzoq kutardimki, oxiri o'zimning nafas olishimdan qo'rqib ketardim, nafasim xuddi ta'qib qilinayotgan

itnikiday baland, xirillab chiqardi, – a, baribir, mana, yuragim yorilmay qoladi va men yana yigirma to‘rt soatni qo‘lga kiritaman.

A, kuni bilan xayolimni afv so‘raganim band qilib turadi. Bu fikrdan olarimning hammasini olib, endi hech narsa qolmagan ham bo‘lsa kerak. Hech narsani unutmadi, hammasini hisobda tutdim va mulohazalarim a‘lo samaralar berdi. Boshida eng yomonini tanlayman – afv so‘raganim inobatga olinmaydi. Nima qilish kerak? Demak, o‘lar ekanman. Boshqalardan oldinroq albatta. Har bir odam ham biladi – yashashdan osoni yo‘q. Mohiyatan olganda, o‘ttiz yoshingda o‘lasanmi, yetmish yoshingdami – ko‘p ham farqi yo‘qligini, baribir, sendan keyin boshqa erkaklar, ayollar yashayverishini, bu ahvol ming-ming yillar shunday qolaverishini yaxshi tushunaman. Aniq, ravshan – gap yo‘q. Bugunmi, yigirma yildan keyinmi – baribir o‘lar ekanman. Endi shuni o‘ylayotganimda bir narsadan xijolatga tushaman: yana yigirma yil yashash mumkinligini xayolimga keltirganim zahoti ichimdagi hamma narsa irg‘ib turadi. Bu quvonchni o‘ldirish, yigirma yildan keyin, bordi-yu, yana shu ahvolga tushsam, xayolimga yana shunday fikrlar keladi, deb o‘zimni ovuntirishdan bo‘lak chora topolmayman. Axir, aniq, shunday ravshan – o‘linga chap berib bo‘lmaydi, qachon o‘laman, qanday o‘laman – shu ham gapmi. Demak (eng qiyini – shu «demak»ka yetaklaydigan o‘ylar chilvirini qo‘ldan chiqarmaslik), demak, iltimosim rad etilishi mumkinligiga ko‘nikish kerak.

Mana shunda, faqat shunda men boshqa bir imkoniyat – meni afv etishadi, degan fikrlarni o'ylash huquqini qay bir ma'noda qo'lga kiritaman. Faqat bir narsa – qon va tananing asov g'alayoni, aqldan ozdirayotgan telba quvonchni bosish kerakligi alam qiladi. Ana shu ichki hayqiriqni bosiq-vazmin fikrlar bilan o'chirishga to'g'ri keladi. Oldingi, birinchi imkoniyatga ko'nikish uchun bu imkoniyatni ham bo'yinga olish kerak bo'ladi. Shunga erisholgan paytlarimda yana bir soatlik osoyishta vaqtni qo'lga kiritaman. Bu esa, har holda, mayda narsa emas.

Xuddi shunday daqiqada men kashishni qabul qilishdan yana bosh tortdim. Karavotda cho'zilib yotibman, yoz osmonining unniqishidan kech tushayotganini taxmin qilaman. Hozirgina afv so'rashga ariza berishdan voz kechib, endi tomirlarimda qanday qon yurishishini his qilayotgan edim. Kashishga ko'zim uchib turgani yo'q edi. Ko'p kunlardan beri birinchi marta Marini o'yladim. U, ancha bo'ldi, menga xat yozgani yo'q. Shu kuni kechqurun, o'ylab-o'ylab o'zimcha: balki o'limga buyurilgan odamning o'ynashi bo'lish joniga tekkanidir, dedim. Nima bo'lganini qayoqdan bilay, axir endi bizning tanamiz ayro tushgan, hech narsa endi bir-birimizga bog'lamaydi, birimizni birimizga eslatib turadigan hech narsa qolmagan. Lekin, Mari o'lgan bo'lsa, u haqda ancha osoyishta o'ylar edim. Meni uning o'ligi hech ham qiziqitirmaydi. Bu juda tabiiy, turgan gap, o'lganim zahoti odamlar meni ham unutib yuborishadi. Odamlarning men bilan hech qanaqa

ishlari bo'lmaydi. Hatto shuni o'ylab qiynalyapman, deb ham aytolmayman. Mohiyatan olganda, odamlar ko'nikolmaydigan o'ying o'zi yo'q.

Xuddi ana shunday payti kashish kirib keldi. Unga ko'zim tushgach, jinday qaltirab ketdim. Kashish buni sezdi va qo'rqish kerak emas, dedi. Men unga odatda boshqa vaqtlari kelishini aytdim. U shunchaki do'stona ko'rmoqchi bo'lgani, afv so'rab yozgan arizamning bunga aloqasi yo'qligini, o'zining bundan hatto xabari ham yo'qligini aytdi. U karavotimga o'tirdi va meni ham yoniga chorladi. Men bosh tortdim. Aytganicha, uning yuzi juda marhamatli edi. U bir muddat tizzalariga tiralganicha egilib o'tiraverdi, qo'llariga tikildi. Chayir, serpay qo'llari ikkita yugurik jonivorga o'xshab ketadi. Kashish qo'llarini bir-biriga sekin-sekin ishqadi. Va boshini quyi tushirgan ko'yi qimir etmay qotdi, shu qadar uzoq qotib o'tirdiki, men hatto uning shu yerdaligini esimdan chiqarayozdim.

Lekin u birdan boshini ko'tardi va ko'zlarini to'g'ri menga qadadi.

– Nega doim meni ko'rishdan bosh tortasiz?

Men, negaki, xudoga ishonmayman, deb javob qildim. U shunga ishonchingiz komilmi, dedi, men o'zimni taftish qilishim shart emas, chunki buning mutlaqo ahamiyati yo'q, dedim. U xuddi o'ziga o'zi gapirganday, odam ba'zan o'zini bir narsada juda haqman, deb o'ylaydi, lekin aslida boshqacha bo'lib chiqadi, dedi. Indamay qo'ya qoldim. U menga qaradi va:

– Sizningcha qanday? – deb so‘radi.

Bo‘lishi mumkin, dedim. Balki men o‘zimni nima qiziqtirishini ham bilmasman. Lekin meni nima narsa mutlaqo qizitirmaydi – buni aniq aytishim mumkin. Mana, u gapirayotgan narsa meni tariqcha ham qiziqtirmaydi.

U ko‘zini olib qochdi va sinini o‘zgartirmay, balki siz tamom umidingizni uzganingiz uchun shunday deyayotgandirsiz, deb so‘radi. Men umuman umid uzganim yo‘q, deb tushuntirdim. Faqat qo‘rqyapman, bu esa, turgan gap, tabiiy.

– Olloh sizni qo‘llaydi, – dedi u. – Sizning ahvolingizga tushganlardan men bilganlarimning hammasi Ollohga yolvorgan.

Men, nima bo‘pti, har kimning ixtiyori, dedim. Qolaversa; bunga ularning vaqti yetgan ko‘rinadi. Men esa yordamga muhtoj emasman, o‘zim qiziqmaydigan narsalarga sarflashga vaqtim ham yo‘q.

Shu yerda u alamidani chapak chalib yubora yozdi, lekin o‘zini bosdi, ridosining qatlarini tekislay boshladi. Keyin yana, menga «do‘stim» deb gapga tushdi. U, emishki, men bilan o‘limga hukm qilinganim uchun shunday gaplashmayapti, chunki, mohiyatan olganda hammamiz ham o‘limga mahkummiz. Men uning gapini kesdim va bu ikki xil narsa, har qalay, taskin bo‘lolmaydi, dedim.

– Ha, albatta, – deb ma‘qulladi u. – Lekin siz tez kunda o‘lmasangiz ham, baribir, keyinroq o‘lasiz. Va o‘shanda ham shu savol ko‘ndalang bo‘ladi. Bu og‘ir sinovga qanday dosh beraman, deysiz?



– Hozir qanday bo‘lsam, o‘shanda ham shunday dosh beraman.

U o‘rnidan turdi va to‘g‘ri ko‘zlarimga qaradi. Bu o‘yin menga tanish edi. Tez-tez Emmanyuel va Selest bilan ermakka shunday bahs boylardik, odatda doim ular boy berardi. Men kashishning ham bu o‘yinni yaxshi bilishini darrov angladim: uning nigohi titramadi. Gapirayotganda ovozi ham qaltiramadi:

– Nahotki tamomila umid uzgan bo‘lsangiz? Nahotki mutloq o‘laman, mendan hech bir narsa qolmaydi, degan fikr bilan yashasangiz?

– Ha, – dedim.

U boshini quyi soldi, yana o‘tirdi. Menga rahmi kelayotganini aytdi. Odam bolasining bunaqaga bardosh berishi mumkin emasday tuyular ekan unga. Men bir narsani – uning jonimga tega boshlaganini sezdim. Men ham unga orqamni o‘girdim, tuynuk oldiga bordim. Va yelkamni devorga berdim. Yana uning savol berayotgani qulog‘imga kirdi. Tovushi tashvish va sabotga yo‘g‘rilgan edi. Men uning hayajonlanayotganini anglab, e‘tiborliroq tinglay boshladim.

Ishonaman, deb aytdi u, afv haqidagi iltimosingiz qondiriladi. Lekin meni gunoh ezib turadi – shu og‘ir yukdan xalos bo‘lishim kerak. Uning gapidan, odamlar qilgan hukm hech narsa emas, Ollohning hukmi muhim, degan xulosa chiqdi. Lekin meni odamlar hukm qildi-ku, dedim. Lekin bu bilan gunohdan forig‘ bo‘lmadingiz, deb

u e'tiroz bildirdi. Gunoh nimaligini bilmayman, menga faqat gunohkorsan, deb ma'lum qildilar, dedim. Aybdorman, shunga yarasha to'lov to'layman, boshqalari uchun javob bermayman. U yana o'rnidan turdi va men qimirlaging kelsa, faqat yo turasan, yo o'tirasan, bu hibsonada shundan boshqa imkon yo'q, deb o'yladim.

Men yerga tikildim. U menga tomon qadam tashladi va go'yo yaqin kelishga cho'chiganday to'xtab qoldi.

– Gumrohlik qilyapsiz, bo'tam, – dedi. – Sizdan bundan ham ko'proq so'rashlari mumkin edi. A, balki, so'rab ham qolarlar.

– Nimani so'raydilar?

– Ko'rishingiz kerakligini.

– Nimani ko'rish kerak?

Kashish atrofga alangladi, nazarimda, tovushi birdan horg'in tus oldi:

– Bilaman, bu yerdagi har bir toshga uqubat singib ketgan. Bu devorlarga azoblanmay, iztirob chekmay qaray olmayman. Ammo ko'nglimning tub-tubidan bilaman: eng bebaxtlaringiz ham goho mudhish devorlar orasidan ilohning siymosi o'tib kelganini ko'rgan. Ko'rishingiz kerak bo'lgani ham – u edi.

Menga sal jon kirdi. Mana, ko'p oylardan beri shu devorlarga qarayman, dedim. Dunyodagi birorta devorni, birorta odamni ham shuncha o'rganmagan edim, bularni o'rgandim lekin. Balki bir vaqtlar ularda yuzini ko'raman, deb uringandirman ham.

Lekin quyoshning ranglari va istak yolqini lovullab turgan bitta yuz bor – u ham bo'lsa, Marining yuzi. Men bu yuzni behuda izladim. Endi bunga ham chek qo'rganman. Har holda, men hech narsa ko'rmadim, bu toshlar orasidan hech narsa ko'rinmaydi.

U menga juda ma'yus tikilib qolganday tuyuldi. Endi men devorga kiftimni bergandim, chiroq nuri manglayimga tushayotgan edi. Kashish bir-ikki og'iz gap aytdi, men eshitmadim, keyin u shoshapisha, sizni quchoqlasam maylimi, deb so'radi.

– Yo'q, – dedim.

U ortiga o'girildi, devorga yondashib, uni kaftlari bilan siypaladi.

– Nahotki bu dunyoni shuncha qadrlasangiz? – deb so'radi.

Men hech qanday javob qaytarmadim.

U menga o'girilgan ko'yi ancha uzoq turib qoldi. Bunga jahlim chiqayotgan edi, u meni juda ezib yubordi. Endi unga, keting, meni o'z holimga qo'ying, demoqqa chog'langan edim, u birdan menga burildi va hayajon bilan qichqirib yubordi:

– Yo'q, men sizga ishonolmayman! Imonim komil, siz ham gohida u hayotni qo'msagansiz!

Ha, albatta, lekin endi foydasi yo'q – bu boyib ketishni, yo hammadan chaqqonroq suzishni, yo og'zing boshqalarnikiga qaraganda chiroyliroq bo'lishni istashday bir gap, deb javob berdim. Hammasi bir go'r – behuda xomxayol. Shu yerda u gapimni bo'ldi va mening o'sha, u hayotni qanday tasavvur qilishimni so'radi. Endi men qichqirib yubordim:

– Mana, shu yerdagi hayotni qanday tasavvur qilsam, shunday!

Shu zahoti qo‘shib qo‘ydim – bo‘ldi, bas, jonimga tegdi!

U yana Olloh to‘g‘risida gapirmoqchi edi, lekin men unga yaqinroq bordim va oxirgi marta mening vaqtim juda oz qolganini tushuntirishga urindim. Bu vaqtni men xudoga isrof qilishni istamayman. U gap mavzusini o‘zgartirishga urindi va nima uchun uni «padar» deb emas, «janob kashish» deb atayotganimni so‘radi. Men qaynab ketdim va u menga ota emas, menga qarshi turganlar bilan birga ekanini aytdim.

– Yo‘q, bo‘tam, – dedi u va qo‘lini yelkamga qo‘ydi. – Men siz tomondaman. Lekin siz buni tushunishga qodir emassiz, chunki ko‘nglingiz ko‘r. Men siz uchun ibodat qilaman.

Shu yerda, nimagaligini o‘zim ham bilmayman, ichimda nimadir toshib ketdi. Tomog‘imni yirtguday baqirdim, uni so‘kdim va ibodat qilishingizga zor emasman, dedim. Ridosining yoqasidan ushlab oldim. G‘azabdan, shodlikdan dir-dir titrab, ko‘nglimda yig‘ilib qolgan hamma narsani oxirigacha to‘kib soldim. U ko‘rinishidan shunday o‘ziga ishongan tuyuladi, hech narsaga shubha qilmaydimi? Bo‘lmasa, mana, uning o‘ziga ishonishi ayol sochining bittagina tolasiga arzimaydi. U yashayapman, deb behuda ishonadi, axir, o‘likka o‘xshab yashaydi-ku. Mana, men ko‘rinishimdan benavo haqirman. Lekin o‘zimga va hamma narsaga

ishonaman, unga qaraganda chuqurroq ishonaman, tirikligimga va yaqinda o'lishimga ishonaman. Ha, shu ishonchdan boshqa menda hech vaqo yo'q. Lekin, nima bo'lganda ham, bu ishonchdan meni hech kim mahrum qilolmaydi. Xuddi shunday ishonchdan meni ham ajratib ololmaydi. Men hozir ham, ilgarilari ham haq edim, men doim haq bo'lganman. Men mana shunday yashadim, lekin boshqacha yashashim ham mumkin edi. Shu ishni qildim va boshqasini qilmadim. Shunday yo'l tutdim, boshqachasini emas. Xo'sh, nima bo'пти? Nima bo'lib o'tgan bo'lsa-da, oxiri – men shu daqiqani, shu tongni hamisha kutib keldim, xuddi shunda mening haqligim isbotlanadi. Hammasi – hammasi bari bir, hammasining ahamiyati yo'q va men nega shundayligini juda yaxshi bilaman. U ham biladi. Bor bema'ni umrim davomida, kirib kelgan yillar badalida istiqbolning qa'ridan yo'lidagi hamma narsani tekislab tashlab, menga peshvoz xafaqon-xira shabadalar esib turdi va shundan menga va'da qilingan, zo'rlab berishmoqchi bo'lgan hamma narsa, men chindan ham yashagan yillarga o'xshab, xira tortib qoldi. Boshqa odamlarning o'limi, ona muhabbati, uning ollohi, hayotda ma'qul tushadigan boshqa yo'llar, saylash mumkin bo'lgan boshqa qismatlar menga chikora – axir, menga, yana milliardlab tanlanganlarga, u sizning birodarlaringiz deb atayotgan barchaga yakka-yu yagona qismat belgilangan-ku. Nihoyat endi unga tushunarli bo'lgandir? Dunyodagi hamma odam –

tanlanganlar. Boshqalari mavjud emas. Ertami yoki kechmi, hammani sudlaydilar va hukm qiladilar. Va uni ham. Qotillikda ayblanuvchini uning onasini ko'mishda yig'lamagani uchun qatl qilishadimi, yo'qmi, nima farqi bor. Salamono chol itining narxi uning xotining qiymatidan kam ham, ko'p ham emas. Jikkak avtomat-xotin, Mason uylangan pariqlik ayol, mening xotim bo'lishni istagan Mari qancha bo'lsa, shuncha aybdor. Og'aynim faqat Raymon, undan ming marta yaxshi Selest bo'lsa, nima farqi bor? Agar Mari bugun qanaqadir boshqa bir Mersoga labini tutsa ham – nima farqi bor? Xo'sh, tushunyaptimi u, hukm qilingan, istiqbolimning qa'rlaridan... Men bularning hammasini baqirib tashladim va baqirig'imdan bo'g'ildim. Lekin soqchilar allaqachon kashishni changalimdan tortib olishgan va menga tahdid bilan tashlanayotgan edilar. Ammo kashish ularni tinchlantirdi va menga bir muddat indamay qarab qoldi. Uning ko'zlari yoshli edi. U ortiga o'girildi va qorasi o'chdi.

U chiqib ketgani hamono o'zimni bosib oldim. Juda charchanimni his qilib karavotga tashlandim. Uxlab qolibman shekilli, chunki uyg'onsam, yuzimga yulduzlar tikilib turgan ekan. Daladagi tovushlar mengacha yetib keldi. Tun, yer va dengizning salqin nafasi chakkamni ravshan torttirdi. Uxlayotgan yozning mo'jiz osoyishtaligi menga xuddi to'liqinday quyilardi. To'satdan tunning qay bir burchida kemalar tovush berdi. Ular endi men uchun manguga befarq bo'lib qolgan

dunyoning xayrlashuvi va ayrilig'idan mujda olib keldi. Juda ko'p vaqtlardan beri, mana, birinchi marta onamni o'yladim. Uning nega umrining oxirida o'ziga «kuyov» topgani, xuddi hayoti yangidan boshlanadiganday, nega bu o'yinga tushganini anglaganday bo'ldim. O'sha yoqda, odamlarning hayoti so'nayotgan g'aribxona tegrasida ham oqshom o'yga toldiradigan sukunatdan iborat edi. Onam shundoq o'limi arafasida o'zini qayta boshdan yashaydiganday, ozodlikka chiqqanday his qilgan bo'lsa kerak. Hech kimning, hech kimning unga marsiya o'qishga haqi yo'q edi. Mana, men, men ham qayta boshdan yashashga tayyor turibman. Asov g'alayonli g'azab meni xuddi og'riqdan, umidlardan tozalab o'tganday bo'ldi va sirli bilgilar, yulduzlar to'la shu tun oldida men birinchi marta dunyoning sokin xotirjamligiga bag'rimni ochyapman. U menga shunchalar o'xshash, u xuddi birodarimday va men o'zimning shunday baxtli bo'lganimni, hozir ham baxtli ekanimni his qilyapman. Hammasining oxiriga yetishini, faqat bunchalar yolg'iz qolmasligim uchun qatl kunimda ko'proq odam to'planishini istayman, xolos – mayli, ular meni nafrat hayqirig'i bilan qarshi olsinlar.

## MUNDARIJA

### I BOB

I.....	3
II.....	19
III.....	25
IV.....	34
V.....	40
VI.....	47

### II BOB

I.....	61
II.....	70
III.....	81
IV.....	99
V.....	110



*Adabiy-badiiy nashr*

ALBER KAMYU

BEGONA

*Qissa*

Muharrir  
J. MUHAMMAD

Badiiy muharrir  
S. XOLIQOV

Sahifalovchi  
H. ERGASHEV

Texnik muharrir  
T. SATTOROV

Litsenziya raqami: AI № 111.

Bosishga 2019-yil 25.04 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 4,0. Shartli bosma tabog'i 6,72.

Garnitura «Palatino Linotype». Ofset qog'ozi.

Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma № 50.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yoshlar nigohi» xususiy korxonasi tayyorlandi.

«ADAD PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: 100097, Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.